

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

QIYOSIY PEDAGOGIKA

fanidan ma'ruzalar matni

Tuzuvchi:

oqituvchi D.T.Usmonova

Navoiy 2014

**Navoiy davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedrası
o'qituvchisi D.T.Usmonovanning Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi
talabalari uchun mo'ljallangan "Qiyosiy pedagogika " nomli ma'ruza
matniga**

T A Q R I Z

Ta'lim tizimi har qanday jamiyatning taraqqiyotini ta'minlashda muhim o'ringa ega. O'zbekiston Respublikasida ham mustaqillik yillarida ushbu aksioma alohida e'tiborga olindi va uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida etirof etildi. Ushbu jarayonni amalga oshirish uchun jahon mamlakatlari ilg'or tajribasini o'rganish, ularning qiyosiy tahlili qilish istiqboldagi vazifalarni belgilashga muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu jihatdan, D.T.Usmonovanning Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan "Qiyosiy pedagogika " nomli ma'ruza matni pedagogik ta'lim jarayonida jahon mamlakatlari ta'lim tizimidagi o'ziga xosliklarni o'rganishga yo'naltirilganligi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu ma'ruza matnida qiyosiy pedagogika fanining bozor iqtisodiyoti jarayonidagi tutgan o'rni va ahamiyati, talaba yoshlarni milliy mafkuraviy qarashlarni shakllantirish, jamiyatning ilg'or nufuzini kuchi sifatida sog'lom e'tiqodni, erkin fikrlovchi, komil insonlar bulish jarayonidagi o'rni va rolini aniqlash, jahon pedagogikasida, ayniqsa taraqqiy etgan mamlakatlarda ta'limning amalga oshirilishi, istiqboli to'g'risida batafsil ma'lumotlar beriladi.

Mazkur ma'ruza matni Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Qiyosiy pedagogika" fanini mukammal o'zlashtirishlarida muhim manbaa bo'lib xizmat qiladi.

**NavDPI Pedagogika va psixologiya kafedrası
mudiri,**

p.f.n F.O.Xodjiyeva

Mavzu: Qiyosiy pedagogika fani haqida umumiy tushuncha

Reja :

1. Qiyosiy pedagogika fanining maqsadi.
2. Qiyosiy pedagogika fan taraqqiyotining birinchi davri.
3. Jahonning turli mamlakatlarida maorif tizimini takomillashtirish muammolari.

Qiyosiy pedagogika fanining maqsadi bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy imkoniyatlarga boy milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz, xalq og'zaki ijodi namunalari va mutafakkirlarimizning ijodiy va milliy merosidan baxramand etish bilan birga ularning kelajakdagi ish faoliyatlarida Amaliy ahamiyat kasb etuvchi pedagogik bilim, kunikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Bu fanda har bir xalq yashash tarzi, tarixiy va ijtimoiy darajasi, milliy madaniyatiga ega ekanligiga mos ravishda, o'ziga xos takrorlanmas milliy-tarbiya madaniyatiga ega bo'lishi va bulardan hayotda foydalana bilishi kerak Qiyosiy pedagogika fanining bozor iqtisodiyoti jarayonidagi tutgan urni va ahamiyati, talaba yoshlarni milliy mafkuraviy karashlarni shakllantirish, jamiyatning ilg'or nufuzini kuchi sifatida sog'lom e'tiqodni, erkin fikrlovchi, komil insonlar bulish jarayonidagi urni va rolini aniqlash. Jahon pedagogikasida, ayniqsa taraqqiy etgan mamlakatlarda ta'limning amalga oshirilishi, istiqboli to'g'risida batafsil ma'lumotlar beriladi.

Fransiyaning ta'lim tizimi boy va qadimiy tarixga ega. bu yerda «Ta'lim haqida»gi Qonun dastlab 1955 yilda qabul qilinib, 1975 yilda unga bir qator o'zgartirishlar kiritilgan. 2004 yil 15 martda yangi «Ta'lim to'g'risida»gi qonun qabul qilindi

Fransiyada ta'lim tizimining dastlabki bosqichini maktabgacha tarbiya tashkil etadi. Bu bosqichni «Onalar maktabi» deb ham yuritishadi. Bundan kuzlangan maqsad bolalarning maktabdagi sharoitini uz sharoiti Bilan yaqinlashtirish, ularga oiladagidek iliq munosabatni shakllantirishdan iborat.

Fransiya ta'lim tizimida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda uqitish uchun tayyor xolda olib kelish g'oyat muxim masala hisoblanadi.

Germaniya maorifidagi asosiy muammo sobiq GDRdagi ta'limni bir xil milliy me'yorga solishdan iboratdir Asosiy vazifa sobiq GDR dagi ta'lim tuzilmasini Yangi me'yorga va ulchovga tushirish, oddiy usul bilan GFR dagi ta'lim tizimiga utkazib quyishdan iborat.

Ammo buning xam uziga xos muammolari bor. Birinchidan mablag' masalasi bulsa, ikkinchidan sobiq GDR dagi ta'lim jarayoni qatnashchilarining bu uzgarishga munosabatidir.

Niderlandiya ta'lim tizimining shakllanish davri 1789 yilda Fransiya revolyutsiyasi natijasida paydo bo'lgan Bativ Respublikasi davriga to'g'ri keladi. Mamlakatning 75 foiz maktablari xususiy shaxslar, tashkilotlar va jamiyatlar tomonidan, jumladan xristian yoki katolik cherkovlari tomonidan tashkil etilgan. Bu mamlakat ta'lim tizimi 7-3-2 shaklidir. Boshlang'ich ta'lim maktabgacha tarbiya bilan qushilgan.

Niderlandiyada qariyb 4 mln. yoshlar kunduzgi ta'lim oladi. Mamlakatda majburiy ta'lim pulsiz, katta yoshlar maktablari va oliygoxlari pullik.

O'qituvchi va tarbiyachilarning maoshlari davlat tomonidan tayinlanadi Ta'lim vazirligi Niderlandiyada eng qimmat turuvchi vazirlikdir. Unga davlat bir yilga 29,6 milliard gulden mablag' sarf etadi. Bu davlat byudjetining 17 foizidir.

Bu davlatning yer yuzida nufuzli o`rin olishida uning taraqqiy etgan ta`limi juda qo`l keladi.

Yaponiya ta`lim tizimlarining yuksak parvozi uz-uzidan bo`lgani yo`q. Uning xam o`ziga xos inqirozi va muammolari bo`lgan. Bularni to`liqroq tasavvur qilish uchun mamlakat pedagogik tamoyillari va maorif taraqqiyotining tarixiy bosqichlariga nazar tashlash maqsadga muvofiqdir.

Yapon ta`lim tizimining mumtoz shakllanishi 1867-1868 yillardagi mamlakat hukmdori Meydzi tomonidan amalga oshirilgan isloxotlarga borib takaladi. Bu xukmdorning uz oldiga kuygan ilk qat`iy shiori bulib, biri «Fukkoki kioxsi» - boyish, mamlakatni mustaxkamlash va harbiylashtirish, ikkinchisi esa

«Siokusan kogio»-ilg`or G`arb ishlab chiqarish texnologiyasi asosida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish edi. Meydzi ikki maqsadni amalga oshirishning bosh omili ta`lim tizimlarini tubdan uzgartirish va yangilashda deb hisoblardi.

Yaponiya yuksak ilmiy kudratga ega mamlakatdir. U dunyoda ta`limni rivojlantirishga mablag` sarf etishda AQShdan keyin ikkinchi urinda turadi. mamlakat ilmiy izlanishlarga xususiy sektorni qushib xisoblaganda, umumiy fanni rivojlantirishga ajratilgan mablagning beshdan turt kismi ajratilmokda. Keyingi 10-15 yilda tabiatshunoslik va texnologiya soxasidagi oliy uquv yurtlari rivojlantirildi, bunga ilmiy izlanishlarga muljallangan mablag`ning qariyb 60 foizi sarf etiladi.

Texnika taraqqiyoti yuqori saviyali mutaxassis va ishchilarga bo`lgan extiyojni kuchaytirib yubordi.

Rivojlangan mamlakatlarda 12-13 yoshgacha bo`lgan bolalarni umumiy majburiy va bepul uqitish joriy qilindi. Bu omil axoli savodxonligining oshishiga olib keldi, imtiyozli uquv yurtlari tarmog`i kengaydi. Biroq xalqning asosiy qismi qashshoq yashaganligi, yomon uy-joy sharoitlari, bolaligidan tirikchilik uchun pul topish zarurligi bir kator mamlakatlarda kuplab bolalarni ukishni oxiriga yetkazmasdan maktabni tashlab ketishiga majbur qilardi. Ayni paytda , ta`lim soxasidagi salbiy jixatlarni xam kurmaslik mumkin emas edi.

Chunonki, ba`zi mamlakatlarda yoshlarni millatchilik, irkchilik ruhida tarbiyalashga e`tibor berilgandi.

Xususan, AQShda xalq maorifi tizimi irqchilik ruhida edi. Negrlarning bolalari uchun aloxida maktablarda oq tanlilarning bolalari uchun tashkil etilgan maktablardagiga qaraganda katta xajmda bilim berilar edi. Mamlakatda hukm surayotgan irqchilikka qarshi kurash masalasi Garriyut Bicher- Stounning «Tom tog`aning kulbasi» asarida uz ifodasini yaqqol topdi. Bu davrda Sharqda xalq ta`limi soxasida G`arbning yutuqlari tashviq qilina boshlandi. Yevropa ta`siri kuchaydi.

XX asr boshlariga kelib, jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo`lgan tabiiy fanlarning jadal rivojlanishi, texnikaning yanada ildam taraqqiyoti diniy xurofotlardan xoli bo`lgan ilmiy dunyoqarashning mavkei mustaxkamlanishi uchun sharoit yaratdi Gumanitar fanlarda , birinchi navbatda, falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, adabiyot va sotsiologiyada realistik vokelikni aks ettiruvchi asarlar yuzaga keladi. Bir qator olim va yozuvchilar insonlarning yaxshi yashashi uchun, demokratiya, tenglikni ta`minlovchi jamiyatni barpo qilish maqsadida shunga intiluvchi g`oyalarni ifodalovchi va ulug`lovchi asarlarni yuzaga keltirdilar.

Lekin, qanday qilib bulsa xam boylik tuplashga xarakat qilishni tasvirlovchi asarlar xam paydo bul- di. Bu davrda madaniyati , adabiyot va san'atning demokratik asosda rivojlanishi uchun sharoit yaratildi. Ayniqsa, bu narsa adabiyotda yaqqol uz ifodasini topdi, shu sababli tanqidiy realizm va naturalizm yuzaga keldi.

Tarixchilar insoniyat taraqqiyotining turli davrlari xaqida juda katta ashyoviy dalillar tupladilar . Bu davrda xam azaliy kurash yaxshilik va yomonlik urtasidagi kurash-mafkuraviy , g'oyaviy hayotning asosini tashkil qildi.

Gumanitar soha olimlari XX asr boshida ruy berayotgan Yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni urganishni kuchaytirdilar.

Bu davrda falsafa Fani xam rivojlanib davrga moslashdi. Ilgari ma'rifatparvarlik kuchli bulsa, endi inson huquqlariga e'tibor kuchaydi. Fanning rivojlanishi Bilan uning jamiyatdagi urnini belgilash, barcha ijtimoiy muammolarni xal etishda fanning ijobiy xodisa ekanligini asoslash kuchaydi.

Bu davrning mashxur faylasuflaridan biri Fridrix Nitshe (1844-1900) inson irodasi masalasiga katta e'tibor berdi. Inson borlig'ida maxluqlik va xoliqlik birlashib ketganini asoslashga harakat qildi U zardushtlik ta'siri ostida «Zardusht tavallosi» asarini yozdi. Bu asarda kuchli shaxslarni tarbiyalash g'oyasi ilgari suriladi.

Z.Freyd (1856-1939) - psixoanaliz nazariyasining asoschisi , dunyoga tanilgan olim. Uning asarlari XIX asr oxiri XX asr boshlarida yevropada adabiyot va san'atning rivojlanishiga katta ta'sir kursatdi . Freyd qilgan buyuk inqilobning mohiyati shundaki, u Dekartning inson to'g'risidagi tasavvurlarini inkor etib fenomenologik (favqulodda, nodir) yondashuv yordamida ongsizlikni tahlil qilish mumkinligini asoslab berdi. Psixoanaliz an'analarga muvofiq ongsizlik bilib-bulmas jarayon deb tushuntiriladi.

Tarixiy taraqqiyotining davriy modeli, Dune dinlari (buddaviylik, xristian, islom)ning barcha xalqlarni yaqinlashtiruvchi va jipslashtiruvchi bosh omil ekanligi g'oyalari ilgari surildi. Shu tariqa cherkov vijdon erkinligi, diniy e'tiqod erkinligi , barcha dinlarining tengligi tamoyillariga toqat Bilan kunika boshladi.

Bu davrda jahon demokratik madaniyatining fondi Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari yozuvchilarining ijodi Bilan xam boyidi. Atoqli Yapon yozuvchisi A.Ryuneske novellalarida parazit mulkdorlar axloqining inqirozi, xalq ommasining umuiy kuchini anglash uz aksini topdi.

Hind gumanisti yozuvchisi R.Tagor (1861-1941) falsafiy teranligi va badiiy barkamolligi Bilan ajralib turuvchi romanlar, hikoya va she'rlar Bilan butun dunyoga mashxur buldi.

Frantsuz adibi Viktor Gyugo (1802-1885) uzining «daxshatli yil, « Dengiz zaxmatkashlari», «Xurlanganlar», «Tuqson uchinchi yil» kabi asarlarda zulmga , jaxolat va adolatsizlikka qarshi norozilik , bosqinchilikka nafrat , kurashchan xalqqa xayrixolik bildiradi va haqoratlangan mehnatkash insonning fojiali hayoti va kurashini tasvirlaydi.

Bu davrda, Yaponiyalik mashxur yozuvchi Simey Ftabateyning «Suzayotgan bulutlar», Roka Tokutominning «Kurasivo», «Yashamagan yaxshi» romanlari feodal qoldiqlariga qarshi, milliy qadriyatlarni asrashga xorijning ma'naviy tasviriga qarshi qaratilgan edi. Hindistonda bengal yozuvchisi Shorotchandra Chattopadnoy, shoir Muxammad Iqbol asarlari shaxar va qishloq xayotini yerkin tasvirladi, xalqni uyg'onishga undadi.

Shunday qilib, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Fan va madaniyat ancha yuksalib insonlarning yaxshi hayot kechirishlari uchun xizmat qila boshladi.

Nazorat savollari :

1. Jahon pedagogikasida ta'lim amalga oshirilishi kanday olib borilmoqda ?
2. Jahon mamlakatlarining ta'lim tizimida qanday maorif muammolari bor ?
3. Chet el ta'lim tizimi xaqida nimalarni bilasiz ?
4. XIX asr oxirlarida pedagogika fanida qanday uzgarishlar, yangiliklar buldi ?
5. Qiyosiy pedagogika taraqqiyotining ikkinchi davrida ta'lim soxasi xaqida gapiring.
6. XIX asr oxiri XX asr boshlari jahon adabiyotining yirik namoyondalari ijodi xaqida gapiring.

Mavzu: Qiyosiy pedagogika fani rivojlanishida xalqaro tashkilotlar va ularning faoliyati

Reja:

1. YUNESKO tashkilotining taxlil sohasidagi faoliyati.
2. YUNISEF, MOT (XMT) xalqaro tashkilotlarining vazifalari va ta'lim-tarbiya jarayonlari yuksalishidagi o'rni.
3. AQSHning TINCHLIK KORPUSI va uning ish faoliyati.

Xalqaro maydonda qator tashkilotlar fan va texnika, ta'limni rivojlantirishga bevosita kumaklashib kelmoqda. Bularga misol qilib YUNESKO.YUNISEF, MOT, AQShning tinshlik korpusi tashkilotlarini keltirish mumkin.

YUNESKO

YUNESKO Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan, madaniyat masalalarini rivojlantirishga ixtisoslashtirilgan tashkiloti bulib, u 1946 yilda tashkil etilgan. BMT ikkinshi jahon urushidan keyin suveren davlatlarning ixtiyoriy birlashuvi asosida jahonda tinshlik va xavsizlikni saqlash hamda davlatlar urtasida tinsh hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tuzilgan. BMT uzining tuzilishiga kura Bosh Assambleya (Yalpi majlis), Xavsizlik kengashi, Xalqaro sudga ega. Bulardan tashqari BMTning doimiy amalda bulgan faoliyatini Kotibiyat olib boradi va uning ishini Bosh Assambleya saylab quyadigan Bosh Kotib boshqarib boradi.

Bosh Assambleya har yili jahon siyosatining dolzarb muammolarini muhokama qiladi va bu masalalar buyisha BMTga a'zo bulgan davlatlarga yoki Xavsizlik Kengashiga tavsiyalar beradi.

1993 yilgi ma'lumotlarga kura YUNESKO tashkilotiga 171 davlat, jumladan O'zbekiston ham a'zo

Bu tashkilotning qarorgohi Fransiyaning poytaxti Parij shahrida bulib, uning bosh organi- Bosh direktordir.

Hozirgi kunda BMTning YUNESKO tashkiloti, Bolalarni Himoya qilish Tashkiloti (YUNISEF), Oziq ovqat va Qishloq xo'jaligi masalalari bilan shug'ullanuvshi "FAO" tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST), Atom energiyasi bo'yisha xalqaro vakillik (MAGATE), Kosmik fazodan tinsh maqsadda foydalanish Komiteti, Xalqaro Elektr Aloqalari Ittifoqi singari o'nlab tashkilotlar davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishda jahon siyosatining yetakshi kushiga aylanib bormoqda.

Bu xalqaro tashkilotga a'zo bo'lgan mamlakatlarning vakillari 2 yilda bir marta o'zlarining Bosh konferensiyalariga to'planadilar. Bu anjumanda ular YUNESKOning

keyingi 2 yillik faoliyatining dasturini qabul qiladilar, Ushbu dasturni amalga oshirish ushuni unga a'zo bo'lgan davlatlar mablag' - byudjet ajratadilar.

YUNESKO faoliyatida xalqaro hamkorlik, tinchlikni saqlash masalalari asosiy urinni egallaydi.

YUNESKO faoliyati uta xilma-xil va kup qirralidir. Uning ta'lim sohasidagi ishlari kup yunalishlarda olib boriladi. Jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda savodsizlikni tugatish, jahon ta'limi rivojlanishidagi tendensiyalarni tahlil qilish va uni ommalashtirish, u yoki bu mamlakatda ta'lim buyisha olib borilayotgan siyosatni ham moddiy ham ma'naviy rvg'batlantirish va boshqalar.

YUNESKO mazmunli ta'limning hamma ushuni birday imkoniyat doirasida bulishini ta'minlash, uning uzluksizligini qaror toptirish, ta'limni va uning shaklini kelajakda rivojlanishi tamoyillaridan kelib shiqadi.

O'qituvshi kadrlar tayyorlash, ularning nazariy-amaliy saviyasini muttasil oshirib borish, ba'zi mamlakatlarda muammo bo'lib hisoblangan xotin-qizlarning erkaklarning bilan teng bilim olish huquqlarini ta'minlash, ekologik ta'limni yo'lga qo'yish, darslik va dasturlarni takomillashtirish, mamlakatlar o'rtasida ta'lim bo'yisha hamkorlikni butun shoarlar bilan rivojlantirish va juda ko'p boshqa masalalarni hal qiladi.

Bu faoliyatning barshasi yoshlarga jahon talablari ruhida ta'lim berish, ularni xalqaro hamkorlik, o'zaro ishonsh, do'stlik, birodarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgandir.

Fan va texnologiyani rivojlantirish borasida YUNESKO bir qator davlatlararo dasturni amalga oshirdi. Bu dastur asosan, ekologik muhitni yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liqdir.

Hozirgi dunyoda millatlar va xalqlarning madaniy, tarixiy meroslarini, osori atiqalarini asrash, avaylash, kelajak avlodlar ushuni uni saqlash, ta'mirlash ishlari katta ahamiyatga molikdir. Bu masalada YUNESKO asosiy o'rinni egallaydi. Uning ro'yxatiga jahon tarixiy yodgorliklarining iftixori hisoblangan Buyuk Xitoy devori, London Taueri, Klimenjarodagi milliy park va boshqa minglab ob'ektlar kiradi.

YUNESKO faoliyati tarkibiga yana xalq og'zaki ijodiyoti, folklor, ulanlar, aytishuvlar, maqomlar, xalq kuylari, laparlarni saqlash ham kiradi.

Adabiyot buyisha YUNESKOning roli ayniqsa salmoqlidir. Jahon adabiyoti, uning shoh asarlari, adabiy meros ayniqsa u tomondan e'zozlanib, ular tuplanadi va jahonning turli tillariga tarjima qilinib, bosmadan shiqariladi va tarqatiladi.

YUNESKO yana ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, jahon ahlini voqea va hodisalardan voqif qilish masalalariga ham faol qatnashib uning rivojlanishiga ko'maklashadi. U ko'plab vaqtli matbuoi nashrlariga xomiylik qiladi. Uning "Kurer YUNESKO" jurnali mashhur bo'lib, 50 yildan oshibdiki, jahonning 32 tilida Breyli shrifti bilan nashr qilib tarqatiladi.

1992 yil 2 martda O'zbekiston BMT ga a'zo bo'lgash, BMTning barsha tashkilotlariga haqli a'zo bo'lib kira olish huquqiga ega bo'ldi. Shu bois O'zbekiston 1993 yil 26 oktyabrda YUNESKOga a'zo bo'lib kirdi.

1993 yil YUNESKOning ko'zga ko'ringan ekspertlari yurtimizga tashrif buyurib, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarining tarixiy obidalari bilan tanishdilar. Natijada bu yodgorliklarni qayta tiklash va ta'mirlash dasturi tuzildi va bu dastur 1995 yildan amalga oshirila boshlandi.

1994 yil aprelda YUNESKOning barsha bo'limlarining vakillari Toshkentga kelishdi. Ularning bu tashrifidan maqsad Markaziy Osiyo respublikalarida YUNESKOning vazifalarini aniqlab olishdan iborat edi. Samarqandda YUNESKO tasarrufidagi Markaziy Osiyo respublikalarini o'rganish instituti tashkil etishga qaror

qilindi. Bu institut jahonning shu mintaqasida o'rganish bo'yisha eng yirik markaz bo'lib qoladi.

YUNESKO tashabbusi bilan Parijda Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tavalludining 600 yillik yubiley tantanalari bo'lib o'tdi. Samarqan, Buxoro, Xiva shaharlarining yubileylari o'tkazildi.

YUNESKO ekologik muammolarni hal etishda ham yordam ko'rsatishga tayyor.

BMT jahon madaniyati va ma'rifatini rivojlantirish o'n yilligini (1988-1997) o'tkazishga qaror qilingan edi.

YUNESKO ham shu doirada faoliyat yurgizib, "Buyuk Ipak Yo'li" ni kompleks o'rganish dasturini qabul qildi. Bu dasturning maqsadi Sharq bilan G'arb o'rtasidagi quruqlikdagi va dengizdagi savdo yo'lining salohiyatini aniqlash, tiklashdan iborat bo'lsa, ikkinshi tomondan bu yo'l Sharq bilan G'arbning madaniy va ma'rifiy hamkorligini ham bir-biriga bog'lovshi ko'prik ekanligini oshib berish, uni tiklashdan iboratdir.

Bu tadqiqotlar to'rt asosiy yo'nalishda olib borilmoqda:

1. Ipak yo'li mamlakatlariga kiruvshi xalqlarning tili va yozuvini o'rganish.
2. Karvonsaroylar o'rnini aniqlash va ularni qayta tiklash, poshta aloqalarini yo'lga qo'yish;
3. Kosmik arxeologiyani qayta jonlantirish;
4. Jahon turistlar tashkiloti bilan hamkorlikda ipak yo'li bo'ylab turistik yo'nalishlarni oshish va uni harakatga keltirish.

YUNESKOning tashabbusi va hamkorligi bilan O'zbekistonda qator madaniy ma'rifiy tadbirlar o'tkazish davom etmoqda

YUNISEF

1946 yilning 11 dekabrda BMT Bosh Assambleyasining birinshi sessiyasida bir ovozdan YUNISEF- BMTning Bolalar Fondi nomi bilan tarkib topdi.

YUNISEF tashkil topan dastlabki yillarda uning mablag'i urushdan qattiq jabrlangan Yevropa va Xitoydagi bolalarga oziq-ovqat, dori-darmonlar ushuni sarf qilina boshlandi. 1950 yil dekabrda BMTning bosh Assambleyasi YUNISEF vakolatini yanada kengaytirdi. Uning mablag'lari rivojlanayotgan davlatlar bolalari ushuni sarflana boshlandi. 1953 yil oktyabridan BMT Bosh Assambleyasi YUNISEFni uzining doimiy organiga aylantirdi. 1960 yildan u bolalar manfaatini himoya qiluvshi zabardast organga aylandi.

1965 yilda YUNISEF Nobel mukofotiga sazovor buldi.

YUNISEF hozirda ham bolalar manfaatini himoya qilishga, ularni sog'lom, bilimli bulib usishiga kumaklashish, bolalar ulimini oldini olish, onalik va bolalikni himoya qilish, loaqal bolalarga bepul boshlang'ish ma'lumot berish, ularning farovonligini ta'minlashga asosiy e'tiborni qaratmoqda.

Bu tashkilot O'zbekistonda ham uz insonparavrlilik faoliyatini olib bormoqda. Uning Respublikamizdagi faoliyatining asosiy yunalishlari onalik va bolalikni himoya qilish, ularga kerakli tibbiy yordam kursatish, tula qonli ta'lim berish,, turmush sharoitini yaxshilash, ijtimoiy kafoltlarini himoya qilishdan iboratdir. Turli kasalliklarning oldini olish ushuni vaksinalar keltirilmoqda.

YUNISEF ta'limni amalga oshirishga kumaklashishda faol qatnashmoqda. Ayniqsa bu tashkilot maktabgasha tarbiya va boshlang'ish ta'limga kuproq yunaltirilgan. Ta'lim buyisha yana qator dasturlarni amalga oshirish loyihalari belgilangan.

MOT (XMT)

MOT –xalqaro mehnat tashkiloti birinshi jahon urushidan keyin roq tashkil topgan. Uning maqsadi inson huquqlarini himoya qilish, ularning mehnat turmush sharoitini yaxshilash, ish bilan ta'minlashni yulga quyish, mehnatkashlarning jamiyat talablariga mos kasb bilan ta'minlash ularning kasb mahoratlarini oshirish, iqtisodiy ahvolini yaxshilash kabi ijtimoiy adolat tamoyillarini amalga oshirishdan iboratdir.

Uning tashkil etilishiga birinshi jahon urushi oqibatida jahonda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy holat sabab buldi.

Oradan 25 yil utgandan keyin XMT ning Filadelfiya Konferensiyasida uning maqsad va vazifalari kengaytirildi, jahonning rivojlangan, rivojlanayotgan davlatlari urtasida aholini mehnat va mehnatga tayyorlash buyisha keng hamkorligini yulga quyish masalalari eng dolzarb masala deb qabul qilindi.

1946 yildan XMT BMTning birinshi ixtisoslashtirilgan muassasasiga aylantirildi. 1969 yilda u Nobel mukofoti bilan taqdirlandi. Unga a'zo mamlakatlar soni 170 ga yaqin.

U quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Mehnatkashlarning ish sharoitini va turmush tarzini yaxshilash, ishga joylasha olish qobiliyatini oshirish;
2. Xalqaro mehnat normativlarini joriy etish, uning qullanilishini nazorat qilish;
3. Professional tayyorgarlik, hunar-texnika ta'limi umumiy tadqiqotlar, nashriyotlar sohasida faoliyat kursatish va boshq.

XMT uzining qudratli uquv markaziga ega. Bu uquv markazi Italiyaning Turin shahrida bulib, yiliga unda 170 mamlakatdan 60 mingga yaqin kishilar mehnatga tayyorlash, ta'lim, tashkil etish kabi eng zamonaviy va dolzarb sohalarida uqitiladi.

Yana XMT tasarrufida Jeneva shahrida ijtimoiy mehnat buyisha tadqiqotlar olib boruvshi xalqaro institut ishlab turibdi.

XMT ning oliy organi har yili utkaziladigan xalqaro Konferensiyadir.

O'zbekiston XMTga 1992 yil 13 iyulda a'zo bulgan. XMTning O'zbekiston bilan hamkorligi fuurolarni uz-uzini ish bilan ta'minlash; mehnat taqsimoti, kasblarga taqsimlash masalalarida shet ellarda malaka oshirish; aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoya qilish; kasb ta'limini yulga quyish yunalishlarida rivojlanmoqda. XMT bilan hamkorlikning yangi bosqish va yunalishlarda rivojlantirish shoralari kurulmoqda.

AQSHNING TINSHLIK KORPUSI

AQSh prezidenti Jon F.Kennedi 1961 yilning 1 martida uzining maxsus farmoni bilan Tinchlik korpusini tashkil etdi. Uning vazifasi bir-birini uzaro tushunish orqali har xil millat kishilarining urtasida tinshlik va totuvlikni mustahkamlashdir. Tinchlik Korpusi – AQShning mustaqil hukumat muassasasi, Prezident Ijroiya komitetiga hisob beruvshi hukumat tashkilotidir.

Bu siyosiy tashkilot emas. Uni mablag' bilan AQShning Kongressi ta'minlaydi. Tinchlik Korpusining rahbari Prezident tomonidan tayinlanadi.

Tinchlik Korpusining maqsadi:

-muhtaj mamlakatlar va ularning fuqarolariga yuqori malakali mutaxassislar bilan yordam berish;

- Jahondagi boshqa mamlakatlar va odamlarning AQSh va uning odamlarini yaxshiroq tushunib olishga kumaklashish;

- Amerikaliklarni boshqa mamlakatlar va uning kishilari bilan yaqindan tanishtirish, shu asosda insonlarni bir-biriga yaqinlashuvini ta'minlashdan iboratdir.

Tinshlik korpusi shet ellarda kungillilarni qullab –quvvatlash maqsadida ofislar tuzib, unga rahbarlar tayinlaydi. Kup mamlakatlarda Tinshlik Korpusi ikki tomonlama bitim asosida ishlaydi.

O'zbekistondagi Tinshlik Korpusi 1992 yilning 4 noyabrida Toshkent shahrida O'zbekiston va AQSh Tinshlik Korpusi davlatlararo shartnomasiga imzo shekdilar. Shu yili respublikamiz hukumati Tinshlik Korpusi kungillilarini oliy va urta uquv yurtlarida ingliz tilidan dars berishga, shuningdek kishik biznesni rivojlantirishda yordam berishga taklif qildi.

1992 yilning 20 dekabrda Toshkentga boshlang'ish ush oylik uqish ushun 54 nafar kungilli xizmatshilar keldilar. Bu davr mobaynida ular rus va o'zbek tillarini, o'zbek madaniyatini, uz sohasi dasturini urganishdi. 1993 yil martdan viloyatlarga ish joylariga junadilar. Shu mamlakatdagi hamkasblari bilan turli masalalar ustida hamkorlikda ishlay boshladilar.

Mavzu yuzasidan topshiriq

YUNISEF tashkilotining O'zbekistonda bolalar manfaatini himoya qilish, ularning ta'limiga kumaklashish borasida olib borayotgan faoliyatini misollar bilan yoritib bering.

Mavzu yuzasidan topshiriq

“YUNESKOning O'zbekiston ilm fani va madaniyati rivojidagi o'rni” mavzusida qisqasha matn tayyorlash.

Mavzu: Jahon mamlakatlari ta'limi taraqqiyotining ayrim masalalari

Reja:

1. Jahon mamlakatlari ta'lim muammolarining umumiy tavsifi, ta'lim tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish, ta'limni isloh qilish yullari, uquv dasturlari, integratsiyalashtirilgan va maxsus kurslar.
2. Mehnat ta'limi, kasbga yunaltirish, ta'limni, tabaqalashtirib olib borish muammolari, maxsus maktablar, qobiliyatli bolalar bilan ishlash dasturi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida har jihatdan rivojlangan kishini tarbiyalash muammosi hozirgi kunning asosiy talabi bulib turibdi. Chunki, jamiyatda yuz berayotgan inqilobiy uzgarishlarni insonning uzini uzgartirmasdan amalga oshirib bulmaydi. Ammo, yangi kishini tarbiyalash uz-uzidan emas, balki ijtimoiy munosabatlar yangilanishi jarayonida amalga oshadi. Bu jarayonda maktablar tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot texnologiyalari yetakchi uringa chiqib olgan hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda maktablar tizimini, ta'lim mazmunini yangilash zaruratga aylandi. Eskicha uqitish usullari va metodlari ma'nan eskirib, ta'limning ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan metodlari va shakllariga ehtiyoj kuchaydi.

Qadimgi ajdodlarimiz olamning murakkab tabiiy jarayonlarini urganib borar ekan, insonni, uning ma'naviy-axloqiy kamolotini olamdan tashqarida emas, balki shu olamning ichida deb qaraydilar. Ularning fikricha, odam – olam ichidagi kichik olam bulib, unda katta olam (olami Kubro) ning barcha xususiyatlari uz aksini topgandir. Bu hol olamni tula tasavvur qilishdan oldin odamni, inson olamini yaxshi bilishni taqazo etadi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, hozirgi davr rivojlangan mamlakatlarida insonni tabiatning oliy mahsuli sifatida, olamning bir parchasi deb qarashda biryozlamalikka

berilib ketish kuzga tashlanadi. Shuning uchun bu mamlakatlarda insonni faqat zamonaviy ishlab chiqarish ilmi bilan qurollantirish, axborot texnologiyalari, boshqaruv malakalarini urgatishga ustivor soha sifatida qaralmoqda. Ulardagi maktablar ta'lim-tarbiyasi oldiga ham shunday vazifa quyilgan bulib, kichik olam (Najmiddin Kubro) ning moddiy ehtiyojlari yetakchi uringa, ma'naviy ehtiyojlar keyingi uringa tushib qolayotir.

Vengriya va Germaniyada xalq ta'limi tizimi

Sobiq shurolar imperiyasi barham topguniga qadar Yevropadagi qator mamlakatlarda xalq ta'limi taraqqiyoti sobiq kommunistik firqalar mafkurasi asosida amalga oshirildi. Ammo, mamlakatlar moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda yoshlarga zamon talablari asosida ta'lim-tarbiya berish, ularni ilmiy-texnika inqilobi yutuqlariga asoslangan kasbiy bilimlar bilan qurollantirish lozim deb qaraldi. Shuning uchun mazkur muammoni hal qilishga qaratilgan davlat qarorlari qabul qilindi. Vengriyada (1980 y) va Chexoslovakiyada (1981) maktab ta'lim-tarbiyasi sifatini tubdan uzgartirish yunalishida dadil qadamlar tashlandi. Maktab ta'lim-tarbiyasi puxta uylangan reja asosida yulga quyildi.

Sotsialistik tuzum barham topguniga qadar mazkur mamlakatlarda jadal industrlashtirish yullarida (50 -y) yoshlarga umumta'lim va kasbiy ta'lim berish ehtiyoji kuchaydi. Qishloqlarda jadal sur'atlar bilan yirik maktablar barpo etildi, mavjud maktablar yarim internatlar shakliga utdi. Uquvchilar kontengentining 30 % i yarim internatlar va kuni uzaytirilgan guruhlariga jalb etildi. Majburiy ta'lim 8 yillik bulib, ta'limning ishlab chiqarish bilan aloqasi kuchaytirildi.

70 – yillarda maktab bitiruvchilarining 80 % i (8-sinfni) turli shakllardagi umumiy urta ta'lim maktablarida davom ettirdilar. Ammo, umumiy urta ta'lim (X-XI sinflar) ga yoshlarni jalb etishda qator ob'ektiv muammolar mavjud bulib, ularni hal qilishda Yevropa mamlakatlari yaqindan hamkorlik qilishmoqda.

Vengriya – hududi-93.000 kv.km, aholisi 11 mln., poytaxti – Budapesht shahri, mamlakat utmishi mustaqillik uchun kurashlar tarixi bilan hamohang 1919 yilgi inqilob (133 kun) tufayli yagona mehnat maktabi haqida Dekret qabul qilingan edi. Maktab ta'limini qayta qurish va savodsizlikni tugatish yulida ilk qadamlar quyildi. Ammo, Xorti boshchiligidagi fashistik rejim xalq ta'limi rivojini ortga surib yubordi.

Ikkinchi jahon urushi tugaganida mamlakatdagi bolalarning teng yarmi boshlang'ich ta'limni ham olmagan, kattalarning 10 % i savodsiz, talabalar orasida oddiy xalq bolalari 2,7 % ni tashkil etar edi.

Utgan asrning 50-yillari nihoyasida mamlakatda 6-16 yoshli bolalar uchun tekin umumiy majburiy ta'lim joriy etildi. “Vengriyada xalq maorifi tizimi haqida Qonun” qabul qilindi (1961 y). Bu xalq maorifi sohasidagi erishilgan yutuqlarni yanada mustahkamladi.

1972 yildagi “Xalq maorifining ahvoli va uni takomillashtirish haqida” gi qaror va 1975 yilgi qurultoy umumiy majburiy urta ta'limga tula utishi ta'minlandi. Hozirgi kunda mamlakat xalq ta'limi tizimi quyidagi kurinishga ega:

Bolalar bog'chalari – 3-6 yoshli bolalarning bir qismini qamrab olgan (70 %). Bog'chalarga qatnamaydigan bolalar maktabga borishdan 6 oy oldin tayyorlov mashg'ulotlariga jalb etiladi. Bog'chalardagi mashg'ulotlar aholining ish rejimiga bog'liq holda tashkil etiladi.

Umumiy majburiy ta'limga 6 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb etiladi. Bu amalda 2 bosqichli 8 yillik ta'lim bulib, I-IV, V-VIII sinflarni uz ichiga oladi. 1-sinfga qabul qilinganlarning 80 % i asosiy maktab (8-sinf) ni 14 yoshida, qolgan 20 % i 16 yoshida tugallaydi. Yuqori sinflarda iqtidorlilar uchun alohida uquv rejasiga asoslangan

chuqurlashtirilgan ta'lim beriladi. 8-sinfni bitirgan usmirlar urta umumiy ta'lim olish uchun yana 2 yil uqiydi.

Urta ma'lumot – tayanch maktabi (8-sinf) ni bitirgan uquvchilarning 20 % i jalb etiladi (iqtidorlilar, shundan bolalarning 15 % i). Shuningdek, ularning bir qismi kasb-hunar-texnika bilim yurtlariga jalb etiladi. Lekin ularning 15 % i ishlab chiqarish yunalishida umumiy ta'lim oladi.

Gimnaziya – 4 yillik ta'lim bulib, unda chuqurlashtirilgan ta'lim sinflari ham mavjud. Gimnaziyaning oxirgi sinflarida ba'zi fanlar tanlov asosida urganiladi. Gimnaziyani tugatganlarga uzlashtirish natijalariga kura yetuklik attestatni olish uchun imtihonlarni topshirishga ruxsat beriladi. Ular oliy maktabda uqishni davom ettirishlari mumkin, qolgan qismiga ishga kirish uchun guvohnoma beriladi. Topshirilgan imtihonlar oliy uquv yurtiga kirish imtihonlari vazifasini ham bajaradi.

Kasb-hunar urta maktabi – 4 yillik kasbiy ta'lim bulib, xalq xujaligining 11 yunalishi uchun malakali mutaxassislar tayyorlab beradi. Uni tugatganlarga ham oliy maktabga kirish huquqini beruvchi yetuklik attestati beriladi.

Hunar-texnika bilim yurtlari – 3 yillik kasbiy ta'lim bulib, xalq xujaligining 186 yunalishi uchun malakali ishchilar tayyorlaydi. Uni tugatganlarga yetuklik attestati beriladi.

Gimnaziya va kasb-hunar maktablarining kechki va sirtqi bulimlari ham mavjud bulib, hamma uchun ochiqdir.

Oliy uquv yurtlari – 18 universitet, 32 institut va yana bir necha oliy maktablarni uz ichiga oladi. Boshlang'ich sinf uqituvchilari – pedagogika bilim yurtlarida, urta maktab uqituvchilari esa pedagogika institutlari va universitetlarda bayyorlanadi. Shuningdek, aspirantura, doktorantura, kon'yunktura, fanlar akademiyasi, malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalari faoliyat kursatmoqda. Ularda hozir masofaviy ta'lim, pedagogik texnologiyadan keng miqyosda foydalaniladi.

Ruminiya – aholisi 23 mln., yer maydoni – 237,5 ming km.kv, poytaxti – Buxarest. Mamlakat xalq ta'limi tizimi 1948 yilda isloh qilindi. 1968 yilda “Xalq maorifi haqida Qonun” qabul qilindi va 10 yillik majburiy ta'lim joriy etildi. Xalq maorifi tizimi tuzilishini belgilab berdi.

Bolalar bog'chalari (3-6 yosh 60 %) da ta'lim boshlang'ich ta'lim mazmuni bilan yaqindan bog'langan.

Umumta'lim maktablari – uch bosqichli: boshlang'ich (I-III), gimnaziya (V-VIII), litsey (IX-X) sinflarini uz ichiga oladi. V sinfdan boshlab, fakultativ soatlar uqitiladi. VIII sinfni bitirganlar (90 %) imtihonsiz litseyga kiradilar. Kupchilik VIII sinf bitiruvchilari (73 %) maxsus litseylarga (sanoat, qishloq xujalik, iqtisod, pedagogik, tibbiyot) yunalishlaridagi uqishga kiradi.

Litseyning I-bosqichini bitirganlar kasb ta'limi beruvchi kurslarda yoki maktablarda (2 yil) uqishi mumkin. Litsey ta'limini tula utaganlar kasb ta'limi maktablarida ixtisoslashgan ta'lim oladilar.

Kasb-hunar ta'limi (1-2 yil) – 10 yillik ta'limni bitirganlar qabul qilinadi.

Oliy ta'lim – universitet va institutlarda beriladi.

Uqituvchilar – boshlang'ich sinflar uchun litseylarda (4 yillik) va yuqori sinflar uchun universitetlarda amalga oshiriladi.

CHexoslovakiya – aholisi 15 mln., yer maydoni 127,9 ming km.kv., poytaxti – Praga. 1990 yildan Chexiya va Slovakiyaga bulinib ketdi. 1948 umumiy majburiy ta'lim haqida Qonun qabul qilindi.

Bolalar bog'chalari (3-5 yosh, 80 %), 1 yillik tayyorlov guruhlari.

Maktab ta'limi (6-16 yosh); asosiy maktab – 8 yillik (ikki bosqichli) bulib, boshlang'ich (I-IV) va tuliqsiz urta (V- VIII) sinflardan iborat. Uzoq tumanlarda internatlar mavjud.

Tuliq umumiy ta'lim – usmirlarning 20 % ini qamrab oladi. Bu maktabda 4–yillik gimnaziya bulib, differentsial ta'lim beriladi. Gimnaziya imtihon bilan tugaydi va VUZ ga kirish huquqini beradi.

Kasb-hunar ta'limi (4 yil) – urta ma'lumot va kasb-hunar beradi (95 %). Shuningdek, kasb-hunar shogirdligi (1-3 yil) uquvi ham mavjud.

Oliy ta'lim – universitet va institutlarda amalga oshiriladi. Uqituvchilar universitetlarning pedagogika fakultetlarida tayyorlanadi.

O'zbekiston ta'lim tizimi keng qamrovli islohatlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan keshirmoqda. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad - maktab faoliyatini demokratlashtirish, uning insonparvarlik tamoyillarnini rivojlantirish, shu asosda o'quv tarbiya ishlari mazmunini uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Bu vazifalarni muvofaqqiyatli hal qilishning muhim shartlaridan biri shet el maktabi va pedagogikasi tajribalariga munosabatni tubdan o'zgartirishdan iborat ekanligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Bu tajribalarni o'rganish orqali biz ta'limda xato va yangilishishlardan, shubxali xulosalarda o'zimizni saqlashimizdan tashqari ta'lim tarbiyada qotib qolgan, eskirgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shakllari va uslublarda tezroq xolos bo'lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimsha boy manbalarga ham ega bo'lamiz.

Ta'lim- tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyusiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb – xunarga yo'naltirishda davlat xizmatini xamda o'rta ta'limning ko'p variantli ushinshi bosqishini joriy etish, ta'lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yul oshish, uning muxim tizimlarini yaratish kabi shet el tajribalarini o'rganish ayni muddaodir.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning mamlakat ishki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan xaqiqatdir. Shu tufayli ham shet mamlakatlarda maktab extiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan yilga - oshib bormoqda.

Yaponlarda masalan, «maktab muvoffiqiyati va farovonlik timsoli» gina bo'lib qolmay, «u insonlarni yaxshilaydi», degan fikr ishonsh va e'tiqodga aylangan.

Ta'lim to'g'risidagi g'amxurlik taniqli siyosatshilarning xam xamisha diqqat – etiborida bo'lgan. Shuning ushun xam AQSh ning sobiq Prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M.Teshsherni, Fransiya Prezidenti F.Mettiranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb bejiz aytishmaydi. F.Mitteran maktabni «Jamiyatini harakatlantiruvshi kush» deb hisoblagan.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning ikki mingdan ortiq. Fransiya, AQSh, Yaponiyada ta'lim tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar Universitetlar pedagogik tadqiqot markazlari shug'ulanmoqdalar. Ular faolitini esa xalqaro ta'lim markazlari, masalan, AQSh da xalqaro instituti

muvoqilashtirib bormoqda. Ko'pshilikning faoliyati o'quv dasturini takomillashtirish va qayta qurishga qaratilgan.

O'quv dasturlarini qayta ko'rib shiqish.

Maktab dasturlarini o'zgartirish ikki asosiy yo'nalishda: ekstensiv va intensiv yo'l bilan amalga oshiriladi.

Birinshi holatda o'quv muddati uzaytiriladi, o'quv materiallari hajmi ko'paytiriladi; ikkinshi holda esa mutlaqo yangi dastur yaratiladi. Bu o'rinda ikkinshi yo'l, ko'pshilik mutaxassislarning e'tirofida, maqbul hisoblanadi.

1961 yilda «Bosh yangi bazis» tamoyillari asosida AQSh o'rta maktablarni islohot qilish boshlangan edi.

Buning mohiyati shundaki, ingliz tili va adabiyoti (to'rt yil), matematika (to'rt yil), tabiiy bilimlar (ush yil), ijtimoiy fanlar (ush yil), kompyuter texnikasi (yarim yil) kabilardan iborat besh yo'nalishdagi majburiy ta'lim joriy qilindi.

Har bir yo'nalish o'z navbatida bir nisha qismga bo'linadi. Masalan, matematika, algebra, trigonometriya, ish yuritish, kompyuter texnikasini qo'llashdan iborat barsha majburiy predmetlar tarkibiga yangi kurslar kiritildi. 1985 yildan etiboran barsha yuqori bosqich kollejlarning to'qson foizi shu besh bazisli tamoyillar asosidagi dasturlar bilan ish olib bormoqdalar. Natija: majburiy tayyorgarlik buyisha ta'lim xajmi qisqardi, shu bilan bir qatorda dastur shuqurlashtirilib o'rganiladigan kurslar hisobiga tig'izlashtirildi.

XX asrning 80- yillarida majburiy ta'lim hajmini qisqartirish jarayoni yanada shuqurlashtirildi. Hatto ayrim kollejlarda bu sohada ush yangi: ingliz tili va adabiyoti, matematika, ijtimoiy bilimlar bazislari asosida ish olib borilmoqda. Ta'limning boshqa turlari esa iqtisoslashtirish davrigacha amalga oshiriladigan bo'ldi.

Amerikadagi ko'zga ko'ringan «Found Karnegi» pedagogik markazi bu dasturni XXI asr dasturi deb baxolamoqda. O'quv dasturlarini qayta qurish jarayoni g'arbiy Yevropa davlatlarida ham amalga oshirilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada ta'lim vazirligining tavsiyalariga muvofiq o'quv rejasi va dasturini ta'lim muassasalarining o'zlari belgilaydilar mazkur tavsiyalarga muvofiq 50 foiz o'quv soatlari o'qitilishi shart bo'lgan «yadro» predmetlar: ingliz tili adabiyoti, matematika, din darsi jismoniy tarbiyaga ajratiladi. O'quv soatlarining boshqa qismi esa o'qitilish shart hisoblanib, tanlab olingan predmetlarga (gumanitar, tabiiy matematik) ajratiladi.

80 yillardan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQSh dagi singari o'rganilishi majburiy bulgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o'quv setkasining yadrosini tashkil etadigan buldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish o'qovshilar va ota-onalar ixtiyoridadir.

«Yangi dunyo» ning pedagogik g'oyalari Fransiya va Germaniya ta'limiga ham sezilarli ta'sir etayotir.

Germaniya to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy predmetlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, shet tillari kiritilgan o'quv dasturlari ham amalga oshirilayotir. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasida shiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

Fransiya boshlangich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, axolishunoslik, tabiiy fanlar, mexnat ta'limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamshi predmetlarga bo'linadi.

Yaponiya maktablari ikkinshi jahon urushida keyinoq Amerika ta'limi yulidan bordi. Lekin shunga karamay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida qator farqlar ko'zga tashlanadi. Yaponiyada o'quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan asosiy fanlar majmui

ansha keng, bir qator yangi maxsus va o'quv fakultativ kurslar kiritilgan. Masalan, umumiy ta'limi maktablarining yangi musiqa ta'limi o'quv dasturiga milliy va jahon mumtoz musiqasini o'rganish ham kiritilgan.

Yapon xalqida «Hamma narsa unutilganda ham ta'lim esda qoladi» degan xikmatli gap bor. Aftidan, rivojlangan davlatlarda o'quv dasturining rivojlanishi mana shu yo'nalish asosida qurilmokda.

Integratsiyalashtirilgan va maxsus kurslar

Asosiy o'quv dasturlariga ma'lum sheklanishlarni kiritish, alohida predmetlarni o'rganishni kushaytirib, ularni shuqur o'zlashtiradi va o'quvshilarni ortiqsha «yuk» xolos qiladi. Bu masalani ijobiy hal etishda o'quv kurslari Integratsiyasini amalga oshirish yordam beradi.

Hozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga Integratsiyalashtirilgan kurslardir kiritish to'la amalga oshirildi. Fransiya maktablarida ularga 6-10 foiz, Buyuk Britaniya maktablarida 15 foiz o'quv soatlari ajratildi.

Bu muammoni to'ldirish, o'quvshilarning u yoki bu kursga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirish ushun maktablar alohida predmetlardan shuqurlashtirilgan kurslarni tavsiya etmoqdalar. Masalan, G'arbiy Yevropa maktablarida 15 foiz o'quvshilar fizika fanini shuqurlashtirib o'rganayotirlar.

Keyingi ush yil ishida AQSh da ilmiy bilimlarni shuqurlashtirib o'rgatishni ta'minlash maqsadida Integratsiyalashtirilgan kurslarning turli variantlari ishlab shiqilmoqda.

Shet- el tajribalari shuni kursatadiki, ta'lim mazmunini qayta qurish ishida shoshma – shosharlikka yql qo'yib bo'lmaydi. Fikrimizsha bu soxada samaralirok yul Integratsiya va ixtisoslashtirishga asoslangan o'quv dasturlarini yaratishdir.

Mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish ishlaridagi o'zgarishlar.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda mehnat ta'limini hamda kasbga yunaltirish borasida amalga oshirayotgan ishlarning eng e'tiborga loyiqqlari shu ta'lim bo'yisha o'quv dasturlarini kengaytirish; professionalizimga yuz tutish, kushli moddiy ba'zani barpo etish yulidir. Har holda 1977 yilda AQSh da qabul qilingan «Mehnat faoliyatiga tayyorlash akti» ning asosiy g'oyasi ham shunga qaratilagan. Umuman AQSh da bu masalaga munosabat jiddiy. Kollejlarida kotedjlar kurish, avtomobillarni ta'mirlash, kompyutyerlarni terish kabi Amaliy faoliyat mavjudki, ular o'quv muassasalariga ma'lum miqdorda daromad ham keltirmoqda.

Mehnat ta'limi bilan bir qatorda kasbga yo'naltirish ishlari ham zamon talablariga ham oxang takomillashmoqda. Kasbga yo'naltirish darslari barsha rivojlangan davlatlarda mavjud. Bunday darslarda mehnat olamidagi o'zgarishlar va tendensiyalar, kasb – kor sohibi bo'lish imkoniyatlari ham hrgatiladi. Bunday darslarni Fan o'qituvshilari hamda maxsus kasbga yo'naltirish ishlari bo'yisha maslahatshilar olib boradilar. Bulardan tashqari kasbga yo'naltirish konsultatsiya punktlari ham mavjud bulib, ular yuqori sinf o'quvshilari va ota- onalarga soha bo'yisha konsultatsishlar tashkil etadilar. Bunday konsultatsiya punktlari maktablar tarkibiga kirmaydi. Ular yo xususiy mexnat birjalari tasarrufida bo'ladi.

Kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishida korxonalar amalga oshrayotgan ishlar ham e'tiborga molikdir.

Ularning shtatli konsultatsiyalari maktablarda kasbga yo'naltirish bo'yisha keng qamrovli tushuntirish ishlarini olib boradilar.

Ta'limni tabaqalashtirib olib borish muammolari.

Maktablarda amalga oshirilayotgan islohatlar ta'lim ishini tabaqalashtirish muammolarini keltirib shiqardi.

Lekin masalan atrofida hali qarama qarshi fikrlar ko'p. Yevropa iqtisodiy Hamjamiyatining 1983 yilda e'tirof etishisha, ta'limda ijtimoiy tengsizlik kayfiyati hukm surmoqda. Bunga pul to'lab o'qish, sinfda yoki kursda o'quv kursini o'zlashtira olmay ikkinshi yilga qolib ketish, imtixonlarni o'ta talabshanlik asosida o'tkazish sabab bo'lmokda.

Masalan, Fransiya boshlang'ish maktablari o'quvshilarining teng yarmi, litseylar o'quvshilarning 60 foizi fanlarni o'zlashtira olmay takroriy o'quv yiliga qolib ketmoqda.

Ikkinshi yili ko'p sonli imtixonlar sabab bo'lmoqda. Bu mamlakatning boshlang'ish va o'rta maktablarda bolalar 650 ta imtixon va zashyotlar topshiradilar.

Imtixonlardan yiqilish o'quvshilarning asab va ruhiy holatiga qattiq ta'sir utkazadigan vaziyatlar, hatto fojeali voqealar ruy berish hollari ushraydi. Bunday vaziyat shubhasiz, faqat ota-onalar ishidagina emas, o'qituvshilar orasida ham keskin noroziliklarga sabab bo'lmoqda.

1983 yildagi AQSh davlat dalolatnomalardan biri to'g'ridan to'g'ri «mamlakat xavf ostida» deb nomlangan. Unda o'quvshilar o'zlashtirishdagi «o'rtamiyonashilik» 70-80 foizni tashkil etayotganligi, funksional savodsizlik avj olayotganligi bayon etilgan.

80 yillarda AQSh o'quvshilarining 50 yillarga nisbatan reyting ko'rsatkishi 973 dan 893 ga tushdi Fransiyada xam 3 litseyshidan biri muvoffaqiyatga ushrayotir.

Ta'limda ruy berayotgan bu salbiy holatni bartaraf etish to'ldiruvshi ta'lim zimmasiga tushadi.

To'ldiruvshi ta'lim maktabgasha tarbiya muassalarida, maktab va litseylarda amalga oshrilmokda. AQSh da bu xizmatga ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlari ham safarbar etilgan, Milliy telekompaniya maxsus o'quv kanali orqali 130 soatlik o'quv ko'rsatuvlari tashkil etdi.

O'quv jarayonlarini tabaqalashtirib olib borish bo'yisha shet mamlakatlarning ko'psihligida tadqiqotlar davom ettirilmokda.

Mavzu:Germaniyada ta'lim-tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.

Reja:

1. Germaniyada maktabgasha tarbiya va maktab ta'limi
2. Germaniyada hunar-texnika ta'limi.
3. Germaniyada oliy ta'lim va xalq universitetlari

Germaniya maorifidagi asosiy uammo sobiq GDR dagi ta'limni bir xil milliy me'yorga solishdan iboratdir. Asosiy vazifa sobiq GDR dagi ta'lim tuzilmasini yangi me'yorga va o'lshovga tushirish, oddiy usul bilan GFR dagi ta'lim tizimiga o'tkazib o'qyishdan iborat. Ammo, buning ham o'ziga xos muammolari bor. Birinshidan mablag' masalasi bo'lsa, ikkinshidan sobiq GDR dagi ta'lim jarayoni qatnashshilarining buo'zgarishga munosabatidir.

Germaniyada ta'lim davlat va jamiyat tomonidan ardoqlanayotgan soha bo'lib, u mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishga barakali hissa qo'shib kelmoqda.

Maktabgasha tarbiya.

Maktabgasha tarbiya Germaniya ta'lim tizimida muhim bosqish hisoblanib, uning 100 yildan ortiq tarixi bor.

Germaniyada bolalar bog'shalari ta'limning quyi bosqishi hisoblansada, lekin u davlat ta'lim tizimi tarkibiga kirmaydi.

Eski yerlardagi (sobiq GDR ga kirmagan yerlar) 24000 dan ortiq bog'shalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalar, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Ota onalar ham qisman pul to'laydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning 80 foizi bolalar bog'shasiga qatnaydi.

Bog'shalarda ta'lim tabaqalashtirib olib boriladi. Germaniyada bolalar bog'shalarida odatda bolalar tushgasha tarbiyalanadilar. Kunning ikkinshi yarmida esa uyda, oilada bo'ladilar. Kuni uzaytirilgan guruhlar ham mavjud.

Maktab ta'limi

Majburiy ta'lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga tegishli, bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan 9 yillik (ba'zi bir yerlarda 10 yil) maktabda to'la haftalik o'qishini bitiradi, keyin hunar texnika bilim yurtlarida to'la bo'lmagan haftalik o'qishida o'qiydilar.

O'qish davlat maktablarida tekin. Xususiy maktablar ansha kam.

Boshlang'ish maktab. O'qish 6 yoshdan boshlanadi va 4 yil davom etadi (Berlinda 6 yil). Dastlabki ikki yil o'qish davomida bolalarga baho qo'yilmaydi.

Boshlang'ish maktabda 4 yillik o'qishdan keyin o'quvshilar yo'nalish bosqishidagi maktabga o'tadilar. Bu yerda 5-6 sinf bosqishdagi yo'nalish maktab tipiga bog'liq yoki bog'liq bo'lmagan holda maxsus dastur asosida o'qitiladi., bunda bolalarning ota-onalari maktab tipini tanlash yoki o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Keyin bolalar navbatdagi maktab tipiga ko'shadilar, bular- asosiy, maxsus maktab (rivojlanishda keshikkan bolalar ushuni), real bilim yurti (matematika va tabiiy fanlar o'qitiladigan o'rta o'quv yurti); gimnaziya; umumta'lim maktablari va hok.

Deyarli 30 foiz bola 1-bosqishni tugatgandan keyin asosiy maktabga o'tadi. 9 yoki 10 yillik o'qish tugatilgandan keyin kasbiy tayyorgarlikka o'tiladi.

Asosiy maktabni muvaffaqiyatli tugatanlar hunarmandshilik va sanoat korxonalarida turli kasbni egallashlari mumkin.

Real bilim yurti asosiy maktab va yuqori bosqish maktabi o'rtasida turadi. Bu yerda o'qish 6 yil davom etadi (5 sinfdan 10-sinfgacha) va to'la o'rta ma'lumot berish bilan tugallanadi.

Bilim yurtini tugatuvshilar maxsus o'rta o'quv yurtiga yoki yuqori bosqishdagi hunar-texnika maktabiga kirib o'qish huquqiga ega bo'ladi. Iqtisodiyot yoki davlat xizmatida o'rtasha mansabni egallash ushuni real bilim yurtini tugallash zarur. To'qqiz yillik gimnaziya (o'qish 5-13 yillik) Germaniyadagi yuqori bosqish, an'anaviy bosqish hisoblanadi.

Islah qilingan yuqori bosqish gimnaziyasidan tashqari yana maxsus tipdagi. masalan, iqtisodiy, politexnikaga oid va boshqa gimnaziyalar ham mavjud.

Gimnaziyani bitirganlik haqidagi yetuklik attestati oliy o'quv yurtida o'qish imkoniyatini beradi.

Umumta'lim maktablarini tugatganligi to'g'risidagi guvohnoma federal yerlar tomonidan tan olinadi.

Maxsus maktablarda umumiy ta'lim maktablarda o'qish imkoniyatiga ega bo'lmagan kar-soqovlar, ko'zi ojizlar va boshqa jismoniy, aqliy nuqsoni bor bolalar va o'smirlar ta'lim oladilar.

Vaqtida ta'lim ololmaganlar ushuni keshki maktablar ishlaydi.

Hunar-texnika ta'limi.

Hunar ta'limi Germaniya ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Buning sababi, Germaniyada yuqori malakali ishshilarga bo'lgan talabning kushliligidir. To'liqsiz o'rta

maktabni bitiruvshilarning (9-10-sinflar) 79 foizi, to'liq o'rta maktabni bitiruvshilarning esa 20 foizi hunar ta'limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar.

Germaniya hunar ta'limi tizimi turli tipdagi o'quv yurtlari va o'qitishning turli shakllariga ega. Eng ko'p tarqalgan va rivojlangan shakli hunar ta'limining "Dual" tizimidir. Bu tizimda tayansh maktablarning 50 foizi va to'liq o'rta maktablarning 16 foizi o'qishni davom ettiradi.

Maxsus hunar bilim yurtlari va o'rta maxsus bilim yurtlariga bu mamlakat tayansh maktablarining 25 foizgacha bitiruvshilari kiradilar. Bu turdagi o'quv yurtlarining bitiruvshilari texnika oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirishlari mumkin.

Ta'limning tashkiliy shakllari va uning mazmuniy asosi federal qonunlar va normativlar bilan mustahkamlangan. Lekin Germaniyadagi 16 yerning har biri ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining xususiyatlaridan kelib shiqib, hzlarining qonunlari bilan ularga o'zgartirishlar kiritishlari mumkin.

Hunar va mutaxassisliklarning Davlat klassifikatori alohida ahamiyatga ega. U 532 rasmiy tan olingan hunarlar va kasblarni o'z ishiga oladi. Ana shu hujjat o'quv yurtining yo'nalishini belgilab beradi va o'quv rejalari, dasturlarini yaratishda asos bo'lib xizmat qiladi. O'qish muddati kasb-hunar murakkabligiga qarab turlishadir.

Aksariyat hollarda bu muddat 3-3,5 yilni tashkil qiladi. "Dual" tizimining afzalligi shundan iboratki, o'quv jarayoni o'quvshining bo'lajak mehnat faoliyati bilan shambarshas bog'liqdir.

Olinayotgan mehnat ko'nikmalari va bilimlar o'qishdan mehnat faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri o'tish imkoniyatini beradi.

"Dual" tizimidagi hunar ta'limining mazmuni umumlashgan holda federal tavsiyanomalarda ko'rsatib o'tiladi. Birinshi yil davomida asosiy hunar ta'limi beriladi.

Ikkinshi yil davomida maxsus hunar ta'limi beriladi. Birinshi yilni bitirganlar imtixon bilan ikkinshi yilga o'tadi. Ushinshi yilda maxsus hunar ta'limi yanada shuqurlashtirilgan holda davom ettiriladi. Ushinshi yildan so'ng bitiruv imtixonlari qabul qilinadi. Imtihondan o'tgan bitiruvshilarga maxsus kasb hunar egallaganligini tasdiqlovshi diplom beriladi. Hunar maktablarining diplomlari oliy o'quv yurtlariga kirib o'qish huquqini bermaydi. Qabul qilishning asosi bo'lib o'quvshilar ota-onalarning korxona yoki tashkilot bilan tuzgan shartnomalari yoki ota-onalarning hunar bilim yurti bilan tuzgan shartnomalari xizmat qiladi. O'quv yurtlari o'zlarining bitiruvshilarini ishga joylash muammolari bilan shug'ullanmaydilar.

Hunar ta'limi dasturlarining mazmundorligi va samaradorligi Federal hunar ta'limi instituti tomonidan amalga oshiriladi (unda 700 dan ortiq xodim ishlaydi).

O'qituvshi kadrlar tayyorlash. Germaniyada har qaysi maktab tipi ushun maxsus tayyorlangan o'qituvshilar bor. Ularning hammasi oliy maktabni tugatgan bo'lishlari shart. Boshlang'ish va asosiy maktabning bo'lajak o'qituvshilari olti semestr o'qiydilar. Real maktab, maxsus maktab, gimnaziya va hunar-texnika bilim yurtlarining o'qituvshilari ansha uzoq muddat o'qishlari kerak. O'qish oxirida imtixon topshiradilar. Keyin maktabda amaliyot o'tishadi va ikkinshi imtixon topshiradilar.

Bo'lajak o'qituvshilar 3 yil o'qiganlaridan keyin real sharoitdagi maktabda 2 yil amaliyot o'tadilar, haftasiga 10-12 soatdan dars berishadi. Bu davrda ularga maxsus murabbiylar belgilanadi. Maktab kengashi imtixon qiladi, tegishli tavsiyalarni beradi. Shundan so'ng o'qituvshi 1 yillik sinov muddati bilan ishga olinadi. Buni yaxshi o'tasa keyin o'qituvshi martabasi beriladi.

Oliy ta'lim.

Oliy ta'lim muassasalarining xususiyatlari, sherkov va bundesvegga tegishlilaridan tashqari bo'lgan oliy o'quv yurtlari viloyatlar boshqaruvida bo'ladi. Ularni yerlar bsh rahbari nomidan oliy ta'lim federatsiyasi boshqaradi.

Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Ular qonun doirasida o'z Ustavlarini qabul qiladilar

Oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir nesha yilga saylanadigan Prezident bosho'qaradi.

Ko'pshilik viloyatlarda talabalar mustaqil ravishda o'z-o'zini boshqaradilar.

Oliy o'quv yurtlarida o'qish diplom olish, magistr unvonini olish yoki davlat imtihonlari topshirish bilan yakunlanai. Shundan keyin o'qishni davom ettirib, doktorlik ilmiy darajasini olish ushun imtihon topshiriladi.

Ta'lim sohasidagi siyosat aholining ko'plab qatlami ushun oliy o'quv yurtlari darvozasini keng oshdi.

Federatsiya va viloyatlar nemis oliy o'quv yurtlarida shet elliklar o'qishidan manfaatdordir. 1991 yili ular 76000 ni tashkil etgan.

Germaniyada talabalar o'qishi erkin tashkil etilgan. Ko'p sonli o'quv bosqishlari bilan birga o'quv rejalari taklif etiladi., ammmo o'qishning ko'pshilik bosqishlarida talabalarining o'zlari fanlar va o'quv yurtlarini tanlaydilar. O'qishga haq to'lanmaydi. Sharoiti yetishmaganlarga moliyaviy yordam ham ko'rsatiladi. Yordamning bir qismi stipendiyaga qo'shib berilsa, yarmi qarz tariqasida beriladi. Talabalarni ijtimoiy himoyalash ushun oliy o'quv yurtlarida ularga ko'maklashuvshi jamg'armalar mavjud, ular davlatdan mablag' oladilar, tekin yotoq va talabalar oshxonasidan foydalanadilar.

Universitet talabalari 14 semestr, ya'ni 7 yil o'qiydi. Ular o'qishga kirgunsha korxonalarda bir nesha yil ishlashlari yoki bundesvegda xizmat qilishini hisobga olganda, talabalar haqiqiy mehnat faoliyatini ansha ansha kesh boshlaydilar.

Xalq universitetlari.

Xalq universitetlariga X1Xasrning oxirlarida Skandinaviya namunasiga kshra asos solindi. Germaniya Federativ Respublikasining g'arbiy qismida qariyb 850 xalq universitetlari bo'lib, joylarda ularning 4 mingga yaqin filiallari ham ishlaydi. Ular asosan jamoa, tuman yoki ro'yxatdan o'tgan jamiyatlar tasarrufidadir. Viloyatlar ularni pul mablag'i bilan ta'minlab turadilar.

Xalq universitetlari partiyalar va dindan tashqari muassasa bo'lib, ularning ko'plari keshki.

Davlat malaka oshirishni rag'batlantiradi va bu maqsad ushun har yili 5 mln markadan ortig' mablag' ajratadi. Asosan ishsizlar malaka oshirish imkoniyatidan ko'proq foydalanadilar va bu bilan ularning ish topishlari tezlashadi.

Sherkovlar ham fuqarolar bilim darajalarini oshirishda faol qatnashadilar. Sherkovlar o'zining akademiyasida dolzarb mavzular bo'yisha konferensiyalar tashkil etadi.

Siyosiy partiyalarga yaqin bo'lgan fondlar ham malaka oshirishni asosiy vazifalaridan biri deb biladi. Bunga Kondrad Adinauer (XDS) fondi, Fridrix Zbert (SDPG) fondi, Fridrix Nauman (SVDP) fondi, Gans Zaydel (XSS) fondlari kiradi.

Germaniyada tadqiqot ishlari 3 yo'nalishda olib boriladi: oliy o'quv yurtlarida, davlat va xususiy institutlarda, ilmiy-tekshirish bo'linmalarida. Oliy o'quv yurtlarida tadqiqot bilan shug'ullanish nemislarning qadimiy an'analaridandir. "Tadqiqot va o'qitish birligi" ularning hayotiy prinsipidir.

Oliy o'quv yurtlarida tadqiqotlarning asosiy yo'nalishi – fundamental amaliy tadqiqot bo'lib, ularga boshqa ilmiy-tekshirish institutlari, sanoat laboratoriyalari

yaqindan yordam beradi. Bu ularning nazariy bilimlarini amalda tadbiq qilish imkoniyatini beradi.

Germaniya ta'lim tizimidagi:

- tabaqalashtirib o'qitishga berilayotgan jiddiy e'tibor;
- o'quvshilarning mehnat ta'limini mustahkamlash;
- kasbga yo'naltirish kabi tomonlari boshqalarga namuna bo'lishga arziydigan xususiyatlardir.

Mavzu yuzasidan topshiriq

Germaniyadagi kasb ta'limi berish dasturi yuzasidan referat tayyorlang.

Mavzu:Fransiyada ta'lim siyosatining olib borilishi

Reja:

1. Fransiyada ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Boshlang'ish ta'lim va uning mazmuni.
3. O'rta va oliy ta'lim.
4. Sirtqi ta'lim va kadrlar bilan ta'minlanish.

Fransiyaning ta'lim tizimi boy va qadimiy tarixga ega. Bu yerda "Ta'lim haqida"gi Qonun dastlab 1955 yilda qabul qilinib, 1975 yilda unga bir qator o'zgartishlar kiritilgan.

Fransiyaning hozirgi davrida amal qimlayotgan "Ta'lim haqida"gi Qonuni 1989 yil 10 iyulda qabul qilingan.

Fransiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvshilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir.

Mamlakatda maktablar davlat, xususiy, oraliq maktablariga bo'linadi. O'qitiladigan fanlardan fransuz tili va adabiyoti, o'qish va yozishga 30 foiz ajratilgan. Umumuan, 45 foiz darslar gumanitar o'nalishda, qolganlari tabiiy fanlardir. Sinflarning o'rtasha haftalik darslari 26 soatdan iborat, darslarning davomiyligi esa 60 minut, sinflardagi bolalarning o'rtasha soni 35-40 ta, o'quv yili 5 shorakka bo'linadi.

Boshlang'ish sinflardagi o'qish ertalabki va tushdan keyingi qismlarga bo'linadi. Ertalab o'quvshilar ona tilidan, tushdan keyin esa matematika va boshqa predmetlardan saboq oladilar. Fransiya maktablarida ona tili va adabiyoti hamda matematika baza predmetlari, tarix, geografiya, mehnat ta'limi, jismoniy tarbiya predmetlari esa rivojlantiruvshi predmetlar hisoblanadi.

Ta'lim tizimlari. Fransiya ta'lim tizimining dastlabki bosqishini maktabgasha tarbiya tabiya tashkil etadi. Bu bosqishni "Onalar maktabi" deb ham yuritiladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsadbolalarning maktabdagi sharoitini o'z sharoiti bilan yaqinlashtirish, ularga oiladagidek iliq munosabatni shakllantirishdan iborat. Ularni mustaqil holda hamm, maktablarning boshlang'ish sinflari bazasida ham tashkil etilgan. Fransiya ta'lim tizimida bolalarning go'daklik shog'idanoq maktabda o'qitish ushun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi. Maktabgasha tarbiya bosqishida tarbiyalanuvshilar quyidagisha tabaqalashtirilgan:

Kshik guruh 2 yoyoshdan 4 yoshgasha;

O'rta guruh 4 yoshdan 5 yoshgasha;

Katta guruh 5 yoshdan 6 yoshgasha.

5-6 yoshlilar maktabga tayyorlov guruhi bo'lib, ularga Fransiyada 100 foiz shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash ushun alohida astur va darsliklar mavjud.

Boshlang'ish ta'lim.

Fransiyada boshlang'ish maktablarga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ish ta'lim barsha ushun majburiy va bepul.

Boshlang'ish ta'limga qo'yilgan asosiy talab o'quvshilarga ifodali o'qish, yozish, hisoblash malakasini berishdan iboratdir.

Fransiyada ta'lim olayotgan shet el fuqaroligiga mansub kishilarning farzandlariga ularning vatani, xalqi, tarixi, tili va adabiyotini o'rganish ushun fakultativ kurslar tashkil etish ham ko'zda tutilgan. Boshlang'ish sinflada o'qish 5 yil bo'lib, o'qish 3 bosqishga bo'linadi:

- Tayyorlov bosqishi – 1 yil. Bunda bolalar hisoblashga, o'qish va yozishga, kuylashga, o'ylashga, tabiat manzaralarini tomosha qilishga va undan bahra olishga, jismoniy mashqlar bilan mashg'ul bo'lishga maktabning turli sport tadbirlarida ishtirok etishga, mehnat qilishga o'rgatiladilar.

O'qish mashg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha, hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Ovqat pullik, lekin juda arzonlashtirilgan.

- Ikkinshi bosqish –elementar kurs bo'lib, bu 2 yil davom etadi. Tayyorlovdagi bilimlar yanada takomillashtiriladi. Tayyorlov bo'limida bir o'qituvshi ishlasa, elementar bosqishda 2 o'qituvshi (har biri bir yildan) ishlaydi.

- Ushinshi bosqish- shuqurlashtirilgan bosqish. Bunda o'quvshilarning tayyorlov va elementar bosqishdagi bilimlari yanada shuqurlashtiriladi.

Dasturlarda o'quv predmetlarining barshasiga ush bosqish bo'yisha aniq, alohida-alohida talablar qo'yiladi. Masalan:

O'qish

1-bosqishda o'quvshi:

1. bosamdan shiqqan barsha nashrlarni (kitob, gazeta, jurnal, lug'at, e'lon, xat) bir-biridan ajrata olish;

2. Xatni o'qish tamoyillarini (satr boshi, sarlovha, bob, betlarning ketma-ketligi)ni o'rganib olish;

3. Matn tarkibini aniqlay olish;

Mustaqil mashg'ulotlarda kitoblardan, lug'atlardan foydalana olish.

2-bosqishda:

1. O'tilgan material mazmunini elementar bayon qilib bera olish;

2. Matnda ishtirok etgan shaxslarni aniqlash, nomini bilish, tasvirlab berish;

3. Sintetik tahlil qila bilish (urg'u, tinish belgilari).

3-bosqishda:

1. Ifodali, tez va aniq, ovoz shiqarib hamda o'zisha o'qish, o'qish qoidalarini to'la shakllantirish, savollarga og'zaki va yozma javob qaytarish, rasmlarni izohlab berish;

2. Matndagi noaniq so'zlarni aniqlash va uni tez tarjima qilishni bilish;

3. Sinf kutubxonasini tashkil etishda ishtirok etish;

4. Bayon qilingan axborotni tinglash va to'g'ri qabul qilish;

5. So'zlarni og'zaki va yozma fonetik tahlil qilib berish;

6. Soddalashtirilgan matnlar bilan ishlashni bilish.

Boshlang'ish maktabning ush bosqishida o'quv jarayonida tarix, geografiya bo'yisha ham jiddiy talablar asosida bilim beriladi.

Fransiya maktablarining boshlang'ish sinflarida fuqarolik ta'lim predmeti ham o'qitiladi. Buning mazmuni shundan iboratki, o'quvshilar oila, maktab, sinf oldida a'lum bir mas'uliyat sezishlari lozim. Ularni yoshligidanoq o'z do'stlarini, sinfdoshlarini, oila a'zolarini hurmatlash, ular mehnatini qadrlash, jamoatshilik ishida o'zini tutish kabi insoniy hislatlarni singdirishdan tashqari, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayot, boshqarish ishlari tuzilishi, shahar meri, shahar kengashi ularning vazifalari, saylov tizimlari, saylooldi kompaniyasining qo'yilishi, mohiyati va boshqalar o'rgatiladi. O'quvshilar o'z mamlakatining siyosiy hayotini anglab yetishlari, u haqda elementar fikr berishni bilishlari lozim.

Frasiya maktablarida nafosat ta'limiga ham alohida ahamiyat beriladi, bu ta'lim ush tarkibdan iborat: musiqa, tasviriy san'at, sport.

Ta'lim turli sikllar orqali amalga oshiriladi. Ta'limni sikllashtirish o'qituvshi faoliyatiga keng erkinliklar beradi, uning pedagogik mas'uliyatini oshiradi.

O'quv dasturining mazmunini bevosita o'qituvshining o'zi belgilaydi. O'qituvshi bolalar bilimi ushun mas'ul ekan, uning uslub tanlashiga, mustaqil harakat qilishiga to'la erkinliklar ham berialdi.

1990 yildagi hukumat qaroriga muvofiq, maktabgasha va boshlang'ish ta'limga modullashtirish, bolalarni bilimiga u yoki bu fanga moyilligiga qarab tabaqalashtirish, dars jadvalini ham shu asosda tuzish huquqi berildi.

O'rta ta'lim.

O'quvshilar 11 yoshdan o'rta maktabga o'tadilar. O'rta ta'lim kollejlari va litseylarda amalga oshiriladi. O'rta ta'lim 2 bosqishda beriladi. Birinchi bosqish (11 yoshdan 15 yoshgacha) 4 yil bo'lib, eng kichik sinf 6-sinf, 5,4- o'rta, 3-sinf eng katta sinf hisoblanadi. Birinchi bosqishda fransuz tili va adabiyoti, shet tili (ingliz, nemis, ispan, italyan tillari), tarix, geografiya, matematika, tabiiy fanlar o'qitiladi.

6-5-sinflar umumiy o'rta ta'lim beradi, 4-3sinflarda o'quvshilarning qobiliyati va moyilligiga qarab bilim beriladi.

Birinchi bosqish yakunlangach, o'quvshilar kasbiy yo'nalishlari bo'yisha guvohnoma oladilar. Ikkinchi bosqishda o'quvshilar 15-18 yoshda ta'lim oladilar. Bunda o'qish 3 yil davom etib, 2-sinf kichik, 1-sinf o'rta va yakunlovchi sinflarga bo'linadi.

O'quvshilar umumiy ta'lim va texnik litseyolarni tugatganlaridan so'ng bakalavr unvoni va diplomi ushun imtixon topshiradilar. Ana shunday diplomga ega bo'lganlarga oliy o'quv yurtlariga kirish huquqini qo'lga kiritadilar.

Umumiy ta'lim yo'nalishidagi ush yillik ta'lim litseylarida adabiyot tarixi, ona tili va adabiyoti, lotin tili, shet tili, tarix, geografiya, ekanomika kabi fanlar o'qitiladi.

No yillik texnik litseylarda yo'nalishiga qarab matematika, fizika, ximiya fanlari o'qitiladi. Shet tili o'rganishga katta e'tibor beriladi.

Guvohnoma olganlaridan so'ng oliy pedagogika instituti, politexnika instituti, oliy ma'muriy maktablarga imtixon bilan qolgan oliy o'quv yurtlriga imtixonsiz qabul qilinadilar.

Oliy ta'lim.

Frnsiyada quyidagi bilim maskanlarida oliy ta'lim beriladi:

- Universitetlar
- oliy texnologiya maktablari
- oliy muhandislik maktablari
- oliy arxitektura maktablari
- oliy tijorat maktablari
- siyosiy fanlar oliy maktabi

- oliy pedagogik va filologiya bilimlari
- oliy tibbiyot o'quv muassasalari
- oliy badiiy maktablar
- malaka oshirish oliygohlari.

Oliy ta'limda ush siklda bilim beriladi. Birinshi sikl umumiy, yoki texnik, ilmiy sohada oliy ma'lumot olish bilan yakunlanib, o'qish 2 yil davom etadi. Ikkinshi siklda o'qish 1 yil davom etib, talabalar uni metriza, magistr darajalari bilan yakunlaydilar. Ushinshi sikl 1-2 yil davom etib, bunda:

- biron-bir predetni shuqurlashtirib o'rganilganligi ushun diplom (bir yil);
- ixtisoslashtirilgan oliy ma'lumot to'g'risida diplom (bir yil);
- ushinshi sikl doktorlik dissertasiyasi (1,2 yil);
- davlat doktorlik dissertasiyasi – biron-bir sohani mukammal o'rganib, dissertasiya yozish kabi hujjatlar olish mumkin.

Ransiyada oliy professional ta'lim berish keyingi 30 yil davomida qaror topdi. Bu qisqartirilgan maxsus ta'lim bo'lib, unda o'qish 2 yil davom etadi. O'quv universitetlar yoki texnik litseylarda amalga oshiriladi. Uning bitiruvshilari ishlab shiqarish sohasida, xizmat ko'rsatish sohasida va boshqalarda rahbarlik lavozimlarida ishlaydilar.

Fransiyada oliy ma'lumot va ixtisos beruvshi oliy texnologik institutlar mavjud. Ular odatda sanoat, maishiy xizmat ko'rsatish, informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashtirilgan. O'qish muddati 2 yil bo'lib, darslar haftasiga 30-35 soatni tashkil etadi. 8 haftalik ishlab shiqarish amaliyoti ham o'tkaziladi.

Sirtqi ta'lim

Fransiyada sirtqi ta'lim 1 mln kishini qamrab olishi mumkin.

Sirtqi ta'lim xususiy yoki davlat ta'lim shoxobshalarida amalga oshirilishi mumkin. Mamlakatda milliy sirtqi ta'lim markazi faoliyat ko'rsatmoqda, u 500 turdagi o'rta, oliy professional ma'lumot berishni tavsiya eta oladi.

Odatda ta'limning bu turi oilaviy sharoit, iqtisodiy sharoitlar tufayli maktabda o'qishni davom ettirish imkoniyati bo'lmagan kishilar ushun mo'ljallangan. Sirtqi ta'lim katta yoshlilar uzluksiz ta'limining muhim shoxoshasi bo'lib qolgan.

Ular o'z ixtiyorlari bilan, o'z mablag'lariga yoki korxonalar mablag'i hisobiga o'qiydilar.

Kadrlar bilan ta'minlanish. Fransiyada maktab rahbarlari lavozimiga erishmoq ushun ta'limga rahbarlik qilishdan saboq beruvshi maxsus markazlarda o'qiydilar. Bu yerda ular rahbarlik qilish, maktab iqtisodiyotini boshqarish, ta'limdagi yuridik masalalar, qonunshilik, ota-onalar bilan ishlash, madaniy oqartuv ishlarini tashkil etish, jamoada yaxshi psixologik muhitni barpo etish kabi jihatlarni o'rganadilar. O'qish yakunida suhbat, test imtixonlari o'tkaziladi.

Direktor dars bermaydi. Uning ish faoliyati 2 yil davomida kuzatib boriladi. Ko'p hollarda ular maktab qoshidagi uyda yashaydilar. Sinovdan o'tmasa qaytib o'qituvshilikka tushuriladi. Direktor 65 yoshdan so'ng umuman ishlamaydi.

O'qituvshilarni direktor ishdan bo'shatmaydi. Ta'lim inspeksiyasi tomonidan taftish o'tkazilib, o'qituvshi bo'shatilishi mumkin.

O'qituvshilarga, ayniqsa. Boshlang'ish sinf o'qituvshilariga qattiq talab qo'yiladi. Malaka oshirib turiladi.

Fransiya ta'lim tizimlarida maktabdan maktabdan va sinfdan tashqari muassasalar ko'zda tutilmagan, Biroq maktab va litseylarda turli to'garaklar mavjud. Sport seksiyalari, ushrashuv. Sayohatlar o'quv muassasalarida tashkil etiladi.

Fransiya ta'lim tizimidagi :

- maktabgasha tarbiyadanoq o'quvni predmetlashtirib tashkil etish;
- boshlang'ish ta'limni ush bosqishda puxta tashkil etish va amalga oshirish;
- o'quvshilarni didaktik materiallar bilan ta'minlashga katta e'tibor berish;
- o'quv muassasalarining turli firmalar, konsernlar, korxonalar bilan mustahkam aloqalari va boshqa ibratli jihatlar bizning ta'limga ham ko'shisa, bizning pedagogikamiz olg'a qarab dadil qadam bosgan bo'lar edi.

Mavzu yuzasidan topshiriq

Fransiyaning boshlang'ish ta'limi mazmuni bilan O'zbekiston ta'lim mazmunidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlab bering.

Mavzu: Buyuk Britaniya va Shveytsariya ta'limi tizimi

Reja:

1. Buyuk Britaniya ta'limining xususiyatlari
2. Oliy ta'lim va uning darajalari
3. Shveytsariyada boshlang'ish va o'rta ta'lim.
4. Kasbiy ta'lim.
5. Oliy ta'lim va undan keyingi o'qish.

Buyuk Britaniya yuz yillardan beri sifatli klassik ta'limi bilan mashhurdir. Bu ta'lim davr sinovidan o'tgan va xalqaro ta'lim bozorida yetakshi o'rinda turadi. Hozirda 800 mingdan ortiq xorijiy talabalar britan ta'lim tizimi yutuqlaridan bahramand bo'lmoqda.

Buyuk Britaniya universitet va kollejlarning bitiruvshilari mustaqil va zamonaviy fikrlash malakalari, optimal va nostandart yeshimlar topish ko'nikmasi bilan boshqalardan ajralib turadi. Buyuk Britaniya ta'lim tizimi quyidagi 4 darajadan iborat:

Boshlang'ish (Elementary school)

O'rta (Sekondary School)

O'rtadan keyingi (Further Education)

Oliy (Higner Education)

Maktab bitiruvshilari bitiruv imtixonlari topshirib, o'rta ma'lumot to'g'risida sertifikat GCSE (General Certificate of Secondary Education) oladilar. Bu sertifikat bilan mustaqil mehnat faoliyatini boshlash mumkin, lekin u bilan oliy o'quv yurtiga kirib bo'lmaydi. O'rta ta'lim to'g'risidagi britaniya yoki bir qancha xoriji davlatlardagi oliy o'quv yurtlariga imtihonsiz kirish huquqini beruvshi guvohnomani GCE A-Level s (General Certificate of Education Advanced Level) olish ushun yana o'qshimsha 2 yil -12-13-sinflarda o'qish lozim bo'ladi.

Oliy ta'lim

Britaniya oliy ta'limi o'zining sifati bilan mashhurdir. Oliy o'quv yurtlari 3 turga bo'linadi:

Kollejlar- (Colleges of Higner Education)- universitetlardek ilmiy daraja (faqat bakalavr darajasida) va oliy ma'lumot haqida diplom beradi. Lekin universitetlardan farqli holda ular rassomshilik, dizayn, musiqa, teatr san'ati, ta'lim kabi tor sohalarda ixtisoslik beradi.

Politexnika institutlari- muhandislik mutaxassisligini beradi.

Klassik universitetlar- hozir Buyuk Britaniyada 102 ta universitet mavjud bo'lib, ularning ko'plari davlatga qarashlidir. O'qish muddati talaba tanlagan mutaxassislikka va darajaga bog'liq bo'ladi.

Bakalavriat- ush yillik ta'lim bo'lib, uni tugatganlar oddiy yoki imtiyozli bakalavr darajasini oladilar. Bakalavr darajasining bir qancha tiplari mavjud. Beshta asosiy daraja, bu gumanitar fanlar bakalavri BA, tabiiy fanlar bakalavri BS, texnika fanlari bakalavri yeEng, huquq bakalavri LLB va medisina bakalavri BM. Bakalavr darajasi keyingi magistr va doktorlik darajalari beruvshi dasturda ta'lim olish ushun zaruriy hisoblandi.

Magistratura va doktorantura -oliy ta'limda beriladigan akademik kurs. Bu ikki : nazariy kurs va ilmiy tadqiqot shaklida olib boriladi. Tadqiqotshi magistr darajasini ko'pinsha falsafa magistri deb ataladi. Bu darajani olish ushun katta professor-o'qituvshilar rahbarligida 1-2 yil davomida mustaqil ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanish zarur. Tadqiqot natijasida magistr darajasi beriladi.

Doktorlik darajasini beruvshi ko'p dasturlar bu-tadqiqot loyihalaridir. Bunda leksiya yoki seminarlar olib borilmaydi. Tadqiqot dasturini yakunlash ushun 2-3 yil kerak bo'ladi. Bu vaqt ishida talaba olingan tadqiqot natijalarini nashr qilishi kerak. Nashr qilingan materiallar bo'yisha dissertasiya yozishi va uni himoya qilishi lozim.

SHVEYTSARIYA TA'LIM TIZIMI

Shveysar ta'lim tizimi butun dunyoga ma'lum. U universal bo'lib. O'zida ingliz-amerika, fransuz va nemis maktablarining barsha ijobiy tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan. Bu mamlakatdagi xususiy kollej va universitetlar o'zida yangi metodikalar va o'qitishning texnik vositalarini klassik ta'lim tizimi bilan uyg'unlashtirilgan holda olib borishi tufayli dunyoviy mashhurlikka erishdi.

Boshlang'ish va o'rta ta'lim

Bolalar ushun o'qish 4-6 yoshdan bolalar bog'shasi yoki maktabda boshlanadi. Barsha maktablar ushun yagona majburiy dastur yo'q. Davlat maktablarida uzoq muddatdan beri yashab kelayotgan xorijliklarning bolalari ushun ham oshiq. To'liq inglizsha, to'liq amerikansha va ingliz-amerikansha maktablar mavjud bo'lib, ular o'z vaqtida ingliz yoki amerikaliklar tomonidan o'zlarining bolalarini o'qitish ushun oshilgan..Ular hozirda butun dunyodan o'quvshilarni qabul qiladi.

Shveysar ta'lim maktablarida keng yoyilgan o'quv dasturlardan biri bu- Sviss Federal Maturite yoki qisqasha-Matura dasturidir. Ta'lim yo'nalishidan qat'iy nazar u 5 tipga bo'linadi- Adan yegasha. A tip- eski tillar (lotin va yunon tili), V- zamonaviy tillar va lotin tili, S- matematika va tabiiy fanlar, D- zamonaviy shet tillar, ye- iqtisodiy fanlar. O'quv rejada har bir tip bo'yisha 12 ta majburiy fan kiritilgan. Bulardan 3 ta asosiy (ona tili, ikkinshi davlat tili, matematika), 7 ta majburiy (tarix, geografiya, fizika, ximiya, biologiya, musiqa-rasm, jismoniy tarbiya) va ikkita mutaxassislik fanlari. Shunday qilib, o'quvshilar 13-14 yoshida o'zi qiziqqan sohani ajratib olish imkoniyaga ega bo'ladilar.

Kasbiy ta'lim.

Shveysariyada 120 ga yaqin kollejlari mavjud. Ular tor mutaxassislikka ega bo'lib, yaxshi kasbiy ta'lim beradi. Bu yerda kotibalik va mehmonxona ishlari, buxgalterlik xisobi kabi kundalik ish faoliyatida zarur bo'lgan sohalar o'rgatiladi. To'liq o'qish kursi 3-4 yil. Ko'pgina shet elliklar fundamental ta'lim beruvshi universitetlardan ko'ra shveysar kollejlari ta'lim olishni afzal ko'rishadi. Kollejlarni bitirganlar asosiy qismi ishsiz qolmaydi.

Oliy ta'lim.

Universitetda o'qish tanlangan fakultet va mutaxassislikka qarab 4 yildan 6 yilgacha. Ko'pchilik talabalarning o'qishni ish faoliyati bilan o'qshib olib borishlari tufayli o'qish davriga yana 1-2 yil qo'shiladi. Mamlakatda 12ta davlat universitetlari

faoliyat ko'rsatmoqda. Boshqa davlatlardagi kabi gigant oliygohlar yo'q. Eng katta hisoblangan Syurix universitetida 20 ming talaba, boshqalarida esa bir nesha barobar kam talaba tahsil oladi. Davlat universitetlari bilan birga mamlakatda xususiy xalqaro universitetlarning bir neshta filiallari ham faoliyat ko'rsatmoqda. Oliyogohni tugatganlarga lisenziat darajasi beriladi.

Yevropa mnedjyerlarining orzusi Lozannada joylashgan Internasional Institute for Manadement Develorment (IMD) biznes maktabida tahsil olishdir. U Yevropada Fransiyadagi INSEAD biznes maktabidan keyin ikkinshi o'rinda turadi. Uni bitiruvshilarining 68 foizi shu sohada faoliyat ko'rsatadi. Unga yiliga 80 ta kishi qabul qilinadi, konkurs ansha katta bo'lib, 1 o'ringa 8-10 kishi to'g'ri keladi.

Shveytsariya universitetlariga kirish ushun MDH davlatlari bitiruvshilari ushun qattiq talab qo'yiladi. Jeneva, lozanna va Nevshatel universitetlariga kirish ushun o'rta maktabni yaxshi baholar bilan tugatganlik to'g'risidagi attestat va xorijliklar ushun Friburgda faoliyat ko'rsatadigan maxsus komissiyaga bitta imtihon tapshirish talab etiladi. Nemis tilida faoliyat yurituvshi universitetlarda esa kamida to'rt semestr Rossiya oliygohlarida tahsil olish talab etiladi. Shuning ushun fransuz tilini bilish foydaliroq hisoblanadi.

Shet elliklar ushun Friburgdagi bitta imtihon sentyabr-oktyabr oylarida o'tkaziladi. Bunda beshta fan: ushta majburiy (shet tili, matematika, tarix) va ikkita tanlovga ko'ra (fizika, ximiya, biologiya, geografiya, ikkinshi shet tili) fandan imtihon o'tkaziladi. Imtihondan o'tolmaganlar ushun Friburgda bir yillik tayyorlov kursi ham faoliyat ko'rsatadi.

Mavzu yuzasidan topshiriq

Buyuk Britaniya va Shveytsariya ta'lim tizimlaridagi o'xshash jihatlar va o'ziga xos tomonlari to'g'risida amali mashg'ulotga tayyorlaning.

Mavzu: Belgiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari

Reja:

1. Belgiyada boshlang'ich va kasbiy ta'lim.
2. Belgiya ta'lim tizimining tuzilishi

№	Ta'lim bosqichlari	Yosh
1	Boshlang'ich maktab	6-12
2	O'rta maktab	12-16
3	O'rta kasbiy maktab	16-18
4	Oliy maktab	18-23

Maktabgacha ta'lim

Belgiyada MT 2,5 yoshdan boshlanadi. Ushbu belgilangan yoshga yetganda bolalarni MTga berishadi, shu sababli guruhdagi bolalar soni yil davomida o'zgarib boradi. MT guruhlarining asosiy maqsadi: bolalarning bilish, bilim orttirish (kognitiv),

kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Mashg'ulotlar o'yin shaklida olib boriladi. Maktabgacha ta'lim majburiy ta'lim dasturiga kiritilmagan bo'lsada, Belgiyada tahminan 90%gacha bo'lgan bolalar unda tahsil olishadi. Ko'p hollarda maktabgacha ta'lim muassasalar boshlang'ich maktablarga uyg'unlashgan bo'ladi.

Bolalar 6 yoshga etganda boshlang'ich maktabning birinchi sinfiga o'qishga kiradi.

Maktab

Maktab ta'limi davri 2 ta – boshlang'ich va o'rta maktab bosqichiga bo'linadi. Boshlang'ich maktab, o'z navbatida, 3 ta 2 ta sinfli bosqichdan iborat. Bu davrda bolalar arifmetika, o'qish, yozish, musiqa, tarix va ba'zi boshqa fanlardan ta'lim olishadi. Darslar 8.30 da boshlanib, 15.30 gacha davom etadi. Soat 12.00 dan 13.00 gacha tushlik uchun tanaffus beriladi. Chorshanba kuni tushlikdan so'ng, shanba va yakshanba kunlari dam olish kunlari hisoblanadi.

Bryusseldagi flamand maktab dasturiga birinchi yoki ikkinchi sinfdan boshlab, fransuz tilini o'qitish kiritilgan. Qolgan flamand maktablarining ko'p qismida bu fan boshlang'ich maktabning 3-bosqichida o'rgatiladi. Mamlakatning fransuz tilida so'zlashuvchi qismida o'quvchining hohishiga ko'ra ingliz yoki niderland tillari ham o'rgatiladi. German tilida so'zlashuvchi qismida fransuz tili majburiy tarzda o'qitiladi. Shuningdek, Belgiyada, belgilangan ijtimoiy guruh (dengizchi va diplomatlar bolalari)ga yo'naltirilgan qator xususiy maktablar ham faoliyat ko'rsatadi.

O'quvchilar boshlang'ich maktabni tugatib, xuddi shunday 3 ta 2 yillik bosqichdan iborat o'rta maktabga o'tadilar. Bu bosqichda o'quvchilar fanlarni ma'lum guruhlar orasidan tanlashlari shart bo'ladi va bu tanlov ma'lum darajada ularning dars jadvalini aniqlab berishga asos bo'ladi. Dars jadvalidan bu tanlangan fanlardan tashqari xamma uchun majburiy fanlar ham joy olgan. Masalan, davlat tili va jismoniy tarbiya fanlari va hokazo.

Belgiya hududida 4 tipdagi o'rta maktablar faoliyat yuritadi:

Umumiy ta'lim beruvchi o'rta maktab (Algemeen Secundair Onderwijs, (ASO)). Mazkur tipdagi muassasalar o'quv dasturida maktab bitiruvchisi 6 yil to'liq ta'lim olib, o'qishni oliy o'quv yurtida davom ettirishi ko'zda tutilgan. Mehnat bozorida ASO tugatganlik to'g'risidagi diplomli shaxslarga ehtiyoj mavjud emas, chunki mazkur tipdagi muassasalarda ta'lim ko'p hajmli nazariy bilimlar berish fanlarga qaratilgan bo'lib, amaliy va kasbiy tayyorgarlik ko'zda tutilmagan.

Texnik o'rta maktablar (Technisch Secundair Onderwijs, (TsO)) ikkita: TTK va STK kabi "tipcha"ga bo'linadi. I "tipcha"dagi maktablarda ta'lim texnik jihatidan tomoniga yo'naltirilgan, II "tipcha" ga - amaliy muassasalarga ixtisoslashgan. Mazkur ta'lim muassasalarda matematika, tillar, tarix, tabiiy fanlarga urg'u beriladi, lekin ASOga nisbatan bilim hajmi kamroqdir. STK bitiruvchilari mehnat bozoriga chiqishga tayyor, TTK bitiruvchilari esa, odatda, o'qishni davom ettirishni: ixtisosi bo'yicha bir yil qo'shimcha tahsil olish, turizm, savdo, sog'liqni saqlash kabi sohalar bo'yicha bakalavr yoki hattoki magistr darajasini olishni afzal ko'rishadi.

Kasbiy-texnik o'quv yurtlari (Beroeps secundair onderwijs (VSO)) duradgor, zargar, g'isht teruvchi (quruvchi) usta kabi o'ziga xos mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim taklif etishadi. BSO — faqat belgiya o'rta ta'limida mavjud bo'lgan ta'lim muassasasi tipidir, bundan keyin oliy ta'lim olish imkoniyati ko'zda tutilmagan. Agarda ushbu ta'lim muassasasi bitiruvchisi qo'shimcha yil (7 yoki 8) o'qish istagini bildirsa, bu qo'shimcha o'quv yilidan keyin bitiruvchiga TsO diplomiga ekvivalent bo'ladigan diplom berishadi.

O'rta badiiy ta'lim muassasalari (Kunst secundair onderwijs (KSO)). Ushbu o'quv yurtlar san'at sohasi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lish uchun universitet yoki kollejga o'qishga kirish uchun talabalarni tayyorlaydilar. Tanlagan yo'nalishiga qarab, akterlik mahorati, xoreografiya, musiqa yoki tasviriy san'at ustuvor bo'lishi mumkin.

Belgiyada oliy ta'lim: universitetlar va oliy maktablar.

Belgiya oliy ta'limi o'zining ko'hna an'alariga ega. O'qitish jarayoni va zamonaviy ilm-fanni rivojlantirishning muhim yo'nalishlari bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni o'tkazish o'rtasidagi bog'liqlik Belgiya ta'lim tizimi uchun an'anaviy hisoblanadi. Belgiyada o'qishni tanlash jarayonida e'tiborni, asosan, ishlab chiqarish (masalan, texnologiyalar) va biznes (xalqaro biznes, iqtisodiyot, boshqaruv, huquq, moliya va boshqa)lar bilan bog'liq bo'lgan dasturlarga qaratish kerak bo'ladi. Bunda, albatta, ta'lim olib boriladigan tilni bilish to'g'risida dalillar bo'lishi kerak. Belgiyadagi ta'lim xalqaro biznesga yo'naltirilganligi oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari uchun katta imkoniyat beradi.

Belgiya ta'limiga frantsuz, flamand va nemis hamjamiyatlari javobgar. 6 yoshdan 16 yoshgacha va kechki maktablarda 18 yoshgacha bo'lgan barcha bolalar uchun ta'lim majburiy va bepuldir. Savodsizlik deyarli tugatilgan. Belgiyaliklar bolalarining yarmi xususiy, aksariyat qismi katolik cherkovlarga tegishli bo'lgan maktablarda tahsil oladi. Qariyb barcha xususiy maktablar davlat tomonidan yordamga beriladigan mablag' – subsidiya bilan ta'minlanadi.

Maktab ta'limining birinchi bosqichi - olti yillik boshlang'ich maktab hisoblanadi. O'rta ta'lim aksariyat hollarda uchta ikki yillik bosqichdan iborat bo'lib, uning dastlabki to'rt yili majburiydir. Birinchi va ikkinchi bosqichlar o'quvchilarining tahminan yarmi umumpedagogik tayyorgarlik, badiiy ta'lim olishadi yoki texnik yoxud hunarmandchilik tayyorgarlikdan o'tadi; boshqalar esa ta'limning umumiy kursini o'tashadi. Oxirgi guruhining tahminan yarim o'quvchilari bitirgandan keyin universitetga kirish huquqini beruvchi o'rta maktabning oliy bosqichida ta'lim olishni davom ettiradilar.

Belgiyada 7 ta akademiya va 8 ta universitet faoliyat ko'rsatadi. Belgiyada oliy ta'lim qadimgi an'analarga ega: birinchi oliy o'quv yurti - Luven katolik universiteti hisoblanadi. U 1425 yili Martina V papasi tashabbusi va brabant gertsogi Jana IV ko'rsatmasiga binoan tashkil topgan. 1517 yili Erazm Rotterdam ham Luvenda uch til (ivrit, lotin, grek) maktabiga asos soldi va uning namunasida Parijda Frantsiya kolleji yaratildi.

Hozirgi kunda Belgiyaning aholisi 10 mln.dan ortiq kishidan tashkil topgan bo'lib, u erda qariyb 180 ta oliy ta'lim muassasasida 280 ming nafar talaba tahsil oladi. 1970 yili frantsuz tilida so'zlashiladigan Valloniya, niderland tilida so'zlashuvchi Flandriya, ikki tilda so'zlashiladigan Bryussel' va nemis tilida so'zlashiladigan Germaniya bilan chegaradosh bo'lgan Valloniya sharqidagi tuman 4 ta lingvistik hudud mamlakat konstitutsiyasida mustahkamlandi.

O'sha vaqtdan beri maorif federal vazirligi faqatgina o'rta ta'limning majburiyligini nazorat qiladi va barcha bosqich bo'yicha ta'lim to'g'risidagi diplom va sertifikatlarni berishning talablarini belgilaydi. Ta'lim bo'yicha boshqa masalalar tillar hamjamiyati vakolatiga kiradi. Shunday qilib, oliy ta'lim masalalari Flamand hamjamiyatining ta'lim va davlat xizmati Vazirligi, Frantsuz hamjamiyatining oliy ta'lim, ilmiy tadqiqotlar, xalqaro aloqalar va sport Vazirligi hamda Nemis tilida so'zlashuvchi hamjamiyatning ta'lim, madaniyat, ilmiy tadqiqotlar, haykallar va diqqatga sazovor joylar Vazirligi vakolatidadir.

Universitet tipidagi o'quv yurtlar va Oliy maktablar

1970 yil 7 iyuldagi qonunga muvofiq OO'Yular universitet tipidagi o'quv yurtlar va Oliy maktablarga bo'linadi. Aslini olganda 7 ta Belgiya universiteti faoliyat yuritadi: L'ej davlat, Monse-Enodagi Universitet, Gent davlat, Bryussel' Erkin (frantsuz tilida va alohida flamand), Luven katolik (frantsuz tilida va alohida flamand). Ular qatorida bir nechta xorijiy universitet bo'limlari (Bryussel' va Antverpenda), hamda universitetga tenglashtirilgan qator Belgiya OO'Yu (odatda ular universitet fakul'teti, markaz, birlashma yoki jamg'arma nomlariga ega) faoliyat yuritadi.

OO'Yularning bir qismi - yuqorida nomlari qayd etilgan hamjamiyatlar hukumatlari byudjetidan moliyalashtiriladigan davlat, yoki «rasmiiy» o'quv yurtlar. Boshqalari shaxsiy mablag'lar hisobidan - xususiy, shaxs yoki tashkilotlar tomonidan ochilgan va “mustaqil”, “erkin” nomlariga ega bo'lishgan. Ularning aksariyati Belgiyada, an'anaga *ko'ra*, ta'limning barcha bosqichlarini, shu jumladan oliy ta'limni, tashkil etish va moliyalashtirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan Rim katolik cherkovi rahbarligida ochilgan. Ba'zi mustaqil o'quv yurtlar, xususan, katolik universitetlar hamjamiyatlar hukumatlari ko'magidan foydalanishadi.

Brusseldagi mustaqil universitet - Niderland tilida o'qitiladigan universitet hisoblanadi. 1970 yili niderland tilidagi fakul'tetlar 1834 yili tashkil etilgan Bryussel' erkin universiteti tarkibidan alohida universitet bo'lib ajralib chiqqan. Ushbu universitetlar nomlaridagi “erkin” so'zi ularning mustaqil o'quv yurti ekanini bildiradi.

Har ikkala tipdagi universitet etarli mablag'ga egaligi sababli Belgiyadagi hech bir o'quv yurtlari tarmoqlariga davlat va katolik cherkovga tegishli emas.

Ular Erkin ilmiy tadqiqotlar printsipiga bo'ysinadi va shiorlari ham bir xil: “Qarong'ilikni ilm bilan engish”. BEU, yuqorida qayd etilganidek, 1834 yili tashkil topilgan va ta'limi faqatgina frantsuz tilida, 1934 yildan boshlab golland tilida olib boriladi. 1970 yili esa Niderland tilida o'qitiladigan fakul'tetlar Erkin universitetlariga ajratiladi. Shunday bo'lsada har ikkala universitet o'zaro hamkorlik dasturini amalga oshiradi. Fakul'tetlari:

- huquq va kriminologiya;
- iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy fanlar;
- psixologiya va pedagogika;
- tabiiy fanlar;
- tibbiyot va dorishunoslik;
- faylasuf va filologiya;
- texnik (muhandislik) fanlar;
- jismoniy tarbiya;
- o'qituvchilarni tayyorlash fanlararo guruh.

Shuningdek, universitetga tenglashgan o'quv yurtlar tarkibiga Qirolning harbiy maktabi ham kiradi. Universitet diplomi mavjudligi amaldagi qonunchilikka muvofiq ma'lum davlat mansab, lavozimlarini egallash va jamoat ahamiyatiga ega (advokat, vrach va boshqa) mutaxassisliklar bo'yicha faoliyat yuritish uchun ruxsat olish uchun kerakdir. Alohida holatlarda Belgiya universitetlari chet elliklarga Belgiyada ishlash huquqiga ega bo'lmagan diplom berishadi. Universitetda ta'lim olish eng kam muddati 4 yildir, lekin ba'zi mutaxassisliklar bo'yicha 10-12 yil tahsil olishi mumkin.

Universitetdagi o'qishlar ko'p pog'onaliidir: universitetda ta'lim olishning har bir davri yoki tsikli universitet ilmiy darajasini olish uchun quyidagi darajalarini olishi bilan tugatiladi:

Kurs	Davomiyligi	Daraja
------	-------------	--------

(Tayanch)-Bazaviy	2 yil	kandidat (ta'limning boshqa tizimida bakalavr diplomiga mos keladi)
Asosiy	3 yil	litsentsiat (ta'limning boshqa tizimida magistr diplomiga mos keladi)
Qo'shimcha	2 yil	doktor (mutaxassis)
Oliy	2 yil	oliy ta'lim agrejesi

“kandidat” darajasi - 2 yoki 3 yillik tayanch ta'lim olganidan keyin beriladi. Bu 1-tsikl hisoblanadi (keyin esa ta'limning 2-tsikli, ya'ni ixtisos (soha) bo'yicha tayyorlash boshlanadi;

“litsentsiat” - bakalavr darajasiga mos keladi, mutaxassisligi bo'yicha 2 yoki 3 yillik qo'shimcha ta'lim olishi va ilmiy ish yozganidan keyin beriladi.

Ba'zi fanlar bo'yicha ko'p muddatli o'qishdan keyingina ushbu darajaga erishish mumkin: muxandislik, farmatsevt, huquq sohalari bo'yicha mutaxassisliklari uchun - 3 yil yoki meditsina, jarrohlik va doyalik (akusherlik) ixtisosligi bo'yicha doktor unvoniga ega bo'lishi uchun 4 yil o'qishlari shart.

“doktor” - magistr darajasiga to'g'ri keladi, mazkur darajaga “litsentsiat” darajasini olgandan keyingina kamida yana 1 yil tahsil olib, dissertatsiyani yozib, albatta uni yoqlash talab etiladi.

“oliy ta'lim agreje”si - ushbu ierarxiya (ketma-ketlik)ning oliy darajasi hisoblanadi va u doktorlik darajasini olib, 2 yil muddat o'tishidan keyingina berilishi mumkin.

Universitetlarda, shuningdek universitetdan keyingi ta'lim yoki, odatda, davomiyligi 2-3 yil bo'lgan “3-chi tsikl (bosqich) ta'limi” bordir. Mazkur ta'lim turininig maqsadi insonlarga ko'shimcha ta'lim yoki daraja olish uchun imkoniyat yaratish hisoblanadi. Ba'zi fanlardan universitet darajasiga ega bo'lish uchun kechki yoki dam olish kunlari kurslari tashkil etilishi orqali yoshi katta bo'lgan kishilarga imkoniyat yaratiladi. Ba'zi universitetlarda ta'limning “almashib kelish”i, ya'ni ta'lim olish jarayoni ishlab chiqarishdagi amaliyot bilan almashib keladi va “tanaffusli ta'lim” kabi shakllari mavjud. Belgiya oliy maktab tizimi uchun ta'lim jarayoni bilan zamonaviy fanni rivojlantirishning muhim yo'nalishlari bo'yicha amaliy tadqiqotlarning bog'liqligi an'ana bo'lib qolgan.

Ilm, fanni rivojlantirish uchun universitetlarning byudjetidan 40% gacha bo'lgan miqdordagi mablag' ajrtiladi. Ilmiy tadqiqotlarining moliyalashtirilishi vazirlik, sanoat va qishloq xo'jaligida ilmiy- tadqiqotlarga ko'mak Instituti yo'nalishlari bo'yicha davlat mablag'lari, ilmiy tadqiqotlar Milliy jamg'armasi, shuningdek turli xil kompaniya, jamg'arma va assotsiyatsiyalar yo'nalishi bo'yicha xususiy (shaxsiy) manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

1995 yil 8 avgustdagi “Oliy maktablarda ta'limni tashkil etish to'g'risida”gi Dekret “uzun” va “qisqa” tipdagi ta'limni belgilab berdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, oliy o'quv yurti nomidagi “institut” yoki “universitet” so'zlari mazkur o'quv yurti o'z bitiruvchilariga oliy ma'lumot beradi degani emas. Qisqa muddatli ta'lim 3 yillik (ba'zi hollarda san'at va tibbiyot sohalari *bo'yicha 4 yil*) muddatli bir tsikldan iborat bo'ladi. Nazariy qismini o'qitish navbatma-navbat laboratoriya, ustaxonalardagi amaliy mashg'ulotlar bilan birgalikda olib boriladi.

Ko'pincha fermer, buxgalteriya, hamshira, maktab o'qituvchisi, mexanik, kutubxonachi,

fotograf, kotiba kabi mutaxassisliklarda o'qishning 1-yilidan boshlanadi.

Uzoq muddatli oliy ta'lim, ba'zi hollarda universitet darajadagi, uzoq muddatli ta'lim bilan ham nomlanadigan har biri davomiyligi 2 yildan iborat 2 tsikldan iborat.

Belgiya oliy o'quv yurtlari tomonidan berilgan barcha diplomlar Evropa Ittifoqi davlatlari, shuningdek Islandiya, Norvegiya, Turtsiya va Mal'ta mamlakatlarida e'tirof etiladi.

Birinchi bosqich Gradue diplom berilishi bilan yakunlanadi. Ikkinchi pog'ona tahsilidan keyin Licencie diplomi beriladi. Institut va universitetlarning ikkinchi pog'ona bitiruvchilari uchun yagona bo'lib, umumiy hisoblangan uchinchi pog'onadan keyin bitiruvchiga (Ingeneurdiplome) diplomli muhandis darajasi beriladi. Aslida, oliy ta'lim sektorlari oralig'idagi chegaralar o'zgalar uchun yopiq, mahdud emas hamda talabalar navbatdagi ta'lim bosqichini o'z mutaxassisligiga mos keladigan hohlagan oliy o'quv yurtida davom ettirishi mumkin.

OO'Yuga kirish imtixonlari mavjud emas: tahsil olish uchun yozilish tizimi mavjuddir. Ba'zi OO'Yular kelajak talabalari uchun qo'shimcha ravishda test sinovlarini o'tkazishadi.

Ta'lim turlari Davlatlar	O'zbekiston Respublikasi	Belgiya Qirolligi
Maktabgacha ta'lim	3 -6 yosh	2,5-6 yosh
Boshlang'ich ta'lim	7 - 10 yosh (4 yil)	6 — 12 yosh
O'rta ta'lim	11 - 16 yosh (5 yil)	12- 16 yosh
O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi	16— 18 yosh (3 yil)	
Oliy ta'lim	18 — 23 yosh Bakalavriat 4 yil Magistratura 2 yil	18-23 yosh
OTMdan keyingi ta'lim		
Malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash		
Izoh		

Mavzu: Polshada ta'lim tizimi


Reja:

1. Polsha ta'lim muassasalarining zamonaviy tizimi.
2. Polshada kasbiy ta'lim masalalari.

3. Polsha oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim.

1999 yil Polshada yangi ta'lim reformasi kuchga kirdi. U o'qitishning tashkiliy tuzilishi va imtihonlar tizimini tubdan o'zgartirdi, o'qituvchilar xizmat pog'onasida o'sishining yangi tizimi va maktablarni moliyalashtirish usullarini kiritdi.

1999 yilgi reformadan oldingi talim tizimi




1999 yilgi reformadan avvalgi imtihon tizimi:

- Maktab boshlang'ich ta'limidan keyingi imtihon turli voyevodstvalarda har xil differensial holda o'tkazilgan.
- Litsey va texnikumlarni bitirish imtihonlari ham voyevodstvalar bosqichida o'tkazilgan.
- OO`YU'lari o'rta maktab bitiruvchilari uchun ichki kirish imtihonlarini o'tkazganlar va shu asosda bo'lajak talabalarni qabul qilish haqida qaror qabul qilingan.

Reformaning asosiy tamoyillari:

- O'rta va oliy ta'limni keng yoyish;
- Ilmiy dasturlarning o'zgarishiga ko'ra ta'lim sifatini oshirish.

Polshaning zamonaviy ta'lim tizimi



Dasturiy o'zgarishlar:

- O'quvchilarning ko'nikma-malakasi va fikrlashini shakllantirishga ko'mak beruvchi yangi dasturiy asoslar kiritildi.
- Imtihon standartlari ishlab chiqildi.
- O'qituvchi o'qitish dasturi va darsliklarni tanlash yoki o'qitish dasturini mustaqil yozish imkoniyatiga ega bo'ldi.
- Direktor o'quvchilar hoxishiga ko'ra bir necha darslarni kiritishi mumkin (turli to'garaklar, o'lkashunoslik, ekologiya va boshqa o'quv fanlari bo'yicha mashg'ulotlar).
- Davlat miqyosida ishlab chiqilgan, bir xil baholash tizimiga ega bo'lgan, bir turdagi imtihonlar kiritildi.
- O'qitish bloklari kiritildi (masalan, musiqa, san'at va h.)

Moliyalash va nazorat

- Boshlang'ich ta'lim va gimnaziyalar gminlar byudjetidan moliyalashtiriladi.(gmin-Polshadagi eng kichik ma'muriy birlik).
- Gminlar o'quvchilar uchun doimiy dotatsiyalarni oladilar.
- Xususiy maktablar ochish imkoniyatlari bor, bunda shaxsiy pul mablag'laridan tashqari davlat dotatsiyasini ham olish mumkin.
- Maktablar ustidan pedagogik nazoratni kuratoriyalar amalga oshiradilar.

Boshlang'ich maktab

- Majburiy bir yillik maktabgacha tayyorgarlik: bog'chada yoki maktabda.
- Bolalar 7 yoshdan o'qishni boshlashadi.
- O'qish 6 yil davom etadi va imtihon bilan yakunlanadi.
- O'qish ikki bosqichda bo'ladi:
 1. Birinchi bosqich 1-3-sinflarni qamrab oladi.O'qituvchi o'quv dasturini o'quvchilarning o'zlashtirish imkoniyatlaridan kelib chiqib amalga oshiradi.
 2. Ikkinchi bosqich 4-6-sinflarni o'z ichiga oladi, o'qitilayotgan fanlar an'anaviy va blokli fanlarga bo'linadi. Bunda polyak tili, tarix, matematika, chet tili kabilar an'anaviy o'quv fanlariga, ximiya, biologiya, geografiyani o'zida birlashtiruvchi tabiat fani blokli fanlarga kiradi.

Dars 45 minut davom etadi.

O'quvchi maktabni 6-sinfidan keyin majburiy imtihonlarni topshirish bilan yakunlaydi.

Gimnaziya

- Ta'lim 3 yil davom etadi.
- Gimnaziya 3 bosqichli imtihon topshirish bilan yakunlanadi: gumanitar fanlar bo'yicha, matematika va tabiat bo'yicha, chet tili bo'yicha.

Litsey, texnikum

O'rta maktablar ballar limitini e'lon qiladi.

O'qish litseyda 3 yil, texnikumda 4 yil davom etadi.

Texnikumni tugatgan o'quvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha juda murakkab imtihon topshiradi.

Litsey bitiruvchisi hech qanday mutaxassislikka ega bo'lmaydi, u faqat OO'YUlarida o'qishni davom ettirish uchun tayyorlanadi, ayrim fanlar chuqur o'rganiladi.

Litsey va texnikum yetuklik attestati imtihoni bilan yakunlanadi.

- Etuklik attestati imtihonlari quyidagilardan iborat:
 - Ona tilidan yozma va og'zaki imtihon;
 - CHet tilidan imtihon;
 - O'quvchi o'zi tanlagan fan bo'yicha imtihon.
- Imtihondan o'tish uchun 31% ball to'plash kerak.
- Imtixon natijalari ma'lum chizmalar bo'yicha hisoblanadi va shunga ko'ra OO'YUga yo'llanma oladi.

OO'YU

- O'rta maktab bitiruvchilarini OO'YUlariga qabul qilish yetuklik attestatida to'plagan ballari asosida amalga oshiriladi.
- O'qitish zaxet va imtixonlar asosida o'tadi.
- OO'YUda ikki bosqichli ta'lim mavjud:
 - magistr darajasini olish (5 yil);
 - yoki litsenziat(3 yil) + magistr darajasi(2-yil).
- OO'YUda o'qish diplom ishi himoyasi bilan yakunlanadi.
- Texnika OO'YUlarida injenerlik imtihonlari ham topshiriladi.

Davlat va xususiy maktablar

- Xususiy maktablarda sinflarda o'quvchilar soni kam.
- Davlat maktablarida dars soatlari soni O'qituvchi Kartasida aks etadi (qonun bo'yicha haftasiga 18 soat). Xususiy maktablarda dars soatlari soni va sharoitlarni ish beruvchi belgilaydi.
- Xususiy maktablarda ta'lim jarayoniga ota-onalar ta'siri kuchli.
- Differensiyalashgan ta'lim bosqichi mavjud.
- Davlat OO'YUlarining obro'si balandroq.

O'qituvchilarning xizmat pog'onalari bo'yicha o'sishi

- Polshada o'qituvchilarning xizmat pog'onalari bo'yicha o'sishi quyidagi bosqichlarga ega (ketma-ket polyakcha nomi bilan):
- YAngi ish boshlagan o'qituvchi "stajer o'qituvchi" maqomini oladi.
- 9 oy muddatda staj o'tagach, "shartnomali o'qituvchi" maqomiga ega bo'ladi.
- 1 yildan keyin esa "mianovan o'qituvchi" maqomini olish uchun staj o'tash xuquqini oladi.
- Staj 2 yilu, 9 oy davom etadi, so'ngra gmin komissiyasi oldida imtihon topshiradi.

- Mianovan o'qituvchi maqomini olgach, 3 yildan keyin "diplomli o'qituvchi" maqomi uchun staj qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Staj 2 yilu 9 oy davom etadi va ta'lim vazirligi vakillari suhbatlari bilan yakunlanadi.
- "Diplomli o'qituvchi" maqomini olgach, 9 yildan so'ng "professor o'qituvchi" maqomini olishga harakat qiladi (bu professorlik ilmiy darajasi emas).
- Xizmat pog'onalari bo'yicha o'sishning barcha bosqichlarida berilgan muddatlarga amal qilinishi, bu muddatda kerakli hujjatlar tayyorlanishi va topshirilishi lozim.
- Staj paytida o'qituvchi maktab direktori tasdiqlagan shaxsiy reja asosida ishlaydi. Barcha ish natijalarini hisobotda yozib boradi, keyinchalik direktorga va imtihon komissiyasiga taqdim etadi.
- Xizmat pog'onalari bo'yicha o'sishi o'qituvchining tegishli maqomga ega bo'lishi va oylik maoshining oshishi bilan bog'liq.
- O'qituvchini ishga qabul qilish va kasb imtiyozlariga ega bo'lish ko'p jihatdan uning maqomiga bog'liq.
-

OO'YU bitiruvchilarining kasbiy nomlari

- **Litsenziat** – OO'YUda 3-3,5 yil o'qigan talaba.
- **Injener** – Texnika, qishloq xo'jaligi, iqtisodiyot OO'YUlarini bitiruvchisi.
- **Magistr** – ta'limning 5 yillik standart kursini bitiruvchisi.

Ilmiy darajalar va unvonlar:

Doktor – doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan shaxsga beriladigan daraja (bizdagi fan nomzodiga to'g'ri keladi).

Doktor xabilitovan – doktorlik darajasiga ega bo'lgan, fanga ulkan hissa qo'shgan va yana bir ilmiy ishni himoya qilgan shaxsga beriladigan ilmiy daraja. (bizdagi fan doktoriga to'g'ri keladi).

Ta'lim tizimidagi ba'zi muammolar va yutuqlar

- Kichik qishloq maktablarini moliyalashtirish muammosi: bir sinfda 25 o'quvchi bo'lsagina maqsadli dotatsiya beriladi.
- Maqsadli dotatsiya bo'lmasa gminlar o'z shaxsiy byudjetlaridan xarajatlarni qoplaydilar shu bois kichik qishloq maktablari yopiladi.
- Boshlang'ich ta'limning 1-3-sinflarida baholash tizimi mavhum.
- Umumpolyak imtihonlarining kiritilishi alohida regionlardagi o'qitish darajalarini taqqoslash imkoniyatini berdi.
- OO'YUga qabul qilish tizimida korrupsiyaning yo'qotilishi.

Mavzu: Yaponiya ta'lim tizimi va unga dahldor masalalarning olib borilishi..

Reja:

1. Yaponiya ta'lim tizimining xususiyatlari.
2. Boshlang'ich va o'rta ta'lim, ularning mazmuni.
3. Yaponiyada oliy ta'lim va ilmiy faoliyat.
4. Yaponiya ta'limining muammolari va rejalari.

Iqtisodiy rivojlanish darajasi jihatidan Yaponiya Amerika Qo'shma Shtatlaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Jahonning ko'zga ko'ringan ruhshunoslari va iqtisodshilari Yaponiya rivojlanishidagi bu ulkan parvozni mamlakatda ta'lim tizimlari taraqqiyotiga berilgan yuqori darajadagi e'tibor samarasi, deya qayd etadilar. Bu bejiz emas. Kun shiqar mamlakati sanalgan bu yurtda ta'lim tizimlarini takomillashtirib

borilishiga hukumat, xususiy kompaniyalar, jamoat tashkilotlari, ota-onalar qanshalik omilkorlik bilan yondashayotganliklarini hisobga olsak, jahon ilmiy tadqiqotshilarining yuqoridagi xulosalari asosli ekanligining guvohi bo'lamiz.

Tabiiyki, Yaponiya ta'lim tizimlarining yuksak parvozi o'z-o'zidan bo'lgani yo'q. Uning ham o'ziga xos inqirozi va muammolari bo'lgan. Bularni to'liqroq tasavvur qilish ushun mamlakat pedagogik tamoyillari va maorif taraqqiyotining tarixiy bosqishlariga nazar tashlash maqsadga muvofiqdir.

Yapon ta'lim tizimlarining mumtoz shakllanishi 1867-1868 yillardagi mamlakat hukmdori Meydzi tomonidan amalga oshirilgan islohotlarga borib taqaladi. Bu hukmdorning o'z oldiga qo'ygan ikki qat'iy shiori bo'lib, biri «Fukoku kioxsi» - boyish, mamlakatni mustahkamlash va harbiylashtirish, ikkinchisi esa «Siokusan kogio»- ilg'or G'arb ishlab shiqarish texnologiyasi asosida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish edi. Meydzi ikki maqsadni amalga oshirishning bosh omili ta'lim tizimlarini tubdan o'zgartirish va yangilashda deb hisoblardi.

Davlat boshlig'ining bu xulosalari Yaponiyada 1872 yilda «Ta'lim haqida Qonun» qabul qilinishiga olib keldi. qonunga muvofiq tez orada eski uslubdagi ta'lim tizimi o'rnida mamlakat rivojlanishini ta'minlashga samarali xizmat qiluvshi yangi yo'nalishdagi 53750 ta boshlang'ish, 256 ta o'rta maktab, 8 ta dorilfunun tashkil etildi. Bu o'quv yurtlaridagi ta'lim shakllari ma'rifatli G'arb ta'lim uslublari bilan uyg'unlashtirildi. 1890 yilga kelib ilgarigi 3-4 yillik boshlang'ish maktablar qat'iy 4 yillikka aylantirildi va u bepul amalga oshirila boshlandi.

1908 yildan boshlab Yaponiyada boshlang'ish ta'lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. O'quv-tarbiya ishlari bepul amalga oshiriladigan bo'ldi. 1893 yildan e'tiboran Yaponiyada kasb yo'nalishidagi dastlabki kollejlarda paydo bo'la boshladi.

Birinshi dorilfunun 1886 yilda Tokioda tashkil etildi. Lekin bu dorilfununga oliy tabaqali aslzodalarning bolalari qabul qilinardi. Asr boshida mamlakatda ayollar ushun ham dorilfununlar tashkil etildi. Bu bilim maskanlarida xotin-qizlar ushun faqat xo'jalik yuritish, oila iqtisodiyotidagina ta'lim beriladi. 1897 yilda Kiatoda ikkinshi dorilfunun oshildi. Ikkinshi jahon urushida Yaponiya mag'lubiyatga ushragandan keyin mamlakat maorifi tizimlariga Amerika Qo'shma SHtatlari ta'lim tamoyillari kirib kela boshladi.

1946 yilda qabul qilingan Konstitutsiya Yaponiya fuqarolarining ta'lim sohasidagi huquq va burshlarini belgilab berdi. Unda «Layoqatiga ko'ra barsha fuqarolar bilim olish huquqiga ega. Barsha bolalar bepul umumiy ta'lim olishlari shart» ekanligi belgilab qo'yilgan.

1947 yilda qabul qilingan «Ta'lim haqidagi Qonun» Yaponiya Konstitutsiyasi ruhiga uyg'un bo'lib, mamlakatda ta'limning maqsad va vazifalarini to'la ifoda etadi. unda, jumladan, shunday deyiladi: «Biz shaxsiy g'ururi bor, o'zining qobliyat va imkoniyatiga ishonuvshi, haqiqat va tinshlikni sezuvshi odamlarni tarbiyalaymiz, toki ular ko'p qirrali madaniyat sohibi bo'lsinlar». Shunday qilib Yaponiyaning Ta'lim, fan va madaniyat vazirligi boshqaruvida hozirgi paytda qat'iy markazlashgan, ilg'o xalqaro standartlar darajasida yapon ta'lim tizimi qaror topdi.

Ta'lim tizimi tarkibi

Hozirgi zamon yapon ta'lim tizimining tarkibi quyidagisha: bolalar bog'shasi, boshlang'ish maktab, kishik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvshi o'quv yurtlari. Bu ta'lim bosqishlarining o'ziga xos jihatlarini birma-bir ko'rib shiqamiz.

Bolalar bog'shalari. Ta'limning bu bosqishiga 3-5 yoshli bolalar qabul qilinadi. Bolalar yosh xususiyatlariga muvofiq ravishda 3, 2, 1 yillik ta'lim kurslariga jalb

qilinadilar. Yaponiyada maktabgasha ta'lim muassasalarining 59,9 foizi xususiydir. 40,8 foizi munisipial (tuman) kengashlari tasarrufida, qolgan 0,3 foizi esa davlat ixtiyoridadir.

Majburiy ta'lim. Ta'limning bu pog'onasiga 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinib, ular shu muddat ishida 6 yillik boshlang'ish maktab va 3 yillik kishik o'rta maktab kursini o'taydilar. 9 yillik bu ta'lim majburiy bo'lib barsha bolalar bepul o'qitiladilar va darsliklardan tekinga foydalanadilar.

Muhtoj oilalarning bolalari mahalliy va milliy boshqaruv tashkilotlari tomonidan ajratilgan mablag'lar hisobiga bepul nonushta qilish, o'quv qurollari olish, tibbiy xizmatdan bahramand bo'lish imtiyozlariga egadirlar. Bundan tashqari ularga bepul sayohatlar va boshqa ko'ngiloshar tadbirlar uyushtiriladi. Zarur bo'lib qolgan taqdirda muhtoj o'quvshilar ushuncha moddiy yordam ko'rsatiladi. Bu bosqishdagi maktablarga qabul ushuncha maxsus qonun yoki sheklashlar yo'q. Faqat jismonan, ruhan nosog'lom bolalar unga qabul qilinmaydilar.

Ota-onalar o'z bolalarini xususiy maktablarga berish huquqiga ham egadirlar. Lekin xususiy maktablarning o'ziga xos shart-sharoitlari va talablari mavjud.

Yuqori bosqish o'rta maktabi. Yaponiyada bunday bosqish maktablarining kunduzgi, keshki va sirtqi bo'limlari mavjud. Kunduzgi yuqori bosqish maktablarida o'qish muddati 3 yil. O'quvshilarning 95 foizi kunduzgi maktablarda ta'lim oladilar. Bu turdagi maktablarda o'qish ixtiyoriydir. Unga quyi o'rta maktablarni bitirgan, yuqori bosqish o'rta maktablariga kirish sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'quvshi yoshlar qabul qilinadilar. Unda umumiy ta'lim fanlari, texnik bilimlar, tijora, mahalliy sanoat, qishloq xo'jaligi, shorvashilik, baliqshilik, kemasozlik va boshqa sohalarga oid bilimlar o'rgatiladi. Bunday turdagi o'rta maktablarda umumiy va xususiy tarmoqlarni qo'shib hisoblaganda 98 foiz yosh bilim oladi.

Va nihoyat, dorilfununlar, kishik kollejlar. Maxsus ixtisoslashtirilgan kollejlar Yaponiyada oliy ta'lim tizimini tashkil etadi.

Bu mamlakatda boshlang'ish va o'rta oliy o'quv yurtlaridan tashqari, bir-biridan farq qiluvshi «Ixtisos maktabalari» va «turli» maktablar mavjud. Ularning ko'pchiligi xususiy bo'lib, turli firma, konsern va sindikatlar ushuncha qisqa vaqtli kurslarda bishuvshi, tikuvshi, to'quvshi, oshpaz, hisobshi, mashinkada yozuvshi, avtotexnik, elektron hisoblash mashinalari ushuncha dastur tuzuvshi va boshqa zaruriy kasblar o'rgatiladi. Maktablarning ayrimlari shet tillarini o'rgatish bo'yicha ixtisoslashtirilgan.

1976 yildan e'tiboran vazirlikning aniq talablarini bajarayotgan «turli maktablar» ixtisoslashtirilgan maktablarga aylantirildi.

Boshlang'ish, o'rta ta'lim o'quv jarayonini tashkil qilish, ta'lim mazmuni

Boshqa joylardagidan farqli o'laroq Yaponiya maktablarida o'qish 1 apreldan boshlanib, klassi yilning 31 martidan nihoyasiga yetadi.

Boshlang'ish va kishik o'rta maktablarda o'quv yili ushuncha semestrga bo'linadi: aprel-iyul, sentyabr-dekabr, yanvar-mart. Katta o'rta maktablarda esa o'quv yili 2 yoki 3 semestrga bo'linadi:

Ta'tillar yozda, qishda (Yangi yildan oldin va keyin) va bahorda bo'ladi. Yozgi ta'tillarning boshlanishi va tugashi munisipalitetlardagi vaziyat, ya'ni yuzaga kelgan holatlarga va o'quv yurtlari xususiyatlariga qarab belgilanadi. Ko'pchilik boshlang'ish va kishik o'rta maktablarda ta'tillar iyun oxirida boshlanib, avgust oylarida tugaydi. Qishloqlarda esa qishloq xo'jalik ishlarini bajarishdagi dolzarb holatlardan kelib shiqib, bahor va kuzgi ta'tillar yozgi ta'tillar hisobidan qisqartiriladi.

O'quv yili Yaponiyada 240 kun yoki Amerika Qo'shma Shtatlaridagidan 60 kun ko'pdir. Darslar 7 soat. Ko'pshilik maktablarda darslar ertalab soat sakkiz yarimda boshlanib, ushdan o'n besh daqiqa o'tganda tugallanadi. O'quvshilar haftasiga 2-3 soat sinfdan tashqari klub ishlarida, 7 soat ixtisos bo'yisha mashg'ulotlarda yoki repetitorlar ixtiyorida bo'ladilar.

Yuqori bosqish o'rta maktablarida butun o'quv jarayonida o'quvshilar 80 ta sinov topshirishadi. O'quvshilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o'z hohishlariga ko'ra ingliz tili, texnik ta'lim va maxsus fanlardan sinovlarga jalb etiladilar.

Yapon maktablari elektron hisoblash mashinalari va boshqa o'quv-texnika vositalari bilan to'la ta'minlanganligiga qaramay, mutaxassislarning fikrisha, asosiy e'tibor o'qituvshi faoliyati va darslikka qaratilmog'i kerak. Ularning fikrisha, o'qituvshi bilan o'quvshi o'rtasidagi jonli muloqot o'rnini har qanday takomillashgan mashina ham bosa olmaydi.

Deyarli barsha darsliklar xususiy bosmaxonalarda shop etiladi. Ularni shop etishga mablag'ni vazirlik ajratadi. Yuqorida qayd etilganidek, darsliklar boshlang'ish va quyi o'rta maktablarda bepul, yuqori pulli maktablarda esa pullidir. Darsliklar narxi shundayki, ularni xarid qilishga hammaning imkoniyati bor. Foydalanilgan darsliklar pullik bo'lsa ham, tekin bo'lsa ham o'quvshining o'zida qoldiriladi.

Yaponiyada o'qituvshi kadrlash tayyorlash sifatiga juda katta talablar qo'yiladi. Bu talablar shundayki, mazkur kasbga iqtidorli va yo'nalishi to'g'ri kelmaydigan tasodifiy kishilarning kirib qolishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'qituvshilar 4 yillik dorilfununlarda va 2 yillik kollejlarda tayyorlanadi. Bu o'quv yurtlarining bitiruvshilariga birinshi va ikkinshi darajali guvohnoma beriladi.

Maktab direktori bo'lish ushuni 1 darajali guvohnomaga ega bo'lish shart.

Yapon o'qituvshilarning jamiyatda tutgan obro'-e'tibori katta. Binobarin ularning maoshlari ham yuqori, 74 foiz o'qituvshi jamoa va kasb-korlik asosiasiyasiga a'zo.

O'qituvshilar o'zlariga ishonib topshirgan 35-40 o'quvshining bilimi va tarbiyasi ushuni javobgardirlar. Shu bois ular darsdan bo'sh vaqtlarini o'quvshilar, ularning otalari bilan suhbatlarga, xonadonlarga tashrif tashrif ishlariga bag'ishlaydilar.

Ota-onalar va bolalar

Yaponiyada oilaviy byudjetning katta qismi bolalarning sara maktablarida puxta bilim olishlarini ta'minlashga, universitetlarga kirib bilim olishlariga sarflanadi. Oilada bola yaxshi bilim olishi ushuni barsha shart-sharoitlar yaratib beriladi. Imtixon paytlarida esa bolalar uy yumushlaridan ozod etiladilar. Ota-onalar maktab hayotining barsha sohalarida faol ishtirok etadilar, ular o'z farzandlariga barsha sohada o'rnak namunadirlar. Ular o'z bolalari o'qishiga yordam berish ushuni juda ko'p o'qiydilar, maktab o'quv dasturini mukammal o'rganib oladilar.

Bolalar tarbiyasida onalarning roli va ma'suliyati kattadir. Ular o'zlarini farzandlarining oqil, dono, muloyim, odil va mehnatsevar bo'lib o'sishlari ushuni oila sulolasi va davlat oldida mas'ul deb hisoblaydilar. Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko'plab metodik qo'llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va televidenie orqali ko'plab pedagogik maslahatlar berib boriladi.

Maktabgasha tarbiya yoshdagi bolalar ushuni ota-onalar oyiga o'rtasha 2-3 kitob sotib olishadi. SHu yoshdagi bolalar ushuni oyiga 40 jarida nashr etiladi, ota-onalarning mutlaq ko'pshiligi bu jaridalariga obuna bo'lishadi. Bola maktabga borgunga qadar o'qishni, yozishni, oddiy hisoblash ko'nikmalarini egallashi zarur.

Yaponiya oilalaridagi uy partalari diqqatga sazovordir. U mukammal yon tomonidan muxofozalangan qo'rilma bo'lib, parta ustida kitob javoni, yoritqish, soat,

qalam,qog'oz, mikrokalkulyator va zaruriy ashyolar, shuningdek, kerak bo'lib qolgan taqdirda ota-onasini shaqiradigan signal tugmashalarigasha o'rnatilgan.

Ijtimoiy shart-sharoitlar

Turli ta'limiy ko'nikmalarni bolalar ongiga singdirish yapon maktablariga xos fazilatdir.Masalan,2-sinf o'quvshisi ko'pshilik oldida nutq so'zlash qobiliyatiga ega bo'lishi, 6-sinf o'quvshisi kamida 2 ta sholg'u asbobida kuy shala bilishi,boshlang'ish sinf o'quvshisi suvda bemalol suza olishi kerak. Mana endi,Yaponiya muallimi o'z kasbiga qo'shimsha ravishda yana nimalarni o'rganishi lozimligini bilish qiyin emas. O'qituvshi qo'shiq aytishi, sholg'u asboblarida kuy shala olishi, notqlik san'atini bilishi, yaxshi sportshi bo'lishi kerak..

Yaponiyaliklar to'g'ri va halol turmush tarzini qadrlaydilar. 1-sinfidan to 9-sinfgacha axloq tarbiyasi maktab faoliyatining zaruriy shartidir. O'qituvshi o'z o'quvshilari bilan doimo birga doimo birga bo'ladi.

Yapon bolalari tashkilotshilik ishlariga ham maxsus o'rgatiladi.Bolalarning o'zlari ekskursiyalar uyushtiradilar, majlislar tayyorlaydilar va o'tkazadilar. Bolalar xulq atvoridagi barqarorlik Yaponiyada bebaho boylik hioblanadi. Bolalarning o'zlari o'qish o'zlashtirishni, o'z-o'zini tarbiyalashni muhokama qiladilar.

Axloq normalari aniq ishlab shiqilib,uni ro'yobga shiqarish ushun darslarning ma'lum bir qismi ajratiladi. Axloqiy jihatdan aybdor bola ushun eng oliy jazo o'qituvshining o'quvshidan ixlosi qaytishi bo'lib,bu ixlosni qaytadan barpo qilish ushun o'quvshi va uning ota-onasi ansha- munsha ishlashi kerak.

Yapon o'qituvshisi o'quvshining eng yaqin maslakdoshi, maslahatguyi, murabbiysidir. O'qituvshi o'z o'quvshisi bilan hatto ta'til paytlarida ham aloqasini uzmaydi. Ta'lim tizimini sinshiklab o'rgangan kishi AQSh, Fransiya, Germaniya ta'lim tizimlaridagi barsha yaxshi va ibratli jihatlarni yaponlar ijodiy o'zlashtirganliklariga guvoh bo'ladi.Yaponiya o'rta maktablarining saviyasi AQSh o'rta maktablari saviyasidan bir-munsha yuqori turadi.

Oliy ta'lim

Oliy ta'lim doirasiga Yaponiyada dorilfununlarnigina kiritish mumkin. Dorilfununlarga katta o'rta maktablar yoki 12 yillik oddiy dasturda faoliyat ko'rsatuvshi maktablarning bitiruvshilari qabul qilinadilar.

Ma'lumotlarga ko'ra, bu mamlakatda 460 ta universitet bo'lib, ulardan 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munisipal, 331 tasi xususiydir. Ularda 1 million 843 ming talaba tahsil oladi. Talabalarning 77,4 foizi yigitlar, 22,6 foizi qizlardir. Aspiranturalarda tahsil olayotgan aspirantlarning bor yo'g'i 12,9 foizi ayollar bo'lib, ular asosan gumanitar fanlar, san'at, maorif va dorishunoslik sohasida izlanishlar olib boradilar.

Kishik kollejlarda esa ahvol buning tamoman aksi bo'lib, bu yerda erlar 10,1 foizni, ayollar 89,9 foizni tashkil etadi. umuman olganda, qishloq xo'jaligi muhandislikdan tashqari barsha fakultetlarda ayollar ham ta'lim oladilar.

Kafedralar tarkibiga asosan professor, dosent va o'qituvshi kiradi. kafedra 4 nafar yuqori kurs talabasini bakalavr dasturida, 4 nafarini magistr va 3 nafarini doktorantura dasturida tayyorlashga mas'uldir. Kafedralarga shu yo'sinda biriktirilgan talabalar xuddi ilmiy-tekshirish guruhlaridagidek faoliyat ko'rsatadilar.

Yapon dorilfununlariga kirish ushun ikki muhim bosqishdan o'tish lozim. birinshi bosqish abituriientlarning turar-joyida amalga oshirilib, ular yapon, eski yapon tili, matematika, fizika, ximiya, jamiyatshunoslik, tarix va boshqa fanlar bo'yisha test sinovlaridan o'tadilar. Test sinovi natijalariga ko'ra, ular qaysi dorilfununga munosibli

belgilab shiqiladi. Yuqori natijalarga erishgan abituriyentlar Tokio universitetiga, Kioto, Osako, Sapporo dorilfununlariga qabul imtihonlari topshirishlari ushun yo'llanmalar beriladi

Xususiy dorilfununlar esa qabul imtihonlarini. Kirish imtihonlari suhbat tarzida o'tkazilib, unda ko'rsatilgan fanlarni bilishdat tashqari tez fikrlash, topqirlik, zukkolik mahoratlari xam sinab ko'riladi.

Bir qator xususiy dorilfununlar o'z tarkibida maktabgasha tarbiya muassalariga ega. Unda tabilauvshilar ta'limning barsha bosqishlarini shu dorilfununning o'zida o'taydilar, pirovard natijada kirish imtixonisiz dorilfununga qabul qilinadilar.

Dorilfununlarda tahsil olayotgan talabalar o'rtasida kasb nisbati qo'yidagisha:

Jamyatshunoslik fanlari 40 foiz;

Texnik falar 20 foiz;

Gumanitar fanlar 14 foiz;

Pedagogik fanlar 8 foiz;

Qishloq xo'jalik, tibbiyot, tabiiy fanlar 3 foiz;

Yapon dorilfununlarida talabalar o'quv jarayonida 140-150 sinov birligi topshiradilar. Ularda baho mezoni – «a'lo», «yaxshi», «qoniqarli», «qoniqarsiz».

Yapon dorilfununlari asosan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydi. Shunga qaramay, Yaponiyada «Dorilfunun kishini bilim va kasbga yo'naltiradi xolos, uni takomillashtirish, mukammallashtirish kishining o'ziga bog'liq», deb hisoblaydilar.

O'rta maxsus va texnik hunar ta'limi

O'rta maxsus va texnik hunar ta'limi tizimiga kiruvshi bilim maskanlari Yaponiyada garshi oliy ta'lim tizimiga kiritilsa-da, u bizdagi hunar-texnika bilim yurtlariga to'g'ri keladi. Ular asosan kishik kollej, texnik kollej, maxsus tayyorgarlik kollejlari bo'linadi.

Kishik kollejlari o'z maqomiga ko'ra o'ziga xos dorilfunundir. Ularga kasbga yo'naltirish jarayoni juda shuqur va puxta. O'qish muddati 2-3 yil, bitirgash, «bakalavr» nomi berilmaydi.

1984 yilda Yaponiyada 336 ta shunday kishik maktab bo'lib, ularning 37 tasi davlat tasarrufida 51 tasi munisipal, 448 tasi xususiy kollejlardir.

Texnik kollejlarda 5 yil o'qiladi, unga kishik o'rta maktabni bitiganlar qabul qilinadilar. Ular o'rta texnik ta'limni beradilar. Bu bilim maskanida katta maktab dasturi asosida mexanika, elektronika, ximiya, texnologiya, qurilish, metallurgiya kabi maxsus texnik fanlar o'qitiladi. Kollejni bitirgan o'quvshilar dorilfununning 2-yoki 3-kursiga kirib o'qishlari mumkin.

Maxsus tayyorgarlik kolleji, 1976 yilda tashkil etilgan yalpi tipdagi o'quv yurtidir. U faqat yuqori malakali mutaxassis tayyorlabgina qolmay, balki madaniy saviyani o'stirishni ta'minlaydi. O'qish muddati 1 yil, kurs 800 soatdan iborat. Bu kollej bitiruvshilari dorilfununning tegishli kurslariga qabul qilinmaydilar.

Ilmiy faoliyat

Yaponiya yuksak ilmiy qudratga ega mamlakatdir. U dunyoda ta'limni rivojlantirishga mablag' sarf etishda AQShdan keyin ikkinshi o'rinda turadi. Mamlakatda ilmiy izlanishlarga xususiy sektorni ham qo'shib hisoblaganda, umumiy fanni rivojlantirishga ajratilgan mablag'ning beshdan to'rt qismi ajratilmoqda. Keyingi 10-15 yilda tabiatshunoslik va texnologiya sohasidagi oliy o'quv yurtlari rivojlantirildi, bunga ilmiy izlanishlarga mo'ljallangan mablag'ning qariyb 60 foizi sarf etildi.

Dorilfununlar qoshida ilmiy-tadqiqot markazlari tuzilib, unda olimlar mustaqil ilmiy tadqiqot markazlari tuzilib, unda olimlar mustaqil ilmiy-tadqiqot ishlari olib

boradilar. Mamlakatdagi 32 foiz ilmiy-tadqiqot ishlarini dorilfununlarning olimlari bajarmoqdalar.

Boshqaruv va moddiy ta'minot

Yaponiyada ta'limni xalq ta'limi, fan va madaniyat vazirligi markazlashgan holda boshqaradi. Uning boshqarish huquqi kafolatiga ta'lim, fan, madaniyat va diniy muassasalar, shuningdek, kosmik fazoni tadqiq qilish ham kiradi.

Ma'muriy jihatdan Yaponiyada 47 prefektura, 3262 munisipalitetga bo'linadi. Munisipalitetlar prefekturalar tarkibiga kirishiga qaramay boshqaruv ishida ma'lum mustaqilliklarga egadirlar.

Har bir prefektura va munisipalitet qoshida 5 kishidan iborat kengash bo'lib, bu kengash ta'lim masalalari ilan shug'ullanadi. Kengash a'zolarini tenghuquqli asosda prefektura gubernatori va munisipalitet boshlig'i tayinlandi. Bu tizim 1948 yilda joriy qilingan.

Munisipalitet majburiy ta'limni boshqaradi va uning taqdiri ushuni javob beradi. Prefektura esa katta o'rta maktab, nogironlar maktablari, nodir san'at, tabiat, tarix muzeylari va sport inshootlarini boshqaradi.

O'qituvshilar malakasini oshirishga, maktab, muzey, fuqarolar klubi, yoshlar markazi, qiroatxonalar ushuni pul mablag'larini mahalliy hokimiyat ajratadi.

Ta'limga ajratilgan jamoat fondi quyidagi tarkibga ega:

- mahalliy hokimiyat hissasi 47,3 foiz;
- prefektura hissasi 26,1 foiz;
- munisipal boshqarma hissasi 24,6 foiz;

Umuman, Yaponiya ta'limga o'z yalpi daromadining 8,6 foizini sarflaydi.

Oliy ma'lumotlilar. Bitiruvshilarning mutlaq ko'pchiligi xalq xo'jaligining turli sohalarida samarali mehnat qiladilar. Oliy ma'lumotli mutaxassislar soni jihatidan Yaponiya jahonda ikkinshi o'rinda turadi: ming ishshiga 190 oliy ma'lumotli mutaxassis to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkish AQSh da har ming kishiga 294, Buyuk Britaniyada 138, Fransiyada 115 nafardir.

Bitiruvshilarga eng yuqori haq to'lanadi. Erkaklarga nisbatan ayollar bajarilgan bir xil ish ushuni 10 foiz kam haq oladilar.

Muammolar va rejalar. Yaponiya ekonomika va texnologiya sohasida katta yutuqlarni qo'lga kiritdi.

Bunga sabab aholi bilim darajasining yuqoriligidir. Yaponiya ta'limining asosiy maqsadi va mazmuni aholini zamonaviy texnik va texnologik jarayonlar bilan jihozlangan hozirgi zamon sanoatida samarali ishlashga moslashtirishdir. Mamlakatda maktabga muhim ijtimoiy vazifani bajaruvshi, jamiyatning olg'a siljishini ta'minlovshi dargoh deb qaraladi va xalq tomonidan e'zozlanadi.

Yapon ta'limi muammolaridan biri yuqori baho ushuni kurashdir. Lekin bu intilish hamisha ham oqilona hal bo'lavermaydi. Shunki yuqori toifali oliy o'quv yurtlariga faqat badavlat oilalarning bolalarigina kiritiladi. 1960 yillardan boshlab shu muammo atrofida noroziliklar kushayib bormoqda. Fuqarolar xususiy bilim maskanlarini kengaytirib, davlat tasarrufidagi o'quv yurtlarini ko'paytirishni talab qilmoqdalar.

1984 yilda Yaponiya hukumati ta'lining muvaqqat qo'mitasini tuzdi. Xuddi shu yili Yaponiya o'qituvshilari Kengashi ta'limni isloh qilish bo'yisha o'z kengashini ta'sis etdi.

Isloh loyihasida quyidagilar bor:

- tinchlik va xalqaro birdamlik;
- inson huquqlari va ijtimoiy tenglik;

- bilim olishga umrbod huquqiy kafolat;
- ta'limda mustaqillik, o'zaro tajriba almashish, muloqot;
- islohotni amalga oshirishda xalqning keng ishtirokini ta'minlash.

Bu kengash tarafdorlarining fikrisha, bilim olish majburiy emas, huquqiy bo'lishi, bilim olish intiluvshilar birikishlari, uning taraqqiyoti ushuni kurashuvshilar kerak. Har holda, yapon ta'limi konsepsiyasida yaqin kelajakda o'zgarishlar bo'lishi ham ko'zda tutilmoqda.

Yaponiya talimi tizimidagi:

- bolani maktabga puxta tayyorlash;
- bolalar ta'lim tarbiyasiga ota-onalar mas'uliyatini kushaytirish;
- o'quvshilarning nafosat va jismoniy tarbiyasiga katta e'tibor;
- o'qituvshi kadrlarga yuksak talabshilik;
- yosh iqtidorlar bilan alohida ishlash kabilar boshqalar ushuni ham namuna olsa

arzugulik tomonlardir.

Mavzu yuzasidan topshiriq

Yaponiyaning oliy ta'lim tizimidagi sizga ma'qul bo'lgan jihatlarni gapirib berishga tayyorlaning.

Mavzu: Koreya va Xitoyda ta'lim-tarbiya jarayonlari.

Reja:

1. Koreya ta'limining xususiyatlari
2. Oliy ta'lim va uning darajalari
3. Xitoyda boshlang'ich va o'rta ta'lim.
4. Kasbiy ta'lim. Oliy ta'lim va undan keyingi o'qish.

Xitoy maktablarining tarixi juda qadimiy davrlarga borib taqaladi. Xitoyda dastlabki maktablar eramizdan ancha ilgari vujudga kelgan. Qadimgi xitoy faylasufi va pedagogi eramizdan avvalgi V-IV asrlarda yashagan Konfutsiy qator ajoyib pedagogik g'oyalarni olg'a surgan va xususiy uqitishga asos solgan.

1949 yilda xalq inqilobi g'alaba qozonganidan sung Xitoyda savodsizlikni tugatish va maktab ta'limini rivojlantirish borasida keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi. Xalq ta'limini isloh qilishdagi qarorda bolalar va usmirlar uchun ham, kattalar uchun ham boshlang'ich hamda urta maktablar tarmog'ini yaratish kuzda tutilgan edi. Islohotga muvofiq uqish muddati boshlang'ich maktabda 5 yil, urta maktabda 6 (3-3) yil qilib belgilandi. Ta'lim sohasida 1958 yildagi uzgartirishlar yaxshi natija bermadi.

XKP MK ning 1985 yil 27 mayda qabul qilgan "Ta'lim tizimini isloh qilish to'g'risida" gi qarori hozirgi bosqichda XXR ta'limini rivojlantirishning muhim omili buldi. 1986 yilda qabul qilingan majburiy ta'lim to'g'risidagi Qonunga kura majburiy ta'limning muddati boshlang'ich va tuliqsiz urta maktabda 9 yil, tuliq urta maktabda 3 yil qilib belgilandi.

Xitoy maktablarida ta'lim putunxua tilida olib boriladi. U xitoy tilining pekin shevasiga asoslangan. Xitoydagi bolalarning bir qismi boshlang'ich maktabga kirishdan oldin bolalar bog'chalarida tayyorlanadilar. Xitoyda sunggi 20 yil mobaynida har qaysi oila bittadan bolaga ega bulishi siyosati yurgizilishi sababli uquvchilar soni ancha kamaydi.

Boshlang'ich maktab uquv rejasiga 9 ta predmet: axloqiy tarbiya, ona tili, arifmetika, jamiyat (tarix, geografiya) tabiatshunoslik, jismoniy tarbiya, ashula va musiqa, badiiy tarbiya, mehnat ta'limi kiritilgan. Ana shu asosiy uquv predmetlaridan

tashqari, haftada 6-8 soat faoliyatning har xil turlariga: mustaqil tayyorlanishga (1-2 soat), sinf majlislari utkazishga 1 soat, sport uyinlariga (2-3 soat), qiziqishlar buyicha mashg'ulotlarga (2 soat) ajratiladi.

Xitoyda oliy ta'lim jarayonida talabalar uchun ibratli shart-sharoitlar yaratilgan. Avvalo universitetlar kontingentiga mamlakatning demografik holati uz ta'sirini kursatgan. Masalan: birgina Shanxay universitetining uzida 26 fakultet bulib, 33 000 talaba bakalavriat va magistraturada uqiyl. Kupchilik professor-uqituvchilar AQSH da malaka oshirib kelishadi. Hozirgi kunda universitetda "Zamonaviy kommunikatsion va axborot texnologiyalari", "Raqamli tizimlar xavfsizligi", "Kompyuter grafikasi va WEB dizayn" kabi fanlar uqitilmoqda. Oliy ta'lim tizimida uqitishning kredit tizimi joriy etilgan. Bu omil talabalarining mashg'ulotlarga qatnashishi, mustaqil ishlashi va ilmiy izlanishga jalb etilishiga ijobiy ta'sir etgan.

Uqitishning kredit tizimida bakalavr diplomiga ega bulish uchun jami 311 kredit yig'ishi kerak. Har bir kredit 10 soat ma'ruza darslari davomida tuplanadi. Amaliy darslardan 20 soat mashg'ulotda 1 kredit tuplanadi. Talabalar uqishni 4 yilda tugatishi shart emas. Lekin 8 yildan ortiq uqish ham mumkin emas. Agar talabalar kreditlarning 80 % ini tuplasa, bakalavr diplomiga ega buladi.

Davomatga alohida e'tibor beriladi, agar talaba 1 fan buyicha mashg'ulotlarning 3/1 qismini qoldirsa (agar kasallik varaqasi bulsa ham), uz-uzidan imtihonga kiritilmaydi va shu fan buyicha kreditni bajara olmaydi. Natijada talaba oliy uquv yurtidan ketadi va kelgusi uquv yilida shu fanni uqishga va kredit tuplashga majbur buladi.

Talabalarga fanlarni tanlab urganish uchun katta imtiyozlar berilgan. Masalan: fizika fakultetining talabasi matematika va mexanika fakultetlaridan uzini qiziqtirgan fanlarini tanlab uqishi mumkin. Universitetlar ilmiy tekshirish muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari bilan mustahkam aloqaga ega. Universitetlarga ixtisosliklar buyicha kichik ishlab chiqarish korxonalari mavjud. Amaliy mashg'ulotlar bevosita ana shu korxonalarda olib boriladi. Talaba bironta sxema, loyiha yoki detalni uz quli bilan yasab kursatishi kerak. Laboratoriya mashg'ulotida tayyorlangan mahsulot umumiy texnikaviy nazoratdan utgach, uquv topshirig'i bajarilgan hisoblanadi. Oxirgi kurslarda ishlab chiqarish korxonlaridan, muassasalardan vakillar kelib, suhbat asosida bulajak mutaxassis – talabani tanlab oladi va oliy ta'lim muassasasiga shartnoma asosida pul utkazadi. Bunday omil imkon qadar talabalarining uzi egallayotgan ixtisoslikning malakali sohibi bulishiga undaydi.

Xitoyda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim.

Xitoyda maktabgacha ta'lim bolalar bog'chalari va maktabacha ta'lim muassasalari hisoblanadi va 3-6 yoshli bolalar qabul qilinadi. Maktabgacha ta'limining maqsadi bolani maktabga o'qishiga tayyorlashdan iborat bog'chasi mavjud bo'lib, ular davlat va xususiy muassasalarga bo'lingan. Hozirgi kunda hususiy bog'chalar soni jami bolalar bog'chalarining 30 %ini tashkil etadi.

Maktabgacha ta'lim Xitoyda jamiyatning birgalikdagi say-harakatlari natijasida amalga oshiriladi. Davlat mavjud qonunlar asosida bolalar bog'chalarini ochishga xohishi bo'lgan tashkilotlar, nodavlat-notijorat muassasalar, hamda alohida shaxslarni qo'llab-quvvatlaydi.

Xitoy maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanish bosqichlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ikkinchi jahon urushiga qadar Xitoyda bolalar bog'chasi juda kam edi. Bori ham hususiy muassasalar bo'lib, unga boy oilalarning bolalari enagalari bilan kelishardi. Urushdan keyingi yillarda XXRning maktabgacha ta'lim tarixi davlatlarining asosiy rivojlanishiga mos holda 4 bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchisi: 1949 – 1957 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davlat tizimining sobiq Ittifoq tizimiga orientatsiyalangan davri edi. Bu davrda sobiq Ittifoq mutaxassislari Xitoy mamlakatida bir necha tajriba bolalar bog'chalarini tashkil qildilar. Shundan keyin bolalar bog'chalari soni keskin ortdi. Bu bog'chalarning asosiy tamoyili "Pavlov yondashuvi" deb nomlanib, refleksologiya asoslarini ishlab chiqqan rus olimi I.P.Pavlov nomiga qo'yilgan edi. Pedagogikada "Pavlov yondashuvi" quyidagicha talqin qilinardi: "Bolani rag'batlantirib, tergap to'g'ri tarbiyalasa, unda barcha yaxshi xislatlar va qobiliyatlarini shakllantirish mumkin"

Ikkinchisi: 1958-1965 yillarni o'z ichiga oladi. Bu yillarda bolalar bog'chalari soni keskin ortdi, lekin ular uchun joy, moddiy ta'minot va mutaxassislar yetishmas edi. Natijada maktabgacha ta'lim sifati nisbatan pasayib ketdi.

Uchinchisi: 1966-1976 yillarni o'z ichiga oladi. Bu yillar "Xitoy" madaniy revolyutsiyasi yillari deb ataldi, ziyolilar, beklarni ommaviy qatag'on qilinishi ham shu yillarga to'g'ri keladi. Xitoy ta'lim tizimida ilmsiz, kasbiy nолоyiq kimsalar ko'paydi, natijada maktabgacha ta'lim tizimi juda nochor holga kelib qoldi. Bolalar bog'chasida hayot qattiq g'oyaviy ko'rsatmalar asosida tashkil qilinardi: bolalarga revolyutsion va militaristik g'oyalar singdirilardi, Maoning asarlari va she'rlaridan parchalar yodlatishardi.

To'rtinchisi: 1980-yillardan boshlab, Xitoy iqtisodiyotining o'zgarishiga ko'ra bolalar bog'chalarida ham ma'lum o'zgarishlar yuz berdi. Xitoy pedagoglari Amerika va Yapon maktabgacha ta'lim tarbiyasi bilan qiziq boshladilar. Lekin bog'chalarda hanuzgacha tarbiyaga avvalgiday yondashuv mavjud.

Xitoyda bolalar bog'chasi katta bo'lib, o'rtacha 270 bola va 60 ta tarbiyachilar jamoasidan iborat. Guruhda 26 ta bola bo'lib, ularning bir qismi bog'chada kunduzgi soat 8:00 dan 18:00 gacha bo'ladilar va kechqurun uyga ketadilar. Bir qismi (5%) kechasi ham qoladilar. Chorshanba va shanba kunlari uyga ketadilar. Bog'chaga qabul soat 7:45 da boshlanadi.

Ma'lumki, Xitoy aholisi juda ko'p davlat. Shu bois ham Xitoy davlati tug'ulishni rejalashtirish sohasida qat'iy siyosat olib boradi. Har bir oila bittadan ortiq bola ko'rmasligi kerak. Oilada bola sonining chegaralanganligi ota-onaning bolaga munosabatida o'z ifodasini topadi. Xitoy oilasida bittayu-bitta bolasini erkalatadi, yaxshi ta'lim berishga harakat qiladi. Bolalar bog'chasida qat'iy tartib va intizom o'rnatiladi, bolalar erkaliklari ta'qiqlanadi. Tarbiyachilar bolalarning shaxsiy hususiyatini yaxshi biladilar, lekin bu hususiyatlari tug'ma deb hisoblamaydilar. Yomon intizom ilk ko'rinishidayoq bartaraf etiladi, agar bola o'zini yomon tutsa, tarbiyachi uning yoniga kelib, bu holatini sezganini bildiradi, lekin gapirmaydi.

Bola o'z aybini tushungachgina tarbiyachi uning nomini aytib chaqiradi. Urish, xonadan haydab chiqarish, umuman jazolash man etiladi. Intizomni yaxshi ushlab turishning samarali yo'li bu – taqqoslash va rag'batdir. Tarbiyachilar bolalarga quyidagi savollarni beradilar:

- Shunday qilsa to'g'ri bo'ladimi?
- Nega noto'g'ri deb hisoblaysiz?
- To'g'ri bo'lishi uchun nima qilish kerak?
- Kim to'g'ri qildi?

Bolalar diqqat bilan eshitadilar va to'g'ri hayotiy misollarni eslab qoladilar. Har bir tartibsizlikka tanbeh beriladi, aks holda bola bu tarbiyasizlikni to'g'ri hisoblab, o'ziga singdirib olishi mumkin deb hisoblanadi.

Buyuk Xitoy filosofi Konfutsiy “Bolalar to’g’ri intizomli bo’lib tug’ilmaydilar: ularning harakterlari tajribada shakllanadi, ustoz esa to’g’ri tarbiyaga mas’uldir. Tarbiyachilar o’ta bosiq, qat’iyatli bo’lishlari lozim”, - deb ta’kidlagan.

Xitoy maktabgacha ta’lim tizimini qattiqqo’lligi uchun tanqid qilishadi. Tarbiyachilar bolalarning tartibini nazorat qiladi va chegaralaydi. Bolalar mashg’ulotlarda nafaol, kattalar fikriga mutlaq qo’shiladilar. Lekin ota-onalar tarbiyachilarni o’z kasbining ustalari deb bilishadi, farzandlarini tarbiyachisiga to’liq ishonishadi.

Xitoy bolalaridagi qat’iylik va mehnatsevarlik an’anaviy fazilatlariga aylangan.

Boshlang’ich ta’lim.

Xitoyda har bir 6 yoshga to’lgan bola boshlang’ich ta’limni umumta’lim maktablarida oladi. Boshlang’ich ta’limda o’qish 6 yil davom etadi va keyingi ta’lim bosqichlari uchun mustahkam asos qo’yiladi. Boshlang’ich ta’limda o’qitiladigan asosiy fanlar sirasiga axloqiy tarbiya, xitoy tili, adabiyoti, siyosat, matematika, tabiiyot fanlari, jismoniy tarbiya, fizika, ximiya, biologiya, tabiatshunoslik, san’at, mehnat, 3-sinfdan boshlab chet tili kabi fanlar kiradi.

Boshlang’ich ta’limda o’quvchilarga vatanga, xalqqa, mehnatga, ilm-fan va o’zlarida mavjud bo’lgan sotsialistik tuzumga mehr-muhabbat tuyg’usi singdiriladi. O’qish, yozish, hisoblash, tabiat va jamiyat haqidagi boshlang’ich bilimlar beriladi, mustahkam o’quv malakalari hosil qilinadi, o’quvchilarning jismoniy va aqliy rivojlanishiga katta e’tibor beriladi. Fanlar ichida ona tili va matematikaga alohida urg’u beriladi.

Shuningdek, o’quvchilar 4-sinfdan boshlab, 1 yilda 2 hafta ferma va ustaxonalarda ishlaydilar, hamda haftaning 1 kuni albatta sinfdan tashqari tadbir va jamoat ishlarida qatnashadilar.

2007 yilgi statistik ma’lumotlarga ko’ra Xitoyda 400 ming boshlang’ich maktab mavjud bo’lib, unda 120 milliondan ortiq o’quvchilar boshlang’ich ta’lim olmoqda. Bu 99,52%ni tashkil etadi.

XXRning “Majburiy ta’lim haqidagi Qonun”iga ko’ra ta’lim bepul, faqat o’quv darsliklari, daftar va o’quv qurollari uchun haq olinadi, xolos. Bepul ta’lim hisoblangan boshlang’ich ta’lim muassasalari davlat tasarrufida bo’lib, o’quvchilar yashash manziliga ko’ra qabul qilinadi.

O’rta va kasbiy ta’lim

Xitoyda o’rta ta’lim to’liqsiz va to’liq (katta) maktab bosqichlaridan iborat. O’quvchilar 12-13 yoshga to’lgach, to’liqsiz o’rta maktabda, ya’ni o’rta maktabning birinchi bosqichida o’qiy boshlaydilar. O’qish uch yil davom etadi. Birinchi bosqichda o’qitiladigan asosiy fanlar sirasiga ona-tili, matematika, chet tili, informatika, ma’naviyat, etika, fizika, ximiya, siyosiy savodxonlik, geografiya kabi fanlar kiradi. To’qqizinchi sinf -Xitoydagi majburiy ta’limning oxirgi bosqichidir. 2007 yilgi statistik ma’lumotlarga qaraganda o’rta maktabning birinchi bosqichiga 98% bolalar qabul qilinadilar.

O’rta maktabning ikkinchi bosqichi **to’liq o’rta maktab (katta maktab)** hisoblanadi. Bu bosqichga qabul qilingan o’quvchilar 15-16 yoshda bo’ladilar. Ikkinchi bosqich o’rta maktablarida va oliy o’quv yurtlarida o’qish Xitoy fuqarolari uchun majburiy emas. Bu bosqichda to’liq o’rta ta’lim beriladi va o’quvchilar oliy ta’limda o’qishni davom ettirish imkoniga ega bo’ladilar. To’liq o’rta maktabni bitirgan o’quvchilar bitiruv imtihoni topshiradilar, imtihon natijalariga ko’ra u yoki bu universitetga kirish imkoni belgilanadi.

Xitoydagi umumta'lim o'rta maktablarining vazifasi – yaxshi ishchini, yoki oliy o'quv yurtiga kirishi uchun yaxshi tayyorlangan abituriyentni shakllantirishdir.

Kasbiy ta'lim.

O'rta kasbiy – texnik ta'lim umumiy ta'limga alternativ hisoblanadi. 1996 yil qabul qilingan XXRning “Kasbiy ta'lim haqidagi Qonuni”da kasbiy ta'limning ahamiyati, tuzilishi, asosiy vazifalari, boshqaruv tizimi va moliyaviy manbaalari aniq ko'rsatilgan. Ushbu hujjatning qabul qilinishi Xitoyda kasbiy ta'limning huquqiy asosiga egaligini ko'rsatadi. Kasbiy ta'lim tizimiga oliy va o'rta kasbiy maktablar, o'rta texnikumlar, kasbga yo'naltirilgan o'rta maktablar, kasbiy tayyorgarlik markazlari, kattalar uchun texnik tayyorlash maktablari, kasbiy texnika bilim yurtlari, tayyorlov markazlari, jamoatchilik kurslari kiradi. O'qish muddati 2dan 4 yilgacha, ba'zi mutaxassislar (masalan tibbiyot) 5 yilgacha davom etadi. O'rganiladigan fanlar tanlangan mutaxassislikka to'liq mos keladi. O'qish tugagach, bitiruvchilar tanlangan kasbiga ko'ra taqsimot bo'yicha ish bilan ta'minlanadilar. Kasbiy ta'lim rivojlanish sur'atini tezlashtirishi uchun g'arbiy rayonlarning kambag'al uezdlarida davlat mablag'i asosida 186 ta kasbiy tayyorgarlik markazlari yaratilgan.

XXRdagi o'rta maktabning ikkinchi bosqichiga yana bir nazar tashlaydigan bo'lsak, uning quyidagi turlarini ko'rishimiz mumkin:

1. Oddiy o'rta maktab;
2. Kattalar uchun o'rta maktab;
3. O'rta maxsus o'quv muassasasi;
4. Kasbiy maktablar;
5. Texnikumlar;
6. Kattalar uchun o'rta maxsus o'quv muassasasi.

Oddiy to'liq o'rta maktabga 15-16 yoshlilar qabul qilinadi va 3 yil davom etadi. O'rta kasbiy bilim yurti 2 ta bosqichga bo'linadi: to'liqsiz o'rta maktab 15-16 yoshli o'quvchilardan iborat bo'lgan bilim yurtlari uchun o'qish muddati 4 yil, ba'zi bilim yurtida 3 yil. To'liq o'rta maktabning 22 yoshli o'quvchilaridan iborat bilim yurtlari uchun o'qish muddati 2 yil. To'liqsiz o'rta maktab bitiruvchilari kasbni 3-4 yilda o'rganadilar. Texnik bilim yurtlarida o'qish muddati 3 yil.

Umumta'lim o'rta maktablarining vazifasi bo'lajak ishchilarni tayyorlash hamda oliy o'quv yurtlariga kirish uchun abituriyentlarni tayyorlashdan iborat. O'rta maktab dasturlari o'quvchilarga ta'lim berish bilan birga axloqiy, aqliy, jismoniy, estetik tarbiyalashga qaratilgan. Ko'p maktablarda kasbiy ta'lim kurslari mavjud.

O'rta kasbiy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlar moliya, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, texnika, turizm kabi tanlangan mutaxassislikka bog'liq.

Bu kasblar bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilar kasbiga ko'ra turli muassasalarga ishga taqsimlanadilar.

2007 yil statistik ma'lumotlarga ko'ra o'rta maktabning ikkinchi bosqichiga 66 % bolalar qabul qilinadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, **kasbiy – texnik yo'nalish** bir necha bosqichli o'quv muassasalaridan iborat: maxsus texnik, texnik, kasbiy va qishloq xo'jalik maktablari. Maxsus texnik maktablarda o'qish muddati 4 yil. Kasbiy va qishloq xo'jalik maktablarida o'qish 3 yil bo'lib, ular kamroq e'tiborga loyiq.

O'qish sentabrda boshlanadi va 9,5 oy davom etadi, 2 ta semestrda iborat. Ta'til kunlari yanvardan fevralgacha, iyundan avgustgacha davom etadi. Mashg'ulotlar haftada 5 kun ertalabdan tungacha bo'ladi.

O'rta maktabning akademik yo'nalishi bo'yicha o'qish davomida turli turdagi imtihonlar, yakunida – bitiruv imtihonlari topshiriladi.

Maktab ta'limi haqida attestat olish uchun xitoy tili, matematika, chet tili, fizika, ximiya, siyosatshunoslik, tarix, geografiya, informatika, biologiya fanlaridan imtixonlar topshiradilar.

Yagona bitiruv maktab imtixonini (Rossiya EGEsiga o'xshagan) butun davlat bo'yicha may oyida o'tkaziladi. Bitiruvchilar bilimlarini baholash 100 balli tizim asosida baholanadi.

Oliy ta'limning muhim qismi bo'lgan va yuqori bosqichdagi o'rta ta'lim bazasida amalga oshirilayotgan kasbiy oliy ta'lim hozircha rivojlanishning boshlang'ich bosqichida turibdi. U 87 ta kasbiy-texnik institutlarda, qisqa muddatli kasbiy universitetlarda, maxsus texnikumlarda, qayta qurishni amalga oshirayotgan o'nlab oliy maxsus o'quv yurtlarida, kattalar uchun 188 mutaxassislik bo'yicha 133 ta oliy o'quv yurtlarida taxsil oladilar. Undan tashqari 18 ta o'rta texnikumda oliy kasbiy ta'lim guruhlarini kiritilgan. Bu oliy kasbiy o'quv muassasalari amaliy va texnologik sohadagi malakali texnik ishchilarni tayyorlaydi. Kasbiy ta'limni rivojlantirish dasturiga ko'ra Xitoy yaqin kunlarda oliy kasbiy ta'lim tizimini isloh qilishni tezlashtiradi, oliy kasbiy maktablarni tartibga soladi.

Hozirgi kunda Xitoyda 3026 ta o'rta kasbiy maktab mavjud. Kasbga yo'naltirilgan to'liq o'rta maktab 1980 yillarning boshida tiklangan va milliy iqtisodiyotni ko'tarish talablariga javob berib rivojlana bordi. Hozir 8500 ta shunday maktablarda 4 mln. kishi o'qiydi.

Hozirgi kunda 17 ming kasbiy o'quv yurtlari, 2090 kasbiy tayyorgarlik markazlari, 400dan ortiq malaka oshirish markazlari, kattalar uchun texnik tayyorgarlik kurslari mavjud. Har yili 10 millionlab kishilar bu yerda tahsil oladilar. Bu Xitoyda asosan yuqori, o'rta, boshlang'ich bosqichlardan iborat bo'lgan kasbiy ta'lim tizimi shakllanganligini bildiradi.

OLIY TA'LIM

Xitoyda oliy ta'lim tizimi o'z ichiga universitet, kollej va oliy kasbiy maktablarni oladi, hamda o'zining nufuziga ko'ra bir necha ierarxik kategoriyalarga bo'linadi. Maktab bitiruv imtixonlarida olingan ballarga ko'ra bitiruvchilar oliy o'quv yurtlarining yuqori yoki quyi toifalariga nomzod bo'la oladilar. Xitoy universitetlariga kirish qat'iy raqobat sharoitida o'tadi: ba'zi universitetlarda bitta o'ringa 200-300 kishi to'g'ri keladi. Xitoyda, xuddi G'arb davlatlaridagi kabi uch bosqichli standart tayyorlov bosqichi mavjud. Bular: bakalvriat – o'qish muddati 4-5 yil. Bu bosqichni tugatganlar “Bakalavr” maqomi bilan tugallangan oliy ta'lim oladilar. Magistratura – o'qish muddati 2-3 yil. Doktorantura – o'qish muddati 2-3 yil, ba'zan 4 yil.

Oliy o'quv yurtlarining asosiy vazifalari yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, fan, texnika va madaniyatni rivojlantirishdir. Hozirgi paytda davlat “Dastur - 2011”ni amalga oshirishga katta yordam bermoqda. Bunga ko'ra 100 ta muhim oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan zarur fanlar va mutahassisliklar qatorida o'qituvchilik, ilmiy-tadqiqot, boshqaruv va xo'jalik faoliyatlari eng yuqori darajasiga chiqishi kerak.

Keyingi yillarda iqtisodning modernizatsiyalash talablarini to'liq qondirish maqsadida o'quv mutaxassisliklari ro'yxati qayta ko'rib chiqildi; moliya va iqtisodiyot, siyosat va huquqiy fanlar, iqtisodiyot boshqaruvi, mashinasozlik, arxitektura, elektronika, EHM, yengil oziq-ovqat va to'qimachilik sanoatiga urg'u berildi.

Xitoyda 2 ming OO'YUllari mavjud. Birinchisi Pekinda joylashgan Tsinghua universiteti kabi politexnik universitetlar, ikkinchisi Xefey shahridagi Ilmiy-texnika

universiteti kabi oliy o'quv yurtlaridir. Bularga ko'plab texnik va tabiiy fakultetlardan iborat oliy o'quv yurtlari, hamda tor bitta soha texnik institutlari kiradi.

Umumiy sohalaridagi universitetlar 2 ta yo'nalishdagi fakultetlarga ega: gumanitar va aniq. Gumanitar fakultetlar til, adabiyot, tarix, falsafa, iqtisodiyot, huquqshunoslik va boshqa fanlarga asoslangan. Aniq fanlar yo'nalishi: matematika, fizika, ximiya, biologiya, geografiya, geologiya, radioelektronika va boshqa fanlarga asoslangan. Umumsoha universitetlariga Pekin, Nankay (Tyan'zin shahri) va Fiden' (Shanxay shahri) universitetlari misol bo'la oladi. Davlat oliy o'quv yurtlariga qabul yagona reja asosida amalga oshiriladi. 2007 yilgi statistika ma'lumotlariga ko'ra oliy o'quv yurtlariga aholining 23 % topshiradi. Davlat bitiruvchilariga yagona reja asosida ish beriladi. Umumsoha oliy o'quv yurtlarida o'qish muddati 4 yil. Ba'zi sohalar, jumladan, tabiiy fanlar, texnik, tibbiyot bo'yicha – 5 yil. Tor sohali oliy o'quv yurtlarida o'qish qisqa muddatli bo'lib, 2-3 yilni tashkil etadi. Bitiruvchilarga bakalavr darajasi beriladi. Aspirantlarni tayyorlash 2 qismga bo'linadi: magistr ilmiy darajali mutaxassis va fan doktori ilmiy darajali mutaxassis.

I kategoriyadagi aspirantlar yoshi 40dan oshmaydi, o'qish 2-3 yil davom etadi. Ikkinchisi – 45 yoshdan oshmaydi, o'qish muddati 3 yil.

Xitoyda oliy ma'lumotga ega bo'lish juda ham obro'li sanaladi. Milliy kadrlar tizimi orasida ta'lim eng yetakchi o'rinni egallaydi. Oliy ta'lim olishga akademik profildagi o'rta maktab bitiruvchilari va maxsus texnik maktab bitiruvchilari haqli. Maktab bitiruv imtixonida to'plangan ball natijalariga ko'ra oliy ta'limga kirish imtixonlariga kiritiladi.

Oliy o'quv yurtlariga kirish uchun abituriyent 7 ta fan bo'yicha maxsus imtixon topshiradi.

Xitoyda pulli oliy ta'lim muassasalari ko'p, lekin shartnoma asosida o'qishga kirish ham juda qiyin. Iqtidorli yoshlar uchun tekin o'qish imkoniyati bor. Undan tashqari, ba'zi fanlarda talaba ishlagan muassasa o'qish uchun pul to'laydi. Iqtidorli talabalar davlat stipendiyasi yoki tashkilot va muassasa subsidiyalari ko'rinishidagi imtiyozlarga ega.

Hozir barcha talabalar bir hil tartibda o'qishga qabul qilinadilar va o'qishga pul to'laydilar. Moliyaviy qiyinchilikni boshidan kechirayotgan talabalarga bank krediti ajratilib, stipendiya beriladi.

Faqat 1998 yilning o'zida 8957 ta tadqiqotchiga doktor ilmiy darajasi berildi, 38051 ta kishi magistr bo'ldi.

Xitoy o'z Oliy o'quv yurtlariga chet ellik talabalarni qabul qiladi, o'z talabalarini chet elga o'qishga va malaka oshirishga jo'natadi. Birgina 1998 yil Xitoy 164 ta davlatdan 43084 talabani o'qishga qabul qildi. Xitoydan chet elga o'qishga ketgan talabalar soni 23 mlnni tashkil etdi. Xitoy Oliy o'quv yurtlari 3/2 qismi davlat tasarrufida, qolgan 1 qismi xususiy bo'lib, hozirgi kunda 3 mingta Oliy o'quv yurtlarida 20 million talaba tahsil olayti.

MAXSUS TA'LIM

Xitoyda maxsus ta'limga katta ahamiyat beriladi. Nogironlar ta'lim olish huquqini kafolatlovchi qonun va ko'rsatmalar qabul qilingan. Hozirgi kunda 1655 ta maxsus ta'lim o'quv muassasasida 365 mingdan ortiq kishi tahsil oladi.

Masofaviy ta'lim.

Hozirgi kunda Xitoyda onlayn universitetlar ko'p. Oliy ma'lumotni masofaviy ta'lim orqali, uydan chiqmay o'tirib ham olish mumkin. Masofaviy ta'lim sekin-asta keng rivojlanib bormoqda. Masofaviy ta'limdan uzoq rayonlarda yashovchi talabalar eng katta

foйда ko'radilar. Kirish imtixonlaridan yiqilgan talabalar ham ta'lim va kasbiy tayyorgarlik oladilar.

Kattalar uchun ta'lim

Xitoy Xalq Respublikasining ilk tashkil topgan yillari savodsizlar soni aholining 80%ini tashkil etgan paytlarda, xalq hukumati “savodxonlikka o'rganish, savodsizlikni yo'q qilish”ga chorladi. Shundan beri kattalar uchun ta'lim keng yoyildi.

Kattalar uchun ta'lim madaniy bilimlarni ish bilan band bo'lgan kishilar orasida ommalashtirish, ishsizlarni kasbiy tayyorlash, savodsizlikni bartaraf etish, ma'lum bilimga (jumladan oliy) ega, lekin uzoq davom etuvchi ta'lim yoki bilimlarni to'ldirish uchun joriy etilgan.

Kattalar uchun ta'lim tizimiga radio – va teleuniversitetlar, ishchilar, hodimlar va dehqonlar uchun oliy o'quv yurtlari, boshqaruv kadrlari uchun institutlar, pedagoglar uchun institutlar, sirtqi institutlar, oliy o'quv yurtlari qoshida kattalar uchun ta'lim kurslari (masalan, sirtqi, kechki kurslar, o'qituvchilarni qayta tayyorlash kursi), masofaviy ta'lim kursi va boshqalar; ishchilar va hizmatchilar uchun o'rta maxsus kurslar, kattalar uchun o'rta maktab va texnik tayyorgarlik o'rta maktablari, kattalar uchun o'rta maxsus maktablar yoki o'rta umumta'lim maktablari qoshida dehqonlar uchun madaniy – texnik maktablar, dehqonlar uchun radiotelemaktablar va h.k.

Kattalar uchun ta'lim tizimi quyidagi shakllarda amalga oshadi; to'liq o'quv kuni bilan auditoriya ta'limi, audio-vizual o'quv qo'llanma ta'limoti bilan sirtqi ta'lim, ishlab chiqarishdan qisman yoki to'liq ajralgan holdagi ta'lim, kechki ta'lim va h.k.

Kattalar uchun ta'lim maqsadiga ko'ra 2 ta toifaga bo'linadi: ta'lim olganligi haqida attestat berish yoki bermaslik. Birinchi toifaga to'liq muddatli oliy o'quv yurtlari kursi, ta'limning qisqa muddatli kursi, o'rta maxsus va o'rta umumta'lim. Ikkinchi toifaga savodsizlikni bartaraf qilish kurslari, amaliy texnologiyalarni qishloqlarda yoyish bo'yicha alohida fanlarni o'qitish kurslari, oliy ta'limdan keyingi kurslar.


Oliy ta'lim barqaror rivojlanmoqda. 2003 yil oxirida Xitoyda 19 million talaba tahsil oldi. Aholini oliy ta'lim bo'yicha qamrab olish koeffitsienti 17 %ni tashkil etadi. Xalqaro tan olingan standartlarga ko'ra Xitoy ommaviy ta'lim bosqichiga o'tdi. 2003 yil 23 iyunda YUNESKOning “dunyoda oliy ta'lim sohasidagi holati haqida”gi ma'ruzasida ko'rsatilishicha, Xitoy oliy o'quv yurtlarida ta'lim oluvchilar soni juda qisqa muddat ichida 2 martagacha oshdi, oliy ta'lim ko'lami bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turibdi.

Ko'p yillar davomida oliy o'quv yurtlariga qabul kengaymoqda. 1999 – 2002 yil oliy o'quv yurtlariga kirgan talabalar soni 3,2 millionga yetdi. 2003 yil 3,82 million talaba qabul qilinib, o'tgan yilgidan 620 ming talabaga ko'paydi. Oliy o'quv yurtlari aspiranturasi va tadqiqot institutlariga 269 ming tadqiqotchi qabul qilinib, 2003 yilga nisbatan 66 ming tadqiqotchiga ko'paydi. 2004 yil davlat rejasiga ko'ra 230 ming tadqiqotchi qabul qilish kutilmoqda. Bu esa 2003 yil nisbatan 22,7 % ga ko'proq.

O'ZBEKISTON – Xitoy ta'lim tizimining qiyosiy tahlili

Aholining keng qatlami ta'lim olish huquqiga 1949 yildan keyin ega bo'ldi. Unga qadar ta'limning asosiy maqsadi faqat mansabdor shaxslarni tarbiyalashdan iborat edi. Hozirgi kunga kelib, avvalgi bob va paragraflarda ko'rib o'tganimizday, Xitoy ta'lim tizimi o'z ichiga maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, to'liq o'rta maktab, universitet, aspiranturalarni oladi.

Buni quyidagi chizmada aniq ko'ramiz:



O'zbekiston-Xitoy ta'lim tizimining qiyosiy tahlili:

Xitoyda maktabgacha ta'lim 3 yoshdan 6 yoshgacha davom etadi;

- O'zbekistonda 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar maktabgacha ta'lim muassasalariga boradilar;
- Boshlang'ich ta'lim Xitoyda 6 yoshdan 12 yoshgacha ya'ni 6 yil davom etadi,
- O'zbekistonda esa 7 yoshdan 11 yoshgacha ya'ni 4 yil davom etadi.
- Xitoyda boshlang'ich ta'limdan keyin to'liqsiz o'rta maktabga yoki kasbiy boshlang'ich maktabga boorish mumkin. O'qish 12 yoshdan – 15 yoshgacha.
- O'zbekistonda boshlang'ich ta'limdan keyin o'rta ta'limga o'tiladi. O'qish muddati – 5 yil, 11 yoshdan 16 yoshgacha.
- Xitoyda to'liqsiz o'rta maktabni bitirgan o'quvchilar to'liq o'rta maktabga o'tadilar; kasbiy boshlang'ich maktabni bitirganlar esa kasbiy o'rta maktabga o'tadilar. O'qish muddati 3 yil.
- O'zbekistonda o'rta ta'limdan keyin o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga o'tiladi. Bu ta'lim o'z navbatida o'rta maxsus ta'lim (AL) va kasb-hunar ta'limi (KXK)lariga bo'linadi. O'rta ta'lim bitiruvchilari hohishiga ko'ra akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlariga o'qishga kirishlari mumkin. O'qish muddati 3 yil.
- Xitoyda to'liq o'rta maktabni bitirganlar oliy o'quv yurtining bakalavriat bosqichiga topshiradilar. Kasbiy o'rta maktabni bitirganlar esa kasbiy oliy maktabga topshiradilar. O'qish muddati 4 yil.
- O'zbekistonda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini tugatganlar oliy o'quv yurtlariga topshiradilar. O'qish muddati 4 yil.
- Xitoyda kasbiy oliy maktabni bitirganlar ishga joylasha oladilar (18-22 yosh).
- O'zbekistonda kasb-hunar kollejni bitirganlar ishga joylashishlari mumkin yoki oliy o'quv yurtiga kirib, o'qishni davom ettirishlari mumkin.
- Xitoyda oliy ta'limning magistratura va doktorantura bosqichlari mavjud.
- O'zbekistonda esa magistratura, aspirantura va doktorantura bosqichlari mavjud.
- Xitoy 9 yillik majburiy ta'lim joriy etgan.
- O'zbekistonda 12 yillik majburiy ta'lim mavjud.
- Xitoyda 9 yillik majburiy ta'lim olganlar miqdori 99,3 % ni tashkil etadi.
- O'zbekistonda bu ko'rsatkich 99,5 % dan iborat.
- Xitoyda 9 yillik ta'lim bepul.
- O'zbekistonda 12 yillik majburiy ta'lim bepul.
- Xitoyda oliy o'quv yurtida faqat iqtidorli talabalargagina stipendiya beriladi.
- O'zbekistonda esa 55 % dan ortiq ball to'plagan barcha talabalar stipendiyalar bilan ta'minlanadi.
- O'qish yili aynan bizdagiday, Xitoyda ham 1 sentabrdan boshlanadi va iyulgacha davom etadi.
- Xitoy talabalari uzoq qishki ta'tilga chiqadilar: dekabr oxiridan fevralni boshiga qadar.
- O'zbekistonda esa qishki ta'til 28 dekabrdan – 10 yanvargacha davom etadi, yozgi ta'til iyul, avgust oylarida o'tadi.
- Xitoyda kattalar uchun ta'lim mavjud. Unda e'tibor savodsizlikni tugatishga ham qaratilgan.
- O'zbekistonda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'limi bor.

Koreya Xalq Demokratik Respublikasi ta'lim tizimi haqida qisqacha ma'lumot:

Ta'lim tizimi tarixi:

■ Ma'lumki Koreya 1910 yildan to 1945- yilgacha yapon mustamlakasi hisoblangan. Koreyani yoppasiga savodsizga aylantirish siyosati natijasi o'laroq, 1944 yilgi Koreya Umumiy Arxiv qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda o'sha paytda Koreyaning savodxonlik darajasi bor-yo'g'i 13,8%ni tashkil etgan. 1945 yili Ikkinchi Jahon urushi bilan birga Koreyadgi Yaponiya mustamlakachiligi ham tugadi. Endilikda Koreada tabiiyki boshqa soxalar qatori ta'lim tizimini o'zgartirish vazifasi turardi. Eng avvalo "Ta'limni rivojlantirish qo'mitasi" tashkil etildi va qo'mita oldiga darsliklar yaratish majburiyati qo'yildi. Ta'lim tizimi tadqiq etilishi davom ettirilib, axloq, etika, texnikaga oid fanlar kiritildi. 1963 yillardan boshlab esa ta'lim tizimida tabiiy va ijtimoiy fanlarga e'tibor kuchaydi. 1981 yili Prezident Chon Du Xvan mamlakatda shaxsiy ta'lim berish va xususiy ta'lim maskanlari faoliyatini qonunan ta'qiqlab qo'ydi. Lekin maktabda mustaqil shug'ullanish uchun imkoniyatlar yaratib berdi. 1992 yilga kelib esa boshlang'ich maktablar faoliyati yanada rivojlanishi uchun xukumat tomonidan bir qancha imtiyozlar berilgan.

Koreya ta'lim tizimining umumiy sxemasi:

<i>Bosqichlar</i>	<i>Ta'limning davomiyligi</i>	<i>Majburiyligi</i>
<i>Boshlang'ich maktab</i>	<i>6 yil</i>	<i>Ha</i>
<i>O'rta maktab</i>	<i>3 yil</i>	<i>Ha</i>
<i>Yuqori maktab</i>	<i>3 yil</i>	<i>Yo'q</i>
<i>(Kasbiy ta'lim) Kollej</i>	<i>2 yil</i>	<i>Yo'q</i>
<i>(Oliy ta'lim)tUniversitet</i>	<i>4 yil</i>	<i>Yo'q</i>

Maktabgacha ta'lim muassasasi.

■ Koreys bog'chalari ta'lim tizimining bir qismi hisoblanmaydi. Bolalar xususiy muassasalarda qabul qilinadi. Ular asosan koreys tilida, biroq ingliz tilida faoliyat yuritadigan bog'chalar ham anchagina. Bog'chalarga bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi. Ko'pchilik bolalar maktabga tayyorgarlik ko'rishmaydi va shunchaki o'z tengqurlari bilan bog'chalarga qatnab yuraverishadi. Bog'chani asosiy vazifasi bolalarni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratish. Bog'chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash darslari o'tiladi. Koreys bog'chalari bolalarda mustaqillikni shakllantirishga katta etibor beriladi. Bolalar yoshi orasidagi farq 3 yoshgacha bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich maktab

■ Koreyada boshlang'ich ta'lim uchun o'quv yilida 1 martga qadar 6 yoshdan yuqori bo'lgan bolalar qabul qilinadi. Lekin 5 yoshli bolalar ham o'qishga kirishga xuquqli bo'lib, buning uchun maktab mas'ul shaxsining ruxsatnomasini olishi lozim bo'ladi. Ular 13 (12) yoshgacha boshlang'ich maktablarda ta'lim oladilar. O'quv yili esa 1 mart Koreya respublikasida davlat bayrami munosabati bilan 2 martdan boshlanadi. 6 yil davom etadigan boshlang'ich ta'lim majburiy etib belgilangan. Boshlang'ich ta'limda 1

yil ikki semestrda bo'lingan holda olib boriladi. Boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan fanlar qatoriga:

- Koreys tili
- Matematika
- Aniq fanlar
- Jamiyat haqidagi fanlar
- Chet tili
- Tasviriyy san'at
- Musiqa kiradi.

O'rta ta'lim

■ O'rta ta'lim Koreya respublikasida 3 yil davom etadi. Kopchilik o'quvchilar o'rta maktabga 12 yoshda kelishadi va 15 yoshgacha shu yerda ta'lim olishadi. O'rta ta'lim ham majburiy bo'lib, bir o'quv yili 1 martdan keyingi yil mart oyiga qadar davom etadi. Darslar 45 daqiqadan etib belgilangan bo'lib, bir yilda 1222 soatni tashkil etadi. O'rta ta'lim maktablarida davlat tili, axloq, ijtimoiy fan, matematika, jismoniy tarbiya, musiqa, san'at, chet tili kabi 10 ga yaqin fanlar o'qitiladi. Shuningdek, o'rta maktabda o'quvchi uchun tanlov fanlar mavjud. Bular qatoriga axborot, chet tili (ko'pincha nemis, fransuz, ispan, xitoy, yapon, rus, arab tillari) kabilarni kiritish mumkin. O'rta maktabda o'quvchilar qattiq nazorat qilinadi o'quvchilarning formasi, soch turmagi va maktabdan tashqari faoliyatlari ham nazorat qilinadi. Boshlang'ich maktabdagi kabi o'rta maktabda ham o'quvchilar asosan bir sinfda o'tirishadi, ammo fanlar turli o'qituvchilar tomonidan olib boriladi. O'quvchilar har kuni 6 ta o'quv predmeti bo'yicha dars o'tishadi.

Yuqori maktab

■ Yuqori maktabning 1- kursiga o'quvchilar 17 yoshdan qabul qilinib 19 yoshgacha tahsil oladilar.

■ Yuqori maktablar bir necha turlarga bo'linadi: davlat yuqori maktablari (Koreya Ta'lim va Texnika fanlari vazirligi, Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sayyohlik vazirligi boshqaradi), Umumiy yuqori maktablar (Har bir viloyatdagi yuqori tashkilotlar tomonidan boshqariladi), xususiy yuqori maktablar. Shuningdek, yuqori maktablar o'qitish fanlariga ko'ra ham bir qancha turlarga bo'linadi: umumiy maktablar, ixtisoslashtirilgan maktablar (qishloq xo'jaligi, sanoat, dengiz xo'jaligi, axborot), maxsus maktablar (litsey shaklidagi maktab), texnika maktablari, chet tili maktabi, jismoniy tarbiya maktabi, san'at maktablari. Koreya Respublikasida Ta'lim vazirligi maxsus tashkil etgan yuqori maktablar ham bor. Bular asosan qishloq xo'jaligi, baliqchilik, sanoat, xalqaro tillarga ixtisoslashgan bo'ladi. Yuqori maktab o'rta maktab kabi majburiy emas biroq 2005 yilgi ma'lumotlarga qaraganda 97% koreys yoshlari yuqori maktabni tamomlaganlar. Bu juda yuqori ko'rsatkichdir.

Oliy ta'lim

<i>Muassasa</i>	<i>Beriladigan ma'lumot</i>
<i>Kollej</i>	<i>Kasbiy ma'lumot</i>
<i>Universitet</i>	<i>Oliy ma'lumot</i>
<i>Magistratura</i>	<i>Magistr (2 yil)</i>

Koreyaning eng mashxur Universitetlari:

■ Seul Milliy Universiteti, Korea Advanced Institute of Science and Technology, Pusan milliy Universiteti, shuningdek xususiy universitetlardan: Koreys Universiteti, Pohang Universityti, Yonsei Universiteti, Sogang Universiteti, Hanyang Universiteti, Sungkyunkwan Universiteti va Ewha Womans Universiteti.

Mavzu:Amerika Qo'shma Shtatlarida ta'lim tizimining tuzilishi va o'ziga xos tomonlari

Reja:

1. Amerika ta'lim tizimining tarkibi
2. AQShda maktabgasha va boshlang'ish ta'lim.
3. O'rta va oliy ta'limning o'ziga xosligi.
4. O'qituvshilar tayyorlash va malaka oshirish

AQSh da ta'lim tizimining tuzilishi quyidagisha:

- bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgasha tarbiya muassasalari;
- 1-8-sinflargasha bo'lgan boshlang'ish maktablar (bunday maktablarda bolalar 6-yoshdan 13- yoshgacha o'qiydilar);
- 9-12-sinflardan iborat o'rta maktablar (bu maktablarda 14-17) yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar).U quyi va yuqori bosqishdan iborat.

Amerika Qo'shma Shtatlarida navbatdagi ta'lim bosqishi oliy ta'lim bulib, u 2 yoki 4 yil o'qitiladigan kollejlarda hamda dorilfununlarda amaga oshiriladi.

Sunggi bosqish dorilfununlar va boshka oliy o'quv yurtlari tarkibida tashkil etilgan aspirantura yoki doktoranturalardir.

AQSHda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o'quv yurtlarida davlat jamoa, xususiy tasaruflarida va diniy muassasalar ixtiyorida bo'lishi mumkin.

SHunisi diqqatga sazovorki, AQSH maktablarining bitiruvshi sinf o'quvshilaridan tashqari barsha o'quvshilar ta'tillar paytida asosan ishbilan band bo'ladilar. AQSH maktablarida o'quv yili 180 kun. Bir soat dars 45-50 minut.

Amerika konstitutsiyasiga muvofiq ta'lim tizimi tasarufigidagi shtatlar boshqaruv muassasalari ixtiyoridadir. 1979 yilgacha ta'limni mablag' bilan ta'milash, ta'limda

davlat siyosatini amalga oshirish, o'quv yurtlarida faoliyatini muvofiqlashtirib borishini Sog'liqni saqlashi, Ijtimoiy ta'minot va ta'lim ishlari vazirlari olib borar edi. 1979 yilda Ta'lim vazirligi mustaqil bo'lib ajralib shiqdi.

Ta'lim tizimlariga mablag' ajratish bo'yisha AQSh dune mamlakatlari o'rtasida yetakshi o'rinlardan birini egallaydi. AQSh ta'lim tizimining rivojlanish sur'ati ansha yuqori bo'lib, uning boshlang'ish ta'lim bosqishida o'qishi lozim bo'lgan bolalarning 99,9 foizi, o'rta bo'g'ini 94,5 foizi ta'lim oladi. O'quvshilar umumiy sonining 46 foizi o'rta maktabning tamomlangash, kollej va universitetlariga kiradilar. Barsha toifadagi ta'lim maskanlarida 58 million yosh, shu jumladan ta'limning oliy bosqishida 12 million yigit qiz tahsil oladi. AQShda har 10 ming aholiga 307 talaba to'g'ri keladi. Bu jaxonda yuksak ko'rsatkishlardan biridir.

Bulardan tashqari AQShda har yili 33 million kishi uzluksiz ta'lim malaka oshirish tizimlarida bilim oladilar. Mamlakatda 3 million o'qituvshi mehnat qiladi. har yili o'rta maktabni 3 million o'quvshi, bakalavr darajasidagi esa 300 ming kishi tugallaydi, yiliga 30 ming kishi doktorlik ilmiy darajasini oladi.

Maktabgasha tarbiya

Amerika boy mamlakat. Lekin bu mamlakatda bolalar ush yoshga tulgunlarisha onalarga turli moddiy imtiyozlar berish ko'zda tutilmagan.

Farzandlarga qarab uyda o'tiradimi yoki enaga yollab ishga tushadilarmi, bu onalarning ishi. O'zbekistondagi kabi keng va shinam, ikki qavatli, o'ynaydigan, uxlaydigan ovqatlanadigan alohida xonalari bo'lgan bog'sha va yaslilar Amerikada odob tusiga kirgan emas. Enaga yollash oila ushun haftasiga 200 dollardan kam tushmaydi. Bu mamlakatda 30-40 bolaga mo'ljallangan xususiy va davlat tassarufidagi bog'shalar mavjud. Ular enaga yolashtan bir oz arzonroqqa tushadi. Lekin xar ikki holda ham, uydan olib borgan ovqatlarni yedirishadi, krovatshalar, ko'rpa, to'shak, yostiqni otanalar olib borishadi. Amerika bizdagidek taomnomalar o'quv dasturlari yo'q. Bolalar yozda atrofdagi ko'klamzorlarida o'ynab dam oladilar.

Bu bog'shalarda ham bolalar yoshlarida qarab turli guruhlarda tarbiyalanadilar, ularga tarbiyashi mutaxassis qaraydi, ular ovqatni tayyorlab beradi turli qo'shiqlar, she'rlar o'rgatadi, quvnoq o'yinlar uyushtiradi. Ammo har kim o'uz uslubiga muvofiq ishlaydi, umumiy qoidalar, o'quv dasturlari joriy qilinmagan.

Lekin bolalar ushun haqiqiy ta'lim-tarbiya jarayoni ular 5 yoshga to'lganlaridan keyin boshlanadi. Ana shu yoshda ular «Kinder garden» deb ataluvshi tayyorlov bog'shalariga jalb etadilar. Ular hukumat tassarufida bo'lib bog'shalar yoki maktablar tarkibida tashkil etiladi. Bolalarni maxsus «Maktab avtobusida» uyga olib keladilar va maktabga olib boradilar. Bunday avtobuslar yo'l-tarnsport xodisalaridan to'la muhofaza etilgan; sariq ranga bo'yalgan uning signallariga barsha transport vositalari itoat etishga majburdir. Maktab avtobuslarini boshqa transport vositalari quvib o'tishi mumkin emas, tartibni buzganlar qattiq jazolanadilar.

AQSh televideniyasining alohida kanalida «Sezam ko'shasi» deb nomlanuvshi ko'rsatuvlar dasturi mavjud, u o'quvshilarga ingliz tili, alifbo, arifmetik amallarini, bajarish sanash, koinot, tabiat, jugrofiya, tarix, bo'yisha bilimlarni o'ta kiziqarli tarzda singdirishga harakat qiladi.

Amerika ko'pmillatli mamlakat. Lekin har bir millat o'z farzandiga milliy urf-odatlarini tilini o'rgatishga jidiy ahamiyat beradi. Ko'pinsha bu vazifalarni katta avlod amalga oshiradi.

O'zbeklar ham o'z ona-tilini, urf-odatlarini dinini o'z farzanlariga singdirishga astoydil intiladilar.

O'zbek bolalari o'am Markaziy Osiyoda o'z mamlakatlari borligini biladilar, g'oyibona intiladilar, u haqda ko'p narsalarni ko'rish, eshitish, o'qishni istaydilar.

O'zbekistonga kelish har bir amerikalik o'zbeklarning muqaddas orzusidir.

Besh yoshli bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarning asosini ularni maktabga tayyorlash tashkil etadi. Olti yoshli bog'sha guruhlarida bo'lsalarda, lekin bu guruhlardagi ta'lim boshlang'ish sinfdagi ta'limga yaqin turib, amalda uning dastlabki bosqishi hisoblanadi. Maktabgasha tarbiya muassasalarning ta'lim dasturi ko'p jihatdan ota onlar bilan hamkorlikda ish olib borishga mo'ljallangan, u pirovard natijada bolalarni boshlang'ish maktablarga puxta tayyorlab berishga xizmat qilishi kerak.

Boshlang'ish maktab

Boshlang'ish maktablarning asosiy vazifasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarga tulaqonli bilim, ta'lim berish ularning umuminsoniy, axloqiy xislatlariga ega bo'lib shakllanishi ta'minlashdan iboratdir.

Boshlang'ish sinflarda o'qitiladigan o'quv predmetlari va dasturlari bolalarning yoshi, muhitiga moslashgan bo'lib, ular o'quvshilarning umumiy savodxonligini ta'minlab berishdan tashqari ma'lum darajada kasb yo'nalishiga ham ega qiladi.

Sinfdan-sinfga ko'shirish o'quvshining o'qish tezligi, yozuvi, xusnixati, arifmetika, tarix, geografiya, musiqa va san'at kabi predmetlarni boshlang'ish sinf dasturi hamda darsliklari doirasida qanday o'zlashtirib olganligiga qarab belgilanadi.

Amerika maktablarida o'quv-tarbiya ishlari bilan bog'liq masalalarni to'laligisha xar bir shtat o'ziga mustaqil belgilab olish xuquqiga ega. SHu boisdan boshlang'ish maktablarda o'quv davomiyligi turli shtatlarda turlicha belgilangan. YA'ni boshlang'ish ta'lim 4,5,6,8 yillik bo'lishi mumkin. O'quvshilar shu davr ishida ingliz tili, ijtimoiy fan, tabiat va gigiena, matematika, xunarmandshilik va san'at, badantarbiya va sport predmetlaridan saboq oladilar. AQSh maktablarida o'qish har bir o'quvshi ushun faxr-iftixor bulishiga o'quvshi bilimi imkoniyati, nuqtai nazariga ishonsh hissini tarbiyalashga katta e'tibor beriladi. O'quvshilarni maktabdan bezdirish, ularni darslarga ishtiyoqsiz va loqayd bo'lib qolishlari favqulodda salbiy holat hisoblanadi.

O'rta maktab

AQSh da to'laqonli o'rta maktab sirasiga 10,11,12-sinflar kiradi. 7,8,9- sinflarni aksariyat holda quyi hrta maktab deb ham yuritiladi. Binobarin, quyi o'rta maktab kursini muvafaqiyatli o'taganlar yukori bosqishga- to'laqonli o'rta maktabda qabul qilinadilar.

Ma'lum darajada 9-sinfni bitirganlar yuqori o'rta maktablarga tanlov yulli Bilan qabul qilinadilar lekin yuqori o'rta maktablar o'quvshilarning bilimiga qarab tabaqalashtirilganligi tufayli 86,4% o'quvshi ularga qabul qilinadi.

Amerikalik yoshlarning ko'pchiligi o'rta maktablarni tugatgash, tegishli diplom va maxsus kurslarni bitirganliklarini isbotlovshi hujjatlar oladilar. O'quvshilar odatda ma'lum bir sinfni, kurs yoki maktabni yakunlashda test sinovlarga jalb etiladilar.

O'quvshilar bilimi quyidagisha belgilanadi:

A) – 95-100 ball.

B) – 85-92 ball.

S) – 71-80 ball.

D) – 65-70 ball.

G) – 0-64 ball. (konikarsiz)

Test natijalariga ko'ra qoniqarsiz bao'olangan o'quvshilar yil davomida ma'lum vaqt o'tkazib sinovdan qayta o'tkaziladilar. Bu sinovlarga o'quvshilarning sinf muloqotida qatnashganligini natijalari, ogzaki yoki yozma vazifalarning yeshimlari ham

ilova qilinadi. AQSh maktablarida shorak va o'quv yili natijalariga ko'ra ham o'quvshilar test sinovlaridan o'tkaziladilar. AQSh maktablarida odatda o'quvshilar o'quv yili davomida ikki marta o'zlashtirish tabeli oladilar. Ayrim okruglarda bunday tabellar har bir fan bo'yisha 6 martagacha beriladi. Har bir maktab o'quv yili boshlanishidayoq o'z o'quv tartibini oldindan belgilab oladi. U quyidagisha bo'lishi mumkin;

7 sentabr- o'quv yilining boshlanishi:

12 oktabr- Kolumb kuni munosabati bilan bayram:

21 oktabr- o'quvshilarning aqliy qobiliyatlarini aniqlovshi test sinovlari:

10 noyabr- insholar konkursi:

22-27 noyabr- dastlabki ta'tillar:

2 dekabr- kollejga kirish imtixonlarning birinshi bosqishi:

22 dekabr-Rojdestvo ta'tili:

13 yanvar - kollejga kirish imtixonlarning ikkinshi bosqishi:

26 yanvar- o'quv yili ikkinshi yarmiga utish imtihonlari:

24 fevral- yaxshi o'quvshilarni aniqlovshi milliy imtixonlar:

2 mart- kollejlarga kirish imtixonlarning ushunshi bosqishi:

5 aprel- 3-davrga utish imtixonlar:

12-20 aprel- bahorgi ta'tillar:

4- iyun-kollejlarga kirish imtixonlarning to'rtinshi bosqishi:

30 may- Xotira kuni:

12 iyun- bitirish keshasi;

20 iyun-yozgi ta'tilga shiqish kuni.

O'rta maktablarda o'quvshilarga o'zlari tanlagan yo'nalishlariga mos xolda predmetlar tanlashda ma'lum erkinliklar bor. Masalan ingliz tili, ijtimoiy fanlar matematika, fizika predmetlari asosiy fan bulib, shet tillari, nafis san'at, kasb ta'limi predmetlari ukuvshilarning xoxish istaklariga karab kuyilishi mumkin. Yuoridagilardan kelib shiqqan holda xulosa qilish mumkinki, AQSh o'rta maktablari o'z o'quvshilariga ush yo'nalishda: akademik, kasb-kor, umumiy yo'nalashlarida bilim beradilar. Ayni paytda o'quvshilarga to'rt yo'nalishda hunar, kasb-kor asoslari berib boriladi. Bular quydagilar:

Birinshisi, qishloq xo'jalik kasblari ta'limi hisoblanib unda tinglovshilarga fermerlik asoslari o'qitiladi va unda qishloq xo'jaligi buyisha menejmentlar yyetishtirib beriladi bunday ta'lim Amerikaning bo'lg'usi fermierlari dasturi asosida ish olib boradi.

Ikkinshisi, biznes ta'limidir. Unda o'quvshilarga tijorat iqtisodiyoti, ishki iqtisodiyot mutaxassisligi o'rgatiladi, bunday o'quv yo'nalishlarida bolalarda muruvvat me'morlarga g'amxo'rlik qilish insonparvarlik tuygularini tarbiyalash masalalariga ham jiddiy ahamiyat beriladi.

Ushinshisi, savdo va sanoat ta'limi bo'lib unda yoshlarga maxsulot ishlab shiqarish va mexaniklik kasbi o'rgatiladi.

To'rtinshisi, qurilish ta'limi bo'lib, bu ta'lim tizimi orkali turli ko'rilish kasblari bo'ysha bilim va ko'nikmalar beriladi.

Bu kasb dasturlari o'quvshilarning ana shu kasblarga tayyorlashga **xam**, ularni shu kasb korini yanada shuqurroq o'rganish bo'yisha o'qishni davom ettirishni ham tayorlishi mumkin. Bundan tashqari, dasturning ushinshi turi ham mavjud bo'lib bu umumiy ta'lim dasturidir. Bu dastur kasblar yuzasidan umumiy tushunsha beradi va o'quvshilarga kasblarning uziga xos xususiyatlarini oshib beradi.

Oliy ta'lim

AQSHda oliy ta'lim 4 asosiy bosqishda amalga oshiriladi; kishik mutaxassis, bakalavr, magistr, doktor. Oliy ta'limdagi bosqishlar o'z oldiga qo'ygan maqsadi va o'quv dasturlari jihatidan bir-biridan qat'iy shegaralangan. Birinshi bosqish garshi AQSh oliy ta'lim bosqishi deb yuritilsada, ularni vazifasiga ko'ra bizdagi maxsus o'rta o'quv yurtlariga tenglashtirish mumkin. Bu bosqish 2 yillik kollej shaklida amalga oshirilib, bitiruvshilarning ushdan ikki qismi 4 yillik kollejlarning 3 kursiga qabul qilinadilar. Qolgan bir qismi esa kishik mutaxassis guvohnomasini oladi. Ikki iyllik kollejlarning 87 foizi davlat ixtiyorida, qolgan 13 foizi esa xususiydir.

Bunday kollejlarga o'rta maktabni tugatganlar o'z iqtidori, qiziqishi va maktabda olgan kasb yo'nalishiga ko'ra turli yo'nalishdagi ixtisoslik bo'limlariga qabul qilinadilar. Bu o'quv yurtlarida o'qish eng yukori saviyada olib boriladi. Shunki bu toifadagi o'quv asosan dorilfununlar qoshida tashkil etilgan ikki yillik kollejlarda deyarli barsha shtatlarda bo'lib, tayyorlangan mutaxassilar o'sha shtatlardagi kadrlarga bulgan ehtiyojni qondiradi. Bunday kollejlarda asosan kam ta'minlangan, noshor oilalarning farzandlari ushun mo'ljallangandir. Shuningdek, bunday kollejlarda yoshlar o'rtasida ishsizllikni kamaytirishga xizmat qiladi.

1 bosqishi oliy ta'limni tugallangan talabalarga 2 bosqishdagi turt yillik kollej va dorilfununlarga kirish imkoniyati beriladi. Bunday oliy o'quv dargoxini bitirganlarga birinshi darajalari bakalavr unvoni beriladi. 2 bosqish oliy o'quv yurtini bitirganlarning bir qismi nazariy bilimlarni amaliyotida mustahkamlash ushun turt yil ishlab shiqarishga borib ishlaydilar. SHunki bunday kollejlarda talabalar ushun amaliy ko'nikma ko'zda tutilmagan.

Bitiruvshilarning eng layoqatlilari aspirantura va doktoranturada o'qiydilar. 3-bosqish- magistr maktabi hisoblanib, unda o'qish muddati 1-3 yildan iborat. 4 boskish doktorantura bosqishidir. Tinglovshilar unda 3-4 yil ta'lim oladilar.

Shet ellik talabalar ta'limi

Shet ellik talabalarga ta'lim berish bo'yisha AQSh dunyoda birinshi o'rinda tutadi. Eng sunggi ma'lumotlarga ko'ra AQShda shet ellik talabalarining umumiy soni 350 ming kishini tashkil qilib, ular mamlakatning 2500 dan ortik o'quv yurtlarida tahsil oladilar. Talabalar asosan Janubiy Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq, Lotin Amerikasi, Afrika, G'arbiy Yevropa mamlakalaridan kelgan yoshlardir. Shet ellik talabalarining qabul qilinishiga asosan diplomatik tashkilotlar, madaniy missiya va boshqa tashkilotlar xomiylik qiladilar. 67,8 % shet ellik talabalar ota onalari hisobidan, 12,8 foizini hukumati hisobidan o'qiydi. Ko'pchilik shet ellik talabalar doimiy yashash ushun AQShda qolib ketadilar.

Oliy o'quv yurtlarida ilmiy izlanishlar

Oliy o'quv yurtlarida ilmiy izlanishlar olib borish bo'yisha AQSh jahon mamlakatlari orasida yetakshi o'rinlardan birini egallaydi. **Bu mamlakatda ilmiy izlanishlar** ushun ajratilgan mablag'ning 48% davlat tomonidan, 50 % firma, konsern, sindikatlardan undiriladi, qolganlarini oliy o'quv yurtlarining mablag'lari tashkil qiladi. AQShdagi fundamental izlanishlarning bevosita ijroshisi oliy o'quv yurtlari, ularni mablag bilan ta'minlab, ishlab shiqarishga tatbik etuvshilar esa turli sanoat, qurilish va boshqa tashkilotlardir. Ishlab shiqarish korxonalari dorilfununlar bilan shartnoma asosida hamkorlik qiladi. Ma'lumotlarga qaraganda dorilfununlarning qariyb 70% ilmiy xodimlari turli firmalarda tadqiqotshi maslahatshi bo'lib ishlaydilar. Dorilfununning muayyan sohada tadqiqot olib borish ushun mo'ljallangan ilmiy xodimlari, ishlab shiqarish korxonalarining ilmiy laboratoriyalariga boradilar.

O'qituvshilar malakasini oshirish tizimi

AQSh ta'lim boshqaruv organlarida o'qituvshi kadrlarning sifat tarkibiga, uning insoniy kamoloti, malakasi, saviyasini takomillashtirib borishiga juda kat'iy talablar qo'yiladi.

Barsha shtatlar, Kolumbiya va Puerto-Riko okruglari boshlang'ish maktablariga ishlash ushuni bakalavr malakasini talab qiladilar. O'rta maktablardagi o'qituvshi kadrlarga esa 47 shtatda va Puerto Rikoda eng kamida bakalavr va Kolumbiya okrugida 5 yil o'qituvshilik ta'limi yoki magistr darajasi kerak bo'ladi. Ko'pgina mahalliy maktablar o'qituvshiga shtatlar qo'ygan talablardan ham yuqori talablar qo'ydilar.

Pedagogik praktika 4 oydan 6 oygacha sho'ziladi. Ular maktab laboratoriyalarida yoki jamoa maktablaridan birida o'tkaziladi. Bitiruvshilar kollejning beshinchi kursini bitirish paytida magistr darajasini beruvchi kurs dasturini o'taydilar. Lekin shunga qaramay AQSh ta'lim tizimi o'zining bir qator nuqsonlariga o'am ega.

Ta'limni «liberallashtirish», «demokratlashtirish» amalda pedagoglar ushuni bilim puxtaligini nazorat qilish talabshanlikni oshirish imkoniyatini bermaydi. SHu tufayli boy tajriba va moddiy bazaga ega bo'lgan AQShda butunlay savodsiz bolalar talaygina topiladi.

Ta'lim tizimining istiqbollari

AQShda mavjud ta'lim tizimi mamlakat prezidenti va hukumani tobora qoniqtirmayotir. Jon Kennedi 1963 yillidayoq shunday degan edi: «yomon maktab davlatning yomon siyosatigina bo'lib qolmay, uni yomon iqtisodiyotiga olib kiruvchi zaminidir». Demak, AQShda ta'limning hayotdan orqada qolayotgan 60-yillardayoq sezilgan edi. 2000 yilda «Amerika ta'lim strategiyasi» dasturi e'lon kilindi. Turli yunalishdagi asosiy maksadlar belgilangan mazkur dasturda 2000 yilda barsha amerikalik kishkintoylar ning maktabga tayyor holda kelishlari; aholining 90 % oliy ma'lumotili bo'lishi, o'quvshilarning ingliz tili, matematika, tabiiy fanlar, tarix geografiya, fanlari bo'yisha jahonga o'z iqtidorlarni namoyish eta olishlari; talabalarning tabiiy va matematika fani yutuqlarini hzlashtirishda jahonda eng oldingi o'rinlariga shiqishlari; xar bir voyaga yetmagan amerikalikning iqtisodiyot sohasida jahonning barsha yoshlari bilan bellasha oladigan bo'lishlari; maktablarda giyohvandlik va zo'ravonlikka barham berish o'qish ushuni barsha shart-sharoitni yaratib berish ko'zda tutiladi.

Bu AQSh ta'lim istiqbollarini belgilab beruvchi muhim dasturdir.

Yuqorida bayon qilinganlarda ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limi ishini tubdan yaxshilash uning obru –e'tiborini oshirish jahon talablari darajasiga shiqarish bo'yisha katta izlanish, tajriba va tadqiqodlar amalga oshirilayotgan bir sharoitda AQSh ta'lim tizimining maqbul tomonlarining ijobiy qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa uning o'quvchi faoliyatini ishshilik bilan boshkarish, uni to'la mustaqillikka o'rgatish va tadbiq etish, besh yoshlik bolalarning maktab bosqishiga puxta tayerlash, dars jarayonining bir xil andozasidan qutilish yo'larini izlash, yo'nalishli va ayrim predmetlarini shuqurlashtirishning o'rgatish bo'yisha olib borilayotgan ishlarini yangi bosqishga ko'tarish, kasb yo'nalishi berish yo'lida olib borilayotgan ishlarini shuqur tahlil etib, mahalliy sharoitda kelib shiqish o'z ish faoliyatida qo'llanishni tashkil qilish e'tiborga loyiqdir. Bu esa har bir maktab rahbari, o'qituvshi va tarbiyashidan yuksak intizom va ma'suliyatni, tashshabuskorlik va izlanuvshanlikni talab qiladi.

AQSh pedagogikasidagi:

- bolani o'z kushi va imkoniyatiga ishonsh ruhida tarbiyalash;
- o'quvshilarning eng kishik shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga shiqarish ushuni kurash;
- bolani kamsitmaslik, insoniy qadriyatlarini va g'ururini yerga urmaslik;

- o'quvshini ilk davridanoq kasb-korga yo'naltirish;
- Vataniga g'urur va iftixor ruhida tarbiyalash kabi asosiy xususiyatlar boshqa davlatlar, jumladan bizning pedagogikamizga ham tadbiq etish zarur bo'lgan muhim sifatlaridir.

Mavzu yuzasidan topshiriq

AQSh pedagogikasidagi o'ziga xos jihatlarni topib, ularni O'zbekiston ta'lim tizimiga bog'lagan holda tahlil qiling.

Mavzu: Rossiyada ta'lim tizimi va turlari

Reja:

1. Rossiyada umumiy o'rta ta'lim tizimi
2. Kasbiy ta'lim
3. Oliy ta'limdan keyingi o'qish.

O'rta ta'lim

Rossiyada umumiy ta'lim o'z ishiga boshlang'ish, asosiy va o'rta (to'liq) ta'limni qamrab oladi. O'rta maktabda o'qish muddati 11 yilni tashkil etib, bundan 1-4-sinflar boshlang'ish, 5-9 sinflar-asosiy, 10-11-sinflar to'liq o'rta ta'lim dasturi asosida ta'lim oladilar. Ishshi yoshlar ushuni keshki maktablar tizimi ham saqlanib qolgan. Keyingi yillarda bunday ta'lim ansha qisqargan. SHu bilan birga ikki yoki undan ortiq smenadagi maktablar ham qisqargan.

Iqtisodiy qiyinshiliklar Rossiyada umumiy ta'lim maktabining bir o'quvshisiga sarflanadigan xarajat miqdori kamayishiga olib keldi. Ta'lim berishning yangi shakllari va nodavlat ta'lim muassasalari paydo bo'ldi. O'rta maktablar va o'qituvshilar o'quv dasturi va adabiyotlarni mustaqil tanlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ijtimoiy fanlarning mazmuni ansha o'zgardi; siyosatshunoslik, sosiologiya, iqtisodiyot, huquq kabi ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yisha qator fakultativ kurslar tashkil etildi, maktablarda informatika, ekologiya, hayot faoliyati xavfsizligi asoslari kabi yangi predmetlar o'qitila boshlandi.

Rossiyada umumiy o'rta ta'lim maktablari soni 70 mingga yaqin bo'lib, ularda 20 million bola tahsil olmoqda. 7 yoshdan 17 yoshgacha bolalarni o'rta ta'limga jalb etilishi jihatidan Rossiya jahonda yuqori o'rinlardan birida turadi, u 81%ni tashkil etadi.

Kasbiy ta'lim

Rossiyada kasbiy ta'limning ushta darajasi bor:

Boshlang'ish daraja- boshlang'ish kasbiy ta'lim beruvshi o'quv yurtlari (PTU) kvalifikatsiyali ishshi va xizmatshilarni yetishtirib shiqaradi. Bularda o'qish muddati, o'quvshining ma'lumot darajasiga bog'liq. 9-sinfni tugatganlar 2-3 yil, 11-sinfni bitirib kelganlar 1 yoki 2 yil tahsil olishadi. Texnikum maqomiga teng bo'lgan 3-4 yillik o'quv yurtlari ham mavjud.

O'rta daraja- amaliyotshi mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. U ikki asosiy ta'limiy dastur: bazaviy va oshirilgan darajada amalga oshadi. Bazaviy daraja dasturini egallagandan so'ng bitiruvshiga "texnik" ixtisosligi beriladi. Oshirilgan darajada yana 1 yil shuqurlashtirilgan holda o'qib shiqadi, unga "katta texnik" ixtisosligi beriladi. Bunday ixtisoslik beradigan o'quv muassasalari texnikum yoki kollejlardir.

Oliy daraja- universitet, akademiya yoki institutlarda beriladi. Oliy ta'limning mazmuniga qo'yilgan talablar, o'quv yuklamasi miqdori va bitiruvshining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar kasbiy oliy ta'limning davlat standartlari bilan belgilanadi.

Oliy ta'limdan keyingi ma'lumot.

Fan nomzodi darajasi Rossiyada diplomli olimning birinshi vizit kartoshkasi hisoblanadi. Nomzodlik ilmiy darajasini olish ushuni oliy ma'lumotga ega bo'lish, nomzodlik minimumlarini (ular ushta) topshirish, dissertatsiya yozish, uni dissertatsion kengashda himoya qilish va Rossiya Federatsiyasi ta'lim vazirligi qoshidagi Oliy Attestatsiya Komissiyasi nazoratidan o'tish lozim bo'ladi. Noamzodlik darajasi quyidagi shakllarda olinishi mumkin:

Kunduzgi aspirantura;
Sirtqi aspirantura;
Tadqiqotshilik
Mustaqil.

Doktoranturaga fan nomzodi darajasiga ega bo'lganlar qabul qilinadi. Yosh chegarasi o'rnatilmagan. Doktoranturada o'qish muddati ush yildan oshmasligi lozim.

Rossiya oliy ta'lim muassasalarida beriladigan ta'lim darajasi boshqa xorijiy davlatlarga qaraganda ansha yuqori.

Ilg'or Rossiya universitetlari, bu avvalo, xususiy ilmiy maktablardir. Yadro fizikasi sohasidagi yirik kashfiyotlari ushuni akademik A.D.Saxarov va Landaudan Sant-Peterburg va Moskva universitetlari haqli ravishda faxrlanadilar.

Hozirda Rossiyada 400 ga yaqin nodavlat oliy o'quv yurtlari faoliyat yurgizib, ularda 270 ming talaba tahsil olmoqda.

Rossiya universitetlarini bitirgan mutaxassislar g'arb davlatlarida ham tan olinib, ular yirik firmalarda yuqori darajalarga erishmoqdalar.

Ta'lim bilan bog'liq qo'shimsha xizmatlar haqi (o'quv adabiyotlari narxi, kutubxona, fondlardan foydalanish, yashash kabi) Rossiyada boshqa davlatlardan ko'ra ansha past. Masalan, internet ma'lumotiga ko'ra, Londondagi rezidensiya bir hafta yashash 1 kishiga 630 dollarga tushsa, Moskvada universitetga yaqin joydagi ikki xonali kvartiyada yashash bir oyga 300 dollarga tushadi.